

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

Xazratov F.X., Atamuradov J.J., Raximov F.B.

**CHAQIRIQQACHA BOSHLANG‘ICH
TAYYORGARLIKNI O‘QITISHDA
AXBOROT-KOMMUNIKATSION
TEXNOLOGIYALARI**

(O‘quv qo‘llanma)

Oli ta‘lim bakalavriatura 5111500 – Chaqiriqqacha harbiy ta‘lim
yo‘nalishlari 3-bosqich talabalari uchun

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro - 2021**

UO'K 355.11:004.85(075.8)

A 87

Atamuradov, J.J., Xazratov, F.X., Raximov, F.B.

Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlikni o'qitishda axborot - kommunikatsion texnologiyalari [Matn] : o'quv qo'llanma / J.J.

Atamuradov, F.X. Xazratov, F.B. Raximov.-Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durдона,2021.-376 b.

32.973.202ya7

22.18ya7

Mazkur o'quv qo'llanma bakalavriatura 5111500 – Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishlari uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlikni o'qitishda axborot - kommunikatsion texnologiyalari” namunaviy fan dasturiga muvofiq tuzilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmada chaqiriqqacha harbiy ta'limda talabalarga zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o'qitish darajasini yangi bosqichga ko'tarish , ta'limda foydalanishi mumkin bo'lgan zamonaviy dasturiy ta'minotlarni amalda qo'llashga qaratilgan bo'lib axborot texnologiyalari va ularning ta'lim sohasidagi xizmatlaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berilgan. O'quv qo'llanma 3-bosqich talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib “Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlikni o'qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalari” fanidan nazariy ma'lumotlar berilgan.

Taqrizchilar:

H.O. Jo'rayev - Buxoro davlat universiteti, pedagogika fanlari doktori, dotsent.

Sh.K. Raimov- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi, rezervdagi podpolkovnik p.f.n. dotsent.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 31-maydagi 237-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berildi. Ro'yxatga olish raqami 237-222.

ISBN 978-9943-7701-1-9

АННОТАЦИЯ

Атамуратов Ж.Ж., Хазратов Ф.Х., Рахимов Ф.Б. Информационные и коммуникационные технологии в обучении допризывной начальной подготовки . Учебник - Бухара, Бухарский государственный университет, 2021 380 стр.

Учебник основан по модельной научной программе «Информационные и коммуникационные технологии в обучении допризывной начальной подготовки», утвержденной Министерством высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан для бакалавриата 5111500 - Допризывное военное образование.

Данное пособие направлено на то, чтобы поднять уровень допризывного военного образования на новый уровень с помощью современных информационных технологий, практического применения современного программного обеспечения, которое может быть использовано в образовании, а также особенностей использования информационных технологий и их обучения. Учебник рассчитан на студентов 3-го курса и дает теоретические сведения по предмету «Информационно-коммуникационные технологии в обучении допризывной начальной подготовки».

Рецензенты:

Н.О. Джураев - Бухарский государственный университет, доктор педагогических наук, доцент.

Ш.К. Раимов - Академия Вооруженных Сил Республики Узбекистан, подполковник запаса п.ф.н. доцент.

ANNOTATION

Atamuradov J.J., Khazratov F.Kh., Rakhimov F.B. Information and communication technologies in teaching pre-conscription initial training. Textbook - Bukhara, Bukhara State University, 2021 380 pp.

The textbook is based on the model scientific program "Information and communication technologies in teaching pre-conscription primary training", approved by the Ministry of Higher and Secondary Specialized Education of the Republic of Uzbekistan for undergraduate 5111500 - Pre-conscription military education.

This manual is aimed at raising the level of pre-conscription military education to a new level with the help of modern information technologies, the practical application of modern software that can be used in education, as well as the features of the use of information technologies and their training. The textbook is designed for third-year students and provides theoretical information on the subject "Information and communication technologies in teaching pre-conscription primary training."

Reviewers:

H.O. Dzhuraev - Bukhara State University, Doctor of Pedagogy, Associate Professor.

Sh.K. Raimov - Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan, reserve lieutenant colonel p.ph.n. docent.

MUNDARIJA

KIRISH.....	9
1 - MAVZU	13
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI.	13
2 – MAVZU	33
AKT VOSITALARINI YARATISH VA O`QUV-TARBIYA JARAYONIDA QO`LLASHNING DIDAKTIK ASOSLARI.....	33
3-MAVZU	43
CHAQIRIQQACHA BOSHLANG`ICH TAYYORGARLIK O`QUV JARAYONIGA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA O`QUV VAZIFALARI.	43
4-MAVZU	80
TA`LIMDA KULLANILADIGAN TEXNIKAVIY VA DASTURIY TA`MINOT VOSITALARNI TURLARI.	80
5-MAVZU.	109
MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI VA VOSITALARI.....	109
6- MAVZU	129
ELEKTRON POCHTA.....	129
7- MAVZU.....	149
MS POWER POINT DASTURINING ASOSLARI.	149
8- MAVZU	172
MS POWER POINT DASTURIDA CHAKIRIKKACHA BOSHLANGICH TAYYORGARLIK MAVZULARIDA PREZENTATTSIYALAR YARATISH ASOSLARI.	172
9-MAVZU.....	193
PREZI.COM DASTURINING ASOSLARI.....	193
10-MAVZU.....	210
PREZI.COM DASTURIDA CHAQIRIQQACHA BOSHLANG`ICH TAYYORGARLIK MAVZULARIDA PREZENTATSIYALAR YARATISH ASOSLARI.....	210
11- MAVZU.....	235
ELEKTRON DARSLIK: CHAQIRIQQACHA BOSHLANG`ICH TAYYORGARLIK FANLARI BO`YICHA TURBO SITE PLATFORMASIDA YARATISH.	235

12- MAVZU.....	269
O‘QUV KURSI: CHAQIRIQQACHA BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK MAVZULARIDA ISPRING SUITE PLATFORMASIDA YARATISH.....	269
13- MAVZU.....	287
O‘QUV VIDEO PARCHALARINI YARATISH TEXNOLOGIYASI. HAR XIL PLATFORMALARDA CHAQIRIQQACHA BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK MAVZULARI BO‘YICHA VIDEO DARSLIKLAR YARATISH.	287
14 MAVZU.	311
MASOFAVIY TA‘LIM TUSHUNCHASI, TA‘LIMNING MAXSUS SHAKLI, UNING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISH TARIXI.	311
15- MAVZU.....	327
MASOFAVIY TA‘LIM: G‘OYALAR, TEXNOLOGIYALAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.	327
16- MAVZU.....	340
CHAQIRIQQACHA BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK MASOFAVIY O`QISHNI TASHKIL QILISH VA BOSHQARISH.	340
GLOSSARIY	363
ADABIYOTLAR.....	375

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ.....	9
1-ТЕМА	13
ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ЕГО ОСНОВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ....	13
2–ТЕМА.....	33
ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЗДАНИЯ И ПРИМЕНЕНИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ИКТ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ	33
3-ТЕМА	43
ВНЕДРЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ И КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ДОПРИЗЫВНОЙ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ.	43
4-ТЕМА	80
ВИДЫ ТЕХНИЧЕСКИХ И ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ОБРАЗОВАНИИ.	80
5-ТЕМА.	109
МУЛЬТИМЕДИЙНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И СРЕДСТВА.....	109
6-ТЕМА	129
ЭЛЕКТРОННОЕ ПОЧТА.	129
7-ТЕМА.	149
ОСНОВЫ ПРОГРАММЫ MS POWER POINT.	149
8-ТЕМА	172
ОСНОВЫ СОЗДАНИЯ ПРЕЗЕНТАЦИЙ В MS POWER POINT ПО ТЕМАМ ДОПРИЗЫВНОЙ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ.	172
9-ТЕМА.	193
ОСНОВЫ ПРОГРАММЫ PREZI.COM	193
10-ТЕМА.	210
ОСНОВЫ СОЗДАНИЯ ПРЕЗЕНТАЦИЙ В ПРОГРАММЕ PREZI.COM ПО ТЕМАМ ДОПРИЗЫВНОЙ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ.....	210
11- ТЕМА.	235
ЭЛЕКТРОННЫЙ УЧЕБНИК: СОЗДАНИЕ НА ПЛАТФОРМЕ TURBO SITE ДЛЯ ПРЕДМЕТОВ ДОПРИЗЫВНОЙ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ.....	235
12-ТЕМА.	269

УЧЕБНЫЙ КУРС: СОЗДАНИЕ НА ПЛАТФОРМЕ ISPRING SUITE ПО ТЕМАМ ДОПРИЗЫВНОЙ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ.....	269
13-ТЕМА.	287
ТЕХНОЛОГИЯ СОЗДАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ВИДЕО. СОЗДАНИЕ ВИДЕО УЧЕБНИКОВ В РАЗНЫХ ПЛАТФОРМАХ ПО ТЕМАМ ДОПРИЗЫВНОЙ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ.....	287
14-ТЕМА.	311
КОНЦЕПЦИЯ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ, СПЕЦИАЛЬНАЯ ФОРМА ОБРАЗОВАНИЯ, ИСТОРИЯ ЕГО СОЗДАНИЯ И РАЗВИТИЯ.....	311
15-ТЕМА.	327
ДИСТАНЦИОННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: ИДЕИ, ТЕХНОЛОГИИ, ПРОБЛЕМЫ И ПРОГРЕСС	327
16-ТЕМА.	340
ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ДИСТАНЦИОННЫМ ОБУЧЕНИЕМ ДОПРИЗЫВНОЙ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ.....	340
ГЛОССАРИЙ.....	363
ЛИТЕРАТУРА.....	375

TABLE OF CONTENTS

INTRODUCTION.....	9
1 - THEME.....	13
INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES AND ITS BASIC CHARACTERISTICS.....	13
2 – THEME.....	33
DIDACTICAL BASIS OF CREATION AND APPLICATION OF ICT TOOLS IN THE LEARNING PROCESS.....	33
3- THEME.....	43
IMPLEMENTATION OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF EDUCATION OF PRE-CONSCRIPTION TRAINING.....	43
4- THEME.....	80
TYPES OF TECHNICAL AND SOFTWARE MEANS USED IN EDUCATION.....	80
5- THEME.....	109
MULTIMEDIA TECHNOLOGIES AND FACILITIES	109
6- THEME.....	129
E - MAIL.....	129
7- THEME.....	149
BASICS OF THE MS POWER POINT PROGRAM	149
8- THEME.....	172
BASIS OF CREATING PRESENTATIONS IN MS POWER POINT ON TOPICS OF PRESENTATION PRE-CONSCRIPTION TRAINING.....	172
9- THEME.....	193
BASICS OF THE PREZI.COM PROGRAM.....	193
10- THEME.....	210
BASIS OF CREATING PRESI.COM PROGRAM PRESENTATIONS ON THE TOPICS OF PRE-CONSCRIPTION TRAINING.....	210
11- THEME.....	235
ELECTRONIC TEXTBOOK: CREATING ON THE PLATFORM TURBO SITE FOR PRE-CONSCRIPTION TRAINING.....	235
12- THEME.....	269

TRAINING COURSE: CREATING ON THE PLATFORM ISPRING SUITE ON TOPICS OF PRE-CONSCRIPTION TRAINING.....	269
13- THEME.....	287
TECHNOLOGY OF CREATING EDUCATIONAL VIDEOS. CREATION OF VIDEO TEXTBOOKS IN DIFFERENT PLATFORMS ON TOPICS OF PRE-CONSCRIPTION TRAINING	287
14 THEME.	311
THE CONCEPT OF DISTANCE EDUCATION, SPECIAL FORM OF EDUCATION, THE HISTORY OF ITS CREATION AND DEVELOPMENT	311
15- THEME.....	327
DISTANCE EDUCATION: IDEAS, TECHNOLOGIES, CHALLENGES AND PROGRESS.....	327
16- THEME.....	340
ORGANIZATION AND ADMINISTRATION OF DISTANCE LEARNING OF PRE-CONSCRIPTION TRAINING.....	340
GLOSSARY	363
LITERATURE	375

KIRISH

Ushbu o'quv qo'lanma «Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlikni o'qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalari» o'quv fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari asosida ishlab chiqilgan.

Qo'llanma, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan, fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikmaga, malakasiga qo'yilgan talablardan kelib chiqib tuzilgan. Har bir mavzu yakuni bo'yicha o'quvchilar olgan bilimlarini tekshirish maqsadida nazorat savollari berilgan bo'lib, talabalarni o'quv savollari bo'yicha keng mushohada qilishga undaydi.

Mazkur o'quv qo'llanmada kirish, ma'ruza mashg'ulotlaridan tashkil topgan bo'lib, quyidagi mavzulardan tarkib topgan.

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va uning asosiy xususiyatlari;

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining didaktik xususiyatlari va funksiyalari;

- Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik o'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va o'quv vazifalari;

- Ta'limda qo'llaniladigan texnikaviy va dasturiy ta'minot vositalarini turlari;

- Multimedia texnologiyalari va vositalari;

- Elektron pochta;

- MS Power Point dasturining asoslari;

- MS Power Point dasturida Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik mavzularida prezentatsiyalar yaratish asoslari;

- PREZI.com dasturining asoslari;

- PREZI.com dasturida Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik mavzularida prezentatsiyalar yaratish asoslari;

- Elektron darslik: Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik fanlari bo'yicha Turbo Site platformasida yaratish;

- O'quv kursi: Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik mavzularida iSpring Suite platformasida yaratish;

- O'quv video parchalarini yaratish texnologiyasi. Har xil platformalarda Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik mavzulari buyicha video darsliklar yaratish;

- Masofaviy ta'lim tushunchasi, ta'limning maxsus shakli, uning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi;

- Masofaviy ta'lim: g'oyalar, texnologiyalar, muammolar va istiqbollari;

- Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik masofaviy o'qishni tashkil qilish va boshqarish kabi mavzulari batafsil yoritib o'tilgan.

O'quv qo'llanmada mundarijani sxema ko'rinishida ham berilganligi qo'llanmani yanada osonlashtiradi.

Mazkur o'quv qo'llanma barcha oliy o'quv yurtlarida, malaka oshirish kurslarida, o'qitish texnologiyasida ko'zda tutilgan sharoitlar va «Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlikni o'qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalari» kursi o'qituvchilari tomonidan qo'llanilishi mumkin.

Bugungi kunda **«Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart!»** degan hayotiy da'vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o'rin egallagan.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

1 - MAVZU
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA
TYEXNOLOGIYALARI VA UNING ASOSIY
XUSUSIYATLARI.

Reja:

- 1. Axborot - kommunikatsiya texnologiyalarni tushunchasi va vazifalari.**
- 2. Axborot - kommunikatsiya texnologiyalarni tasnifi.**
- 3. Axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning asosiy jixatlari.**
- 4. O'quv jarayoniga Axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning asosiy vazifalari.**

Tayanch iboralar: *AKT, texnologiya, kommunikatsiya, boshqaruv, ta'lim texnologiyalari, sanoq sistemalari, axborot o'lchov birliklari.*

O'quv mashg'ulot maqsadi: *talabalarga Axborot - kommunikatsiya texnologiyalarni va uning asosiy tushuncha, vazifa vaqsadlarini tushuntirish. Axborot kommunikatsion texnologiyalari axborot turlari, xususiyatlarini va o'lchov birliklari bilan ishlashni o'rgatish.*

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni tushunchasi va vazifalari.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini keng miqyosda isloh qilishning boshlanishi bo'ldi. Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) shiddat bilan kirib kelishi bilan birga, u ta'limning samaradorligini oshirishda eng qulay omillardan biri bo'lib qolmoqda. Ta'lim tizimini dunyo standartlari darajasiga yetkazish ushbu islohotning muhim vazifalaridan biridir.

Jahonda zamonaviy ta'limning xarakterli tomoni shundaki ta'limni axborotlashtirish va axboriy jamiyatning ehtiyojini hisobga olgan holda kadrlarni tayyorlash hisoblanadi. Bu O'zbekiston Respublikasi ta'limida ham ro'y bermoqda, axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati «axborot resurslari, axborot texnologiyalari

va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jaxon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan». Shuning uchun ham ilg'or mamlakatlar ta'lim tizimida kompyuter texnikasidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiya-laridan unumli foydalanishga qaratilgan izlanishlar to'xtovsiz kechmoqda. Ushbu holatlar kadrlarni tayyorlash tizimida informatika fanining o'rnini muhimligini ko'rsatib beradi.

Informatikaning asosiy tushunchalaridan biri – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyasidir.

Texnologiya grek tilidan (techne) tarjima kilganda san'at, maxorat, bilish ma'nolarini anglatadi, bular esa o'z navbatida jarayonlardir. Jarayonlar - bu qo'yilgan maqsadga erishish uchun ma'lum harakatlar majmuasidir.

Axborotlashtirish faoliyatining rivojlanishida ularni yig'ish, saklash, qayta ishlash va jamiyatda ilmiy axborotlarni tarqalishi natijasida yangi ilmiy yo'nalish — informatika vujudga keldi. XX asrning 50- yillarida yangi fan – informatikaga asos solindi. *Informatika* termini fransuz so'zlari information (axborot) va automatique (avtomatika) negizida hosil bo'lgan. ***Informatika*** kompyuter texnikasini qo'llashga asoslanib inson faoliyatining turli sohalarida axborotlarni izlash, to'plash, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish masalalari bilan shug'ullanuvchi fandır. Qisqa qilib aytganda, informatika kompyuter texnikasi asosida axborotlar ustida bajariladigan amallar va ularni qo'llash usullarini o'rganadigan fandır. emak, informatika uchun asosiy ashyo – *axborot*. U informatika fanida asos tushuncha sifatida qabul qilingan.

Informatika tavsifi. Informastiya iste'molchisi - axborotni kaerda va kaysi anik masala uchun ishlatilishi, foydalanish turi va vazifasiga karab unga baxo beradi. Shunga ko'ra informatikani progmatik, semantik va sintaktik jabxalarga ajratish mumkin.

Informatika urganadigan va uzaro boglangan uchta asosiy tushuncha bor. Bular *axborot*, *algoritm* va *EXM* dir.

Axborot tushunchasi

Informatika sohasining asosiy resursi bu – axborotdir.

Axborot - olamdagi butun borliq, undagi ro'y beradigan xodisalar va jarayonlar xaqidagi xabar va ma'lumotlardir. Axborot inson nutqida, kitobdagi matnlarda, musavvir tasvirida va boshqalarda mavjuddir.

Axborot va uning turlari

Axborot manbalari va iste'molchilarning har xilligi axborot shaklining turli ko'rinishda bo'lishiga olib keladi:

Belgili – turli ishoraviy belgilardan iborat axborotlar.

Matnli – xarf, raqam va belgilar to'plamidan tarkib topgan axborot.

Grafik – tasvirlardan iborat bo'lgan tasavvur ko'rinishidagi axborot.

Informatikasohasining asosiy resursi bu – **axborotdir**.

Axborotning asosiy xossalari:

1. to'liqlik;
2. yaroqlilik;
3. ishonchlilik;
4. dolzarblik;
5. tushunarlilik.

Axborot - olamdagi butun borliq, undagi ro'y beradigan xodisalar va jarayonlar xaqidagi xabar va ma'lumotlardir. Axborot inson nutqida, kitobdagi matnlarda, musavvir tasvirida va boshqalarda mavjuddir.

Axborot va uning turlari.

Axborot manbalari va iste'molchilarning har xilligi axborot shaklining turli ko'rinishda bo'lishiga olib keladi:

– **Belgili** – turli ishoraviy belgilardan iborat axborotlar. Bular biror voqea-xodisalar haqidagi axborotlarni uzatishda foydalaniladi.

– **Matnli** – xarf, raqam va belgilar to'plamidan tarkib topgan ma'lum ma'noni anglatuvchi so'zlardan iborat axborot.

– **Grafik** – tasvirlardan iborat bo'lgan tasavvur ko'rinishidagi axborotlar.

– **Video** va **audeo** ko'rinishdagi ma'lumotlar

2. Axborot - kommunikatsiya texnologiyalarni tasnifi.

Axborot nima?

Ma'lumki, axborot (lotincha ***informatio*** - tushuntirish, xabar olish bayon etish,) - biror hodisa, kishi faoliyati yoki muayyan bilim haqidagi ma'lumotlar to'plamini ifodalaydigan fanning umumiy tushunchalaridan biridir. Axborot inson sezgi organlari orqali tashqi dunyodan oladigan xabarlar mazmuni va ma'nosidir.

Kundalik hayotda kimningdir manfaatiga mos keluvchi ixtiyoriy ma'lumot yoki xabarni axborot deb atashadi. Masalan, qandayodir muhim hodisa yoki kimningdir faoliyatiga doir ma'lumotlar. «Xabar bermoq» iborasining ma'nosi «avval noma'lum bo'lgan biror xabarni yetkazishdir.

Axborot — atrof-muhitdagi ob'ektlar, voqealar, ularning parametrlari, xususiyatlari va holati **haqidagi** ma'lumotlar bo'lib, ularni axborot tizimlari (tirik organizmlar, boshqaruvchi mashinalar va shu kabilar) qabul qilib, foydalanadilar

Biror ob'ekt yoki voqea haqidagi bitta axborot ma'lumoti (gazetadagi maqola, e'lon, xat, telegramma, hikoya, chizma, radioe'itrich va shu kabilar) uni tushunish, unga qiziqish nuqtai-nazaridan turli toifadagi kishilar uchun turlicha axborot miqdorida yetkaziladi.

Masalan, yapon tilida tuzilgan ma'lumotning ushbu tilni bilmagan insonga hech qanday qizig'i yo'q. Biroq yapon tilini biladigan kishiga u qimmatli, muhim ma'lumot bo'lishi mumkin. Maxsus belgilar orqali ifodalangan ma'lumot ham bu belgilardan foydalanish qoidalarini bilmagan kishiga yangi ma'lumot bo'la olmaydi. Belgilar qoidasidan foydalanish ma'lum bo'lgandagina, ushbu ma'lumot ma'nosini anglash mumkin.

Axborot ma'lumotning tavsifi emas, u ma'lumot va uning iste'molchisi o'rtasidagi o'zaro munosabatni bildiradi. Iste'molchisiz ma'lumot ma'noga ega emas. Ma'lumot iste'molchi tomonidan o'zlashtirilgandagina axborotga aylanadi.

Axborot turli shakllar va ko'rinishlarda mavjud bo'lishi mumkin.:

- ❖ Matnlar, rasmlar, chizmalar, fotosuratlar ko'rinishida;
- ❖ Yorug'lik nuri va tovush signallari ko'rinishida;
- ❖ Radioto'lqinlar ko'rinishida;
- ❖ Elektr va nerv impulslari ko'rinishida;
- ❖ Magnit yozuvlari ko'rinishida;
- ❖ Imo-ishora va mimika orqali;
- ❖ Hid va ta'm ko'rinishida;
- ❖ Avloddan avlodga o'tuvchi irsiy xromosomalar va shu

kabilar ko'rinishida.

Axborot xossalari nuqtai nazaridan qaralayotgan moddiy va nomoddiy dunyoning predmetlari, jarayonlari, voqealari informatsion ob'ektlar deyiladi..

Axborot qandaydir manbadan qabul qiluvchiga xabar yoki ma'lumot ko'rinishida ular o'rtasidagi aloqa kanali orqali uzatiladi. Manba xabarni uzatishida uni uzatiladigan signalga aylantirib kodlashtiradi. Ushbu signal aloqa kanali orqali uzatiladi. Natijada qabul qiluvchida qabul qilingan signal hosil qilinib, u qabul qilingan ma'lumotga aylantirilishi uchun signaldan asliga qaytarish maqsadida dekodlashtiriladi.

Misollar:

1. Ob-havo prognozi ma'lumotlari axborot qabul qiluvchiga (teletomoshabinga) manbadan - meteorolog-mutaxassisdan aloqa kanali - televideniye signallarini uzatuvchi apparatura orqali televizorga uzatiladi;

2. Jonli mavjudot o'zining sezgi organlari (ko'zlari, quloqlari, burni, terisi, tili va shu kabilar) orqali tashqi dunyodan axborot oladi, uni muayyan ketma-ketlikdagi nerv impulslariga aylantiradi, nerv tolalari orqali uzatib, o'z xotirasida miyaning neyron strukturalari ko'rinishida saqlaydi, impulslarni qayta ishlash yoki tahlil qilish natijasida o'z harakatlarini boshqaradi yoki tovush signallari beradi, ya'ni o'z faoliyatda foydalanadi.

Axborotni qayta ishlash - bir xil informatsion ob'ektlarni ba'zi algoritmlarni bajarish asosida boshqa informatsion ob'ektlardan olishdir. Axborotni qayta ishlash axborot ustida bajariladigan asosiy amallardan biri va axborot turli-tuman bo'lishi va uning ko'lamini (hajmini) oshirishning asosiy vositasidir.

Axborot ustida quyidagi amallarni bajarish mumkin:

- yaratish;
- uzatish;
- qabul qilish;
- foydalanish;
- eslab qolish;
- o'zlashtirish;
- ko'chirish;
- rasmiylashtirish;
- tarqatish;
- almashtirish;
- kombinatsiyalash;
- qayta ishlash;
- bo'laklarga bo'lish;
- ixchamlashtirish;
- yig'ish;
- saqlash;
- izlash;
- o'lchash;
- buzish;
- va boshqalar

Axborot ustida muayyan amallar bajarishga oid barcha jarayonlar informatsion jarayonlar deyiladi.

Axborotni qayta ishlash vositalari - insoniyat tomonidan yaratilgan turli qurilmalar va tizimlardir, birinchi navbatda axborotni qayta ishlovchi univenrsal mashina - kompyuterdir.

Kompyuterlar axborotni ba'zi algoritmlarni bajarish asosida qayta ishlaydilar. Tirik organizmlar va o'simliklar axborotni o'z sezgi organlari va tizimlari orqali qayta ishlaydilar.

Axborot xossalari

Axborot quyidagi xossalarga ega:

- ishonchlilik;
- to'liqlilik;
- qimmatlilik;
- dolzarblilik;
- tushunarlilik;
- qulaylilik;
- qisqa va lo'ndalilik;

va boshqalar.

Axborot ishonchli deyiladi, agar u ob'ekt haqidagi ma'lumotlarni yoki voqelikni real akslantirsa. Ko'pincha axborot ishonligi axborotning muvofiqligi bilan xarakterlanadi. Axborotning muvofiqligi - ob'ekt, hodisa yoki jarayon haqidagi olingan ma'lumotning ma'lum ma'noda real haqiqatga mosligidir. Ishonchli bo'lmagan axborot uning noto'g'ri talqin qilinishiga yoki noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga olib keladi.

Ishonchli axborot vaqt o'tishi bilan ishonchli bo'lmagan axborotga aylanishi mumkin, ya'ni vaqt o'tishi bilan u eskirib, voqelikni to'g'ri, ro'yi-rost akslantirmasligi ham mumkin.

Axborot to'liq deyiladi, agar u tushunish yoki uning asosida to'g'ri qaror qabul qilish uchun yetarli darajada bo'lsa. To'liq bo'lmagan va haddan ziyod ortiqcha axborot qaror qabul qilish jarayonini sekinlashtirishi yoki xatoliklar keltirib chiqarishi mumkin.

Semantik (ma'noli) adekvatlik – ob'ektning uning obraziga (qiyofasiga) muvofiqlik darajasini aniqlaydi. Semantik nuqtai nazar axborotning ma'noli mazmunini hisoblashni ko'zlaydi. Bunda axborot aks ettirgan ma'lumotlar tahlil qilinadi, ma'nolar bog'liqligi ko'riladi.. Masalan, axborotni kodlar orqali ifodalashni ko'rsatish mumkin.

Sintaktik adekvatlik – axborotning mazmuniga tegmagan holda, uning rasmiy-strukturaviy xarakteristikalarini ifodalaydi. Sintaktik

darajadagi axborotni ifodalash usulida axborot elituvchi turi, uzatish va qayta ishlash tezligi, ifodalash kodining o'lchamlari, bu kodlarni o'zgartirish aniqliligi va ishonchliligi hisobga olinadi. Axborotning mazmuniga ahamiyat berilmaganligi sababi, bunday axborot ma'lumot deb ataladi.

Pragmatik (foydalanuvchanlik) adekvatlik – axborot bilan foydalanuvchining munosabatlarini aks ettiradi, axborotni uning asosida amalga oshiriladigan boshqarish sistemasi maqsadiga muvofiqligini ifodalaydi. Axborotning pragmatik xususiyatlari faqat axborot (ob`ekt), foylanuvchi va boshqarish maqsadlarining umumiyligida namoyon bo'ladi. Adekvatlikning ushbu shakli axborotdan amaliy foylanish bilan bevosita bog'langan.

Faqat dolzarb axborotgina ahamiyatga ega va u kutilgan natijaga erishish imkonini beradi. Biroq axborotni shoshilib, to'liq shakllanmagan holda yoki kechiktirilib uzatilishi undan unumli foydalanish imkonini bermaydi.

Axborotning **qimmatliligi** uning qanchalik muhimligi va inson faoliyatgda qo'llanilib, ijobiy natija olishnishi bilan baholanadi.

Agar **qimmatli** va **dolzarb** axborot **tushunarsiz** ifodalangan bo'lsa, u foyda keltirmasligi va qimmatlilik ahamiyatini yo'kotishi mumkin.

Axborot uning iste'molchisiga **tushunarli** bo'lgan tarzda ifodalanishi kerak.

Axborot iste'molchi tomonidan **qulay** tarzda tushunilib, mohiyati anglanishi va undan oqilona foydalanish imkoniga ega bo'lishi kerak. Biroq manbalarda, o'quv darsliklari va qo'llanmalarda ba'zi axborotlar murakkab tarzda, tushunib yetish qiyinchilik tug'diradigan holda, ba'zilarida esa lo'nda va ravon tilda bayon etiladi.

Biror ob`ekt haqidagi axborot **qisqa** (ortiqcha belgilarsiz, lo'nda) yoki keng (ortiqcha belgilar bilan, ko'p jumlati holda) bayon etilishi mumkin. Qisqa axborot kam xotira sig'imi talab qilib, undan foydalanish qulay.

Umuman axborotning ikki turini alohida ajratib o'tish mumkin: **uzluksiz** va **uzlukli (diskret)** Uzluksiz axborot - fazo, vaqt; uzlukli axborot - ma'ruza, teledastur va hokazolar

1 Kilobayt (Kbayt) = 1024 bayt = 2^2 bayt,
1 Megabayt (Mbayt) = 1024 Kbayt = 2^{20} bayt,
1 Gigabayt (Gbayt) = 1024 Mbayt = 2^{30} bayt.

Keyingi paytlarda qayta ishlanadigan axborot hajmi ortib borishi munosabati bilan axborotning katta o'lchov birliklari ham kiritildi: 1 Terabayt (Tbayt) = 1024 Gbayt = 2^{40} bayt,

1 Petabayt (Pbayt) = 1024 Tbayt = 2^{50} bayt,
1 Eksabayt (Ebayt) = 1024 Pbayt = 2^{60} bayt,
1 Zettabayt (Zbayt) = 1024 Ebayt = 2^{70} bayt.
1 Yottabayt (Ybayt) = 1024 Zbayt = 2^{80} bayt,

belgilar pozitsiyasi sonini bildirsa, uning tarkibi koddagi belgilarning ma'lum bir alomatga ko'ra joylashish tartibini belgilaydi.

Obyekt uchun uning kodli belgisini berib almashtirish jarayoni kodlashtirish deyiladi. Kodlashtirish tizimida ikki metordan foydalaniladi:

- tasnifli kodlashtirish tizimi;
- qayd qiluvchi kodlashtirish tizimi.

Tasnifli kodlashtirish tizimida ob'ektlar avvaldan sinflarga yoki iyerarxik (daraxtsimon) ob'ektlar tizimiga ajratilib belgilab chiqiladi.

Misol: Oliy ta'lim tizimida ta'lim darajalari, bilim sohasi, yo'nalishlar va mutaxassislik ma'lumotlari quyidagi ob'ektlarga ajratilib kodlashtiriladi.

X X X X X X X

Ta'lim dasturi

darajasi kodi

mutaxassislik kodi;

yo'nalish kodi;

- ta'lim sohasi kodi;

- bilim sohasi kodi;

Ta'limning xalqaro standart tasniflash tizimiga muvofiq bakalavriat yo'nalishi 5 raqami bilan belgilanadi. Magistratura yo'nalishi esa 5 va A belgilari bilan belgilanadi. Masalan: bakalavrlar quyidagicha kodlashtiriladilar - 5140100, 5211300, 5520400 va 5340800; magistrlar 5A140101, 5A211301, 5A520403 va 5A340800.

«Biznes va boshqaruv» yo'nalishi uchun standartda belgilangan umumiy kod - 340 000, Bakalavriatning «Soliqlar va soliqqa tortish» yo'nalishi kodi - 5340800, magistraturaning «Davlat soliqlari va yig'implari» mutaxassisligi kodi - 5A340802

Qayd qiluvchi kodlashtirish tizimida ob'ektlar avvaldan sinflarga ajratilmaydilar.

Masalan: Fakultetning barcha talabalari o'quv guruhlariga ajratilib, ularga tartib nomeri beriladi. Har bir guruh ichida Har bir talaba alfavit tartibi bo'yicha o'z qayd nomeri beriladi.

1. Sanoq sistemalari

Sanoq sistemasi berilgan maxsus belgilar (raqamlar) yordamida sonlarni yozish usulidir. Insoniyat faoliyatida **pozitsion** va **nopozitsion** sistemalaridan foydalaniladi.

Nopozitsion sanoq sistemalarida sondagi raqamning hissasi (ya'ni, uning sonni ifodalash uchun ahamiyati) uning pozitsiyasiga bog'liq emas. Masalan, rim sanoq sistemasida XXXII (o'ttiz ikki) sonida X raqamining ixtiyoriy pozitsiyadagi hissasi o'nga teng.

Pozitsion sanoq sistemasida sondagi har bir raqam hissasi o'zining pozitsiyasi, ya'ni o'rni bilan bog'liq. Masalan, 757,7 sonida birinchi 7 raqami yuzliklar soni, ikkinchi 7 raqami birliklar soni va uchinchi 7 raqami 1 ning o'ndan bir hissalarini sonini anglatadi.

757,7 sonining o'zini esa quyidagi hisoblanadigan ifoda orqali belgilash mumkin: $700 + 50 + 7 + 0,7 = 7 \cdot 10^2 + 5 \cdot 10^1 + 7 \cdot 10^0 + 7 \cdot 10^{-1} = 757,7$.

Ixtiyoriy pozitsion sanoq sistemasi o'zining asosi xarakterlanadi.

Pozitsion sanoq sistemasining asosi ushbu sistemada sonlarni ifodalash uchun ishlatiladigan raqamlar va belgilar sonidir.

3. Axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning asosiy jixatlari.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari - bu turli xil qurilmalar, mexanizmlar, usullar va ma'lumotlarni qayta ishlash algoritmlarini tavsiflovchi umumiy tushuncha.

Zamonaviy AKT qurilmalari - bu tegishli dasturiy ta'minot bilan jihozlangan kompyuter va ularda joylashtirilgan ma'lumotlar bilan birga telekommunikatsiya vositalari.

❖ Hozirgi vaqtda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tasniflash quyidagi mezonlar bo'yicha olib borilmoqda:

❖ Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarida (AIS) joriy etish usuli

❖ Boshqaruv vazifalarini yoritish

❖ Amalga oshirilgan texnologik operatsiyalarning sinflari

- ❖ Foydalanuvchi interfeysi turi
- ❖ Axborotni qayta ishlash texnologiyalari
- ❖ Xizmat ko'rsatiladigan domen
- ❖ Keling, ba'zi alomatlarni batafsil ko'rib chiqaylik.

1. Amalga oshirish usuliga ko'ra, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari quyidagilarga bo'linadi:

- An'anaviy;
- Zamonaviy

An'anaviy ma'lumotlar markazlashtirilgan ma'lumotlarni qayta ishlash sharoitida shaxsiy elektron kompyuterlardan (shaxsiy kompyuterlardan) ommaviy foydalanish davri qadar mavjud bo'lgan. Ular asosan foydalanuvchining murakkabligini kamaytirishga qaratilgan edi. Masalan, muhandislik va ilmiy hisob-kitoblar, korxonalarda muntazam hisobotlarni shakllantirish va boshqalar.

Zamonaviy (yangi) asosan real vaqt rejimida boshqarish jarayonini axborot bilan ta'minlash bilan bog'liq.

2. Boshqaruv vazifalarini axborot texnologiyalari bilan qamrab olish darajasiga ko'ra quyidagilar mavjud: ma'lumotlarni elektron qayta ishlash, boshqaruv funksiyalarini avtomatlashtirish, qarorlarni qo'llab-quvvatlash, elektron ofis, ekspert yordami.

Birinchi holda, ma'lumotlarni elektron usulda qayta ishlash kompyuter yordamida mahalliy matematik va iqtisodiy muammolarni echishda metodologiyani va nazorat jarayonlarini tashkil qilmasdan amalga oshiriladi.

Ikkinchi holda, boshqaruv faoliyatini avtomatlashtirishda funktsional muammolarni har tomonlama hal qilish, muntazam hisobotlarni tuzish va axborot-ma'lumot rejimida ishlash va boshqaruv qarorlarini tayyorlash uchun hisoblash vositalari qo'llaniladi. Xuddi shu guruhga iqtisodiy va matematik usullar va modellardan keng foydalanish, tahliliy ishlarni amalga oshirish va prognozlar, biznes-rejalar, ishlab chiqarish jarayonlari va hodisalari bo'yicha asosli baholar va xulosalarni shakllantirish uchun keng qamrovli foydalanishni ta'minlovchi qarorlarni qo'llab-quvvatlashning axborot texnologiyalari kiradi. iqtisodiy faoliyat.

Ushbu guruhga hozirgi paytda keng tarqalgan elektron texnologiyalar va ekspertlarning qarorlarini qo'llab-quvvatlash deb ataladigan axborot texnologiyalari kiradi. Elektron ofis, ushbu sohadagi

vazifalarni har tomonlama amalga oshirishni ta'minlaydigan o'rnatilgan RFPlarning mavjudligini ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtda elektron ofislar tobora kengayib bormoqda, ularda turli xil xonalarda xodimlar va uskunalar joylashgan. Muayyan korxonalar yoki muassasaning hujjatlari, materiallari va ma'lumotlar bazalari bilan ishlash zarurati tegishli kompyuter tarmoqlariga kiritilgan elektron ofislarning paydo bo'lishiga olib keldi.

3. Ishlov berilayotgan axborot turiga qarab, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari quyidagilarga yo'naltirilishi mumkin.

- ◆ Ma'lumotlarni qayta ishlash (masalan, jadvallar, algoritmik tillar, dasturlash tizimlari va boshqalar);

- ◆ Test ma'lumotlarini qayta ishlash (masalan, test protsessorlari, gipertekst tizimlari va boshqalar);

- ◆ Grafikani qayta ishlash (masalan, grafika bilan ishlash vositalari, vektorli grafika bilan ishlash vositalari);

- ◆ Animatsiya, video, tovushni qayta ishlash (multimedia dasturlarini yaratish vositalari);

- ◆ Bilimlarni qayta ishlash (ekspert tizimlari).

Tarqatish o'zboshimchalik bilan, chunki aksariyat axborot texnologiyalari boshqa turdagi ma'lumotlarni ham qo'llab-quvvatlashi mumkin.

4. Axborotni kompyuterda qayta ishlash texnologiyasi oldindan belgilangan operatsiyalar ketma-ketligidan iborat bo'lishi mumkin va foydalanuvchining avtomatik ravishda amalga oshirilayotgan vaqtda axborotni qayta ishlashga ta'sir qilish imkoniyatini istisno qilishi mumkin.

5. Axborot texnologiyalari xizmat ko'rsatiladigan sohalarga ko'ra bo'linadi. Masalan, iqtisodiyotda farqlash mumkin: buxgalteriya hisobi, bank ishi, soliq va sug'urta va boshqalar. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari fan, ta'lim, madaniyat, ishlab chiqarish, harbiy ishlar va boshqalarda ham keng qo'llaniladi.

Ta'lim sohasida ikkita asosiy muammoni hal qilish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llaniladi: o'qitish va boshqarish. O'qitish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, birinchidan, o'quvchilarga o'quv ma'lumotlarini taqdim etishda, ikkinchidan, ularni o'zlashtirish muvaffaqiyatini kuzatishda foydalanish mumkin. Shu nuqtai nazardan, o'qitish jarayonida

foydalaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ikki guruhga bo'linadi:

- ❖ Ta'lim to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish texnologiyalari;

- ❖ Texnologik bilimlarni boshqarish.

Ta'limiy axborotni taqdim etish uchun kompyuter axborot texnologiyalari qatoriga quyidagilar kiradi: kompyuter o'quv dasturlaridan foydalanadigan texnologiyalar; multimedia texnologiyalari; masofadan o'qitish texnologiyalari.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zaro ta'sir darajasi bo'yicha tasniflash mumkin. Masalan, diskret va tarmoq aloqasi; turli xil ishlov berish va saqlash imkoniyatlaridan foydalangan holda o'zaro ta'sir o'tkazish; tarqatilgan ma'lumot bazasi va tarqatilgan ma'lumotlarni qayta ishlash.

Ko'p foydalanuvchilarning o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan tarmoq texnologiyalari alohida o'rin egallaydi.

Global axborot texnologiyalari jamiyatning axborot resurslaridan foydalanishni rasmiylashtiradigan va foydalanishga imkon beradigan modellar, usullar va vositalarni o'z ichiga oladi.

Asosiy axborot texnologiyalari qo'llaniladigan ma'lum bir sohaga mo'ljallangan (tadqiqot, o'qitish va boshqalar).

Eng keng tarqalgan axborot texnologiyalari:

- ◆ Matn ma'lumotlarini tahrirlash;
- ◆ Jadval va grafik ma'lumotlarga ishlov berish.
- ◆ Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini quyidagi mezonlar bo'yicha tasniflash mumkin:
 - ◆ Funktsional yo'naltirilgan texnologiyalar;
 - ◆ Fanga yo'naltirilgan texnologiyalar;
 - ◆ Muammoga yo'naltirilgan texnologiyalar.

Funksional yo'naltirilgan texnologiyalar axborotni qayta ishlashning odatiy nisbatan avtonom vazifalaridan birini amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Bunday texnologiyalar juda yuqori darajadagi egiluvchanlikka ega bo'lishi va kelajakda iste'molchining minimal ishtirokida rivojlanish va ko'payish uchun mavjud bo'lishi mumkin.

Mavzuga yo'naltirilgan axborot texnologiyalari ma'lum bir sohada ma'lum bir muammoni hal qilish uchun mo'ljallangan. Ular ushbu

ilovaning muayyan talablarini maksimal darajada qondiradilar va eng kam qirrali darajaga ega bo'lishlari mumkin. Qoida tariqasida, ularning paydo bo'lishi kelajak foydalanuvchining ishtirokisiz mumkin emas.

Ammo talablarni bir qator maxsus dasturlardan umumlashtirish va ba'zi amaliy dastur muammolarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bu ma'lum darajada funktsional yo'naltirilgan va sub'ektga yo'naltirilgan texnologiyalarning oraliq pozitsiyasini egallaydigan muammoli-yo'naltirilgan axborot texnologiyalari kontseptsiyasini keltirib chiqaradi. Bunday texnologiyaning potentsial foydalanuvchilari uni ishlab chiqishda faqat aniq vazifalarni umumlashtirish va aniqlashning dastlabki bosqichida yoki yakuniy bosqichda - ba'zi ixtisoslashgan qo'shimchalarni ishlab chiqishda ishtirok etishlari mumkin. Bu foydalanuvchidan texnologiyaning asosiy qismini mustaqil ravishda yaratish va yagona texnik echimlarni qo'llash imkonini beradi.

Tanlangan tasnifga muvofiq, funktsional yo'naltirilgan axborot texnologiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

- ◆ Matematik hisoblar;
- ◆ Matematik modellashtirish;
- ◆ Dasturlash
- ◆ Matn ma'lumotlarini qayta ishlash;
- ◆ Jadval ma'lumotlarini qayta ishlash;
- ◆ Tasvirga ishlov berish;
- ◆ Signalni qayta ishlash;
- ◆ Axborotni uzatish va tarqatish.

Muammolarga yo'naltirilgan texnologiyalar quyidagilardan foydalanishga asoslangan.

- ◆ Axborot olish tizimlari;
- ◆ Ma'lumotsiz va ma'lumotsiz;
- ◆ Ta'lim tizimlari;
- ◆ Tadqiqotlarni avtomatlashtirish tizimlari;
- ◆ Stol nashriyot tizimlari;
- ◆ Bir tildan boshqasiga tarjima qilish tizimlari.

Ob'ektga yo'naltirilgan axborot texnologiyalariga misollar quyidagilar uchun texnologiyalardir:

- ◆ Tibbiy tizimlar;
- ◆ Umumiy va maxsus kasb ta'limi;

- ◆ OAV;
- ◆ O'yin va ko'ngil ochish tizimlari;
- ◆ Uy sharoitida qo'llaniladigan ilovalar.

Maqsadlaringizga qarab, boshqa tasniflash mezonlaridan foydalanishingiz mumkin.

Ta'lim natijalarini o'lchash, kuzatish va baholash texnologiyasi va vositalari an'anaviy ravishda o'quv jarayonida AKT vositalaridan foydalanish muammolari bilan chambarchas bog'liqdir. Darhaqiqat, hozirgi vaqtda ochiq ta'lim tizimining deyarli barcha o'quv muassasalarida pedagogik o'lchash va nazorat qilish uchun kompyuter va telekommunikatsiya uskunalari qo'llaniladi. Albatta, bunday pedagogik o'lchovlarning tematik sohalari doimo amalga oshiriladigan pedagogik faoliyatning mazmuni, usullari, shakllari va vositalari bilan moslashtiriladi.

Bunday AKT vositalarining qurilishi test tizimlari va tegishli kompyuter mahsulotlarini ishlab chiqish va pedagogik foydalanish xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olishga asoslangan bo'lishi kerak.

Har qanday test bu bir nechta test topshiriqlarining birikmasidir, ularning har biri test birligining minimal tarkibiy qismi bo'lib, u shartdan (savoldan) iborat va vazifaning turiga qarab tanlov uchun javoblar to'plamini o'z ichiga olishi yoki bo'lmasligi mumkin.

Sinov predmetlarining shakllari va turlarining umumiy tasnifi mavjud. Test topshiriqlarining to'rtta asosiy shakli mavjud:

- ◆ Yopiq shakl, unda test topshiruvchilar bir nechta tavsiya etilganlardan to'g'ri javoblarni tanlaydilar;
- ◆ Javoblar subyektlarning o'zlari tomonidan berilgan ochiq shakl;
- ◆ Bir to'plamning elementlarini boshqa to'plam elementlari bilan taqqoslash talab qilinadigan muvofiqlik uchun;

Vazifani talab qiladigan harakatlar, operatsiyalar va hisob-kitoblar ketma-ketligi to'g'ri ketma-ketligini o'rnatish.

Zamonaviy AKT vositalari va axborot vositalarining muhiti tanlangan, sonli, tuzilgan javoblar bilan pedagogik testlarni tuzishga imkon beradi. Amalda, ochiq ta'lim tizimida ko'pincha tanlangan javoblar bilan yopiq test elementlari qo'llaniladi. Bunday testlarni tayyorlash va ishlatish osonroq.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining turli tasniflarini o'rganib chiqib, maqsadlarga muvofiq, ular axborot texnologiyalarini qo'llashning asosiy yo'nalishlarini: o'quv vositasi va o'quv vositasi, o'quvchining ijodiy rivojlanishining vositasi, nazorat, tuzatish, psixodiagnostika jarayonlarini avtomatlashtirish vositasi sifatida, ta'limni boshqarishni kuchaytirish va takomillashtirish uchun ajratib olishlarini aniqladim. zamonaviy axborot texnologiyalari tizimidan foydalanish orqali institut va o'quv jarayoni.

Shunday qilib, ushbu muammo bo'yicha nazariy adabiyotlarni o'rganayotganda quyidagilar aniqlandi: Axborot texnologiyalari - bu jarayonlarning murakkabligini kamaytirish uchun ma'lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash, chiqarish va tarqatishni ta'minlaydigan texnologik zanjirga kiritilgan usullar, ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiy-texnik vositalarning birikmasi. axborot resurslaridan foydalanish, ularning ishonchliligi va samaradorligini oshirish.

Barcha axborot texnologiyalarini tasniflash mumkin:

1. Ta'lim berish vositasi va vositasi sifatida: o'qitish, o'qitish, ma'lumot olish va ma'lumot olish, namoyish qilish, taqlid qilish, laboratoriya, modellashtirish, hisoblash va o'quv va o'yin.
2. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarida (AIS) joriy etish usuli
3. Boshqaruv vazifalarini qamrab olish darajasi.
4. Amaldagi texnologik operatsiyalarning sinflari.
5. Foydalanuvchi interfeysi turi.
6. Axborotni qayta ishlash texnologiyalari.
7. Xizmat ko'rsatiladigan mavzu.

4. O'quv jarayoniga Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning asosiy vazifalari.

Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundayki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot-hisoblash tarmog'i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish milliy iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta'lim samaradorligining muhim omili bo'lmoqda. Bu muammolar ancha murakkab va ayni paytda respublikamiz uchun dolzarbdir. Hozirda olib borilayotgan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o'zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish

bilan bog'liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog'liqdir.

O'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o'z navbatida, talabalarning mazkur fanlar bo'yicha bilimlarini chuqur o'zlashtirishlarining asosiy omili bo'lib, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi.

Ayni amalga shunday sa'y-harakatlar oshirilishi ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tadbiiq etishni yanada jadallashtirish, professor-o'qituvchilarni ilg'or pedagogik bilimlar va texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribasini chuqur o'rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta'lim tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi.

Multimedia gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi:

- axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar) original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animasiya va boshqalar), turlarini bir dasturiy maxsulotda integrasiyalaydi. Bunday integrasiya axborotni ruyxatdan utkazish va aks ettirishning turli qurilmalari,

- muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy prosessor tez xarakatchanligi, ma'lumotlarni uzatish shinasining o'tkazish qobiliyati operativ va video-xotira, katta sigimli tashqi xotira, xajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki barovar oshirilishi talab etiladi,

- "inson-kompyuter" interaktiv muloqotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va xar tomonlama axborotlarniladiki, mazkur xolat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi.

- multimedia vositalari asosida o'quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayorlashni yo'lga qo'yish xozirgi kunning dolzarb masalasidir. Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida xayotimizga kirib keldi. Uning o'zi nima degan savol tug'ladi? Ko'pgina

mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Bizning fikrimizcha, mul'timedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video matn, grafika va animasiya effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko'rinishidir.

➤ Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning usuli hozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha tadbiiq qilinmoqda. Hatto har bir oila multimedia vositalarisiz xordiq chiqarmaydigan bo'lib qoldi. Multimedia vositalarining 81- yildagi yalpi oboroti 4 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa 94-yil esa 16 milliard AQSh dollarini tashkil qildi. Hozirgi kunda esa sotilayotgan har bir kompyuterni mul'timedia vositalarisiz tasavvur qilib bolmaydi. Kompyuterlarning 70-yillarda ta'lim sohasida keng qo'llash yo'lida urinishlar zoye ketganligi avvalambor ular unumdorligining nihoyatda pastligi bilan bog'liq edi. Amaliyot shuni kursatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumli va vaqtdan yutish mumkun. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni kurish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlash 25-30% oshadi. Bunga qushimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika kurinishda mujassamlashgan xolda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi.

➤ Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega: a) berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor; b) ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi; v) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish; g) olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq saqlanib, kerak bulganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi. Informatika va axborot texnologiyalari fundamental fan sifatida kompyuter axborot tizimlari negizida istalgan ob'ektlar bilan boshqaruv jarayonlarini axborot jihatidan ta'minlashni barpo etish metodologiyasini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Shunday fikr ham mavjudki, fanning asosiy vazifalaridan biri axborot tizimlari nima, ular qanday o'rinni egallaydi, qanday tuzilmaga ega bo'lishi lozim, qanday ishlaydi, uning uchun qanday qonuniyatlar xos ekanligini aniqlashdir. Yevropada informatika sohasida quyidagi asosiy ilmiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish

mumkin: tarmoq tuzilmasini ishlab chiqish, kompyuterli integratsiyalashgan jarayonni ishlab chiqarish, iqtisodiy va tibbiy informatika, ijtimoiy sug'urta va atrof-muhit informatikasi, professional axborot tizimlari. Multimedia tizimining paydo bo'lishi ta'lim, fan, san'at, kompyuter treninglari, reklama, texnika, tibbiyot, matematika, biznes, ilmiy tadqiqot kabi bir qancha kasbiy sohalarida revolyutsion o'zgarishlar yuzaga kelishiga olib keldi. Kompyuterlarni ta'lim tizimida qo'llash g'oyasi ancha ilgari paydo bo'lgan bo'lgan bo'lsada, ta'lim tizimining barcha sohalarida axborot texnologiyalarini qo'llash multimedia qurilmalari bilan jihozlangan kompyuterlar paydo bo'lgach to'liq ma'noda amaliyotga joriy etilib boshlandi. Multimedia vositalarini ta'limda qo'llash quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- ta'limning gumanizatsiyalashuvini ta'minlash;
- o'quv jarayonining samaradorligini oshirish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish (o'zlashtirganlik, bilimga chanqoqlik, mustaqil ta'lim olish, o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini o'zi kamol toptirishga qaratilgan qobiliyatlilik, ijodiy qobiliyatlari, olgan bilimlarini amaliyotga qo'llay olishi, o'rganishga bo'lgan qiziqishi, mehnatga bo'lgan munosabati);
- ta'lim oluvchining kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- kompyuter vositalari va axborot elektron ta'lim resurslari yordamida har bir shaxsning alohida (individual) ta'lim olishi hisobiga ochiq va masofaviy ta'limni individuallashtirish va differensiyalash imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi;
- ta'lim oluvchiga faol bilim oluvchi subyekt sifatida qarash, uning qadrqimmatini tan olish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- mustaqil o'quv faoliyatini olib borish, bunda ta'lim oluvchi mustaqil o'qib va rivojlanib boradi;
- ta'lim oluvchilarda, o'zlarining kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun hozirgi tez o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashuviga yordamberadigan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish.

Multimedia vositalari yordamida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish jarayoni zamonaviy, ko'ptarmoqli, predmetga yo'naltirilgan multimedial o'quv vositalarini ishlab chiqishni va foydalanishni talab etadi. Ular tarkibiga ma'lumotlar bazasi, ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilimlar bazasi, sun'iy intellekt tizimlari, ekspert-

Darslarning ta'lim yo'nalishi va o'quv jarayonining barcha faoliyati katta ahamiyatga ega. Mavzuning nazariy qismini AKT yordamida yorqin, majoziy, tushunarli tarzda taqdim etish mumkin. Mavzuning amaliy qismida turli xil shakllarda, shu jumladan testlarda amaliy topshiriqlar mavjud. Darsdan so'ng, testlardan foydalangan holda, siz darhol materialning assimilyatsiya darajasi haqida ma'lumot olishingiz mumkin. Bizda allaqachon darslar mavjud (asosan adabiy o'qish, mavzular: Masalalar, rus xalq ertaklari ...), bu erda talabalar og'zaki qo'llab-quvvatlash bo'yicha ma'ruzalar bilan mini-prezentatsiyalarda (2-3 slaydlarda) qatnashadilar. Bunday ish har kimni munozara, sharh, fikringizni bildirishga jalb qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darsda loyiha faoliyatini rivojlantirishga turtki bo'ldi, bu ham talabalarning axborot-kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Mening sinfim an'analar asosida yashaydi. Ammo bugungi kunda ularni saqlash uchun yangi shakllar, yangi tarkib yoki yangi ish texnologiyalari talab qilinadi. Shu sababli an'anaviy o'quv tadbirlarini tashkillashtirish axborot texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, har bir tadbirdan keyin elektron ijodiy fotoreportajni yaratish yaxshi an'anaga aylandi boshlang'ich maktab oxirida (ota-onalar va talabalar uchun taqdimot) "Mening maktabimga muhabbat bilan". Raqamli kameradan foydalanish video arxivni yuqori sifatli materiallar bilan to'ldirish va noyob materiallar to'plamlarini tayyorlashga imkon beradi. Axborot soatlari o'qituvchilar tomonidan yoki o'qituvchilar

tomonidan talabalar yordamida tayyorlangan kompyuter taqdimotlari bilan birga olib boriladi.

Internet-resurslar yordamida suhbatlar, treninglar va davra suhbatlari uchun ma'lumotlarni topish ancha osonlashdi. Elektron salqin fotoalbomni saqlash maktab hayotidagi yorqin lahzalarni bolalar xotirasida saqlaydi. O'qituvchi ko'magi bilan talabalar tomonidan bunday albomni yaratish va to'ldirish eng samarali.

Talabalar uchun ta'til ishlarini tashkillashtirish AKTsiz amalga oshirilmaydi. Oila bilan samarali o'zaro hamkorlikni tashkil etishda AKTdan foydalanish zamonaviy axborot jamiyatining talablariga rioya qilish zarurati bilan asoslanadi. Elektron jurnal allaqachon paydo bo'lgan. Ota-onalarni so'roq qilish, maktab hayotini sinf xabarlarining bosma va elektron versiyalari orqali xabardor qilish, ota-onalar va o'qituvchilar uchrashuvlarida elektron prezentatsiyalardan foydalanish odatiy holga aylandi. 4-sinfga yangi "ORXE" mavzusini kiritish bilan endi ota-onalar va bolalarga oilaning axloqiy asoslarini, oila qadriyatlari, tarixi, kasbi, urf-odatlarini ochishga yordam beradigan "Ota-ona uyi - boshlang'ichning asoslari" jurnalini yaratishni taklif qilish rejalashtirilmoqda. ularning ildizlari, oilaviy daraxti va bularning barchasi keyinchalik dars oxirida bilimlarni baholash uchun zarur bo'lgan dizayn ishlarini tayyorlashga yordam beradi, chunki oila uchta qadriyatlardan biridir (Oila, Ota, madaniyat).

Profilaktik ish ro'yxatdan o'tgan talabalarning elektron ma'lumotlar bazasini to'ldirish (sozlash) bilan bevosita bog'liq. Foydalanuvchi ko'nikmalariga ega bo'lgan holda siz turli xil ma'lumotlarni elektron jadvallar ko'rinishida kuzatishingiz va yozib olishingiz mumkin. Profilaktik ishlarining bir qismi sifatida turli xil xizmat va bo'limlarning so'rovlari bugungi kunda ko'pincha elektron usulda (elektron pochta orqali) amalga oshiriladi. Bu erda asosiy narsa - ma'lumot uzatish tezligi, uning aniqligi va o'z vaqtida bajarilishi. Bu qat'iy hisobotlarni taqdim etish hujjati ekanligini hisobga olib, ushbu yo'nalishda AKTdan foydalanish ahamiyati jiddiy ravishda oshib bormoqda.

Sog'liqni saqlash tadbirlarini tashkil etishda AKT potentsiali sog'lom turmush tarzi uchun aktsiyalarni o'tkazishda, profilaktik suhbatlar o'tkazish, jismoniy rivojlanishni kuzatishda jadval va diagrammalar tuzishda va natijalarni kuzatishda foydalaniladi. Talabalar nafaqat o'qituvchi tomonidan taklif etilgan ommabop ilmiy

filmlarni tomosha qilishadi, balki o'zlari ham ma'lumot qidirishda qatnashadilar.

Qo'shimcha ta'lim rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'ymoqda. Tanlovlarda, festivallarda, olimpiadalarda ishtirok etish, Internet orqali aloqa, elektron pochta. Ijodiy ishlarning yaratilishi, ko'rgazmalar dizayni yangi ranglarga ega bo'ldi.

Talabalarning o'zini o'zi boshqarish zamonaviy o'quv texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashning istiqbolli yo'nalishidir. Saylovdi tashviqoti materiallari va so'rovnomalar shakllarini tayyorlash, axborotni qayta ishlash, uni keyinchalik tarqatish, o'z-o'zini boshqarish organlari faoliyati va natijalari to'g'risida o'z vaqtida hisobot berish - bu AKT bilan bog'liq ishlarning to'liq ro'yxati. Talaba portfelini tuzishga harakat qilmoqda. Portfel vizit karta sifatida ko'rib chiqiladi, unda yutuqlar va muvaffaqiyatlar, ijodiy ishlar va kelajak rejalar haqida ma'lumotlar mavjud. Elektron portfelda portfelni to'ldirishning murakkabligi darajasi har xil bo'lishi mumkin va talabaning bilim darajasiga, AKTni amalda qo'llash va qo'llash qobiliyatiga bog'liq. Darhaqiqat, portfelda bolalar o'zlari va sinf jamoasi haqida ma'lumot beradigan fotosuratlar, loyihalar, filmlar va boshqa materiallarni joylashtirishi mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish sinf gazetalarining bosma va elektron variantini nashr etish imkonini beradi. Yigitlar hali kichkina bo'lgani uchun, bu faqat birinchi sinov. Masala ustida ishlayotganda, bolalar intervyu qilishni, maqolalar yozishni, Internetda ma'lumot qidirishni va hokazolarni o'rganadilar. Shaxsiy va guruhli ishlar kognitiv qiziqishni kuchaytiradi, qiyinchiliklarni engib o'tish ko'nikmalarini rivojlantiradi, yuzaga kelgan savollarga javob izlaydi va axborot texnologiyalarining yangi imkoniyatlarining mustaqil rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Eng qiziqqan talabalar turli xil faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari mumkin:

- tovush bilan ishlash;
- foto kamera, videokamera bilan ishlash;
- taqdimotlar qilish (rasmlar qo'shish, ovoz yozish, ma'lumot to'plash);

AKTni qo'llash jarayonida bolalarda mustaqillik, o'ziga ishonch va o'zini anglash qobiliyatining rivojlanishini kuzatish mumkin. Talabalar qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar, mustaqillikni namoyon etadilar, guruh bosimiga qarshi turadilar. O'z-o'zini anglash

qobiliyatining rivojlanish ko'rsatkichlari sifatida dasturiy mahsulotlar to'g'risidagi olingan bilimlarni darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ayniqsa o'zlariga nisbatan qo'llaniladigan ma'lumotlardan, masalan, o'z-o'zini namoyish qilishda foydalanishga intilish hisobga olinadi. Individuallik o'zini boshqasi bilan solishtirganda namoyon bo'ladi, umumiy faoliyat jarayonida o'ziga xos xususiyatni ochib beradi, bunda har birining farqi aniq bo'lganda va ularning har birining xususiyatlari barchaning muvaffaqiyatiga hissa qo'shganda. Siz o'zingizni biror narsani yaratishda shaxs sifatida tasdiqlashingiz mumkin. O'zini shaxs sifatida namoyon etish har bir kishining qobiliyatlari va individual xususiyatlari aniq namoyon bo'lgandagina bir ishda mumkin. Talabalarni AKTdan foydalangan holda tarbiyalash, biz ularning mustaqilligi, ijodiy faoliyati va aksini rivojlantiramiz.

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar - ssenariy, tanlov va tanlovlar g'oliblari to'g'risida ma'lumotlar joylashtirilgan kompyuter bazasi yaratiladi. Talabalarning bo'sh vaqtini tashkil etishda o'quvdan tashqari va sinfdan tashqari mashg'ulotlar samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Nazorat savollari:

1. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari nima?
2. O`quv jarayonida qanday AKT vositalaridan foydalaniladi?
3. AKTning afzalliklarini sanab bering ?
4. O`quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning maqsadi?
5. O`quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy da o`qituvchining vazifasi?
6. O`quv jarayonida AKT-dan voydalanishnig imkoniyatlarini tavsiflang.
7. O`quv jarayonida AKT-ni qo`llash texnologiyalari?

4-MAVZU

TA'LIMDA KULLANILADIGAN TEXNIKAVIY VA DASTURIY TA'MINOT VOSITALARNI TURLARI.

Reja:

1. Texnikaviy va dasturiy ta'minot turlari.
2. Ta'limda texnikaviy va dasturiy ta'minotai kullash.

Tayanch iboralar: *texnikaviy ta'minot, kompyuter, hisoblash texnikasi, hisoblash tizimlari, dasturiy ta'minot, dastur, ta'lim texnologiyalari, protsessor, operativ xotira, texnik qurlmalar, tizimli dasturlar, amaliy dasturlar, uskunaviy dasturlar, dasturlash tizimlari*

O'quv mashg'ulot maqsadi: *talabalarga axborot texnologiyalarining texnikaviy va dasturiy ta'minot haqida, shaxsiy kompyuterlarning tuzilishi, uning qurilmalari hamda ta'limda qo'llaniladigan vositalari to'grisida bilimlarini shakllantirish.*

1. Texnikaviy va dasturiy ta'minot turlari.

Ma'lumki, axborot texnologiyalarining inson faoliyati hamma jabxalarga kirib borish jarayoni borgan sari rivojlanib chuqurlashib bormoqda. Umumiy soni, ko'p yuz milliondan oshib ketgan, keng tarqalgan shaxsiy kompyuterlardan tashqari, hisoblash tizimlarining maxsus vositalari ham ko'payib bormoqda. Bu turli-tuman hisoblash texnikasidan foydalanuvchilar soni ham ko'payib borayotganini bildiradi, bunda ikki qaramaqarshi tendensiyani rivojlanishi kuzatilmoqda. Bir tomondan, axborot texnologiyalari borgan sari murakkablashmoqda va ularni qo'llash uchun, va ularni keyingi rivojlanishi uchun juda chuqur bilimlar talab qilinadi. Boshqa tomondan, foydalanuvchilarning kompyuterlar bilan muloqati soddalashmoqda. Kompyuterlar va axborot tizimlari borgan sari "do'stona" bo'lib bormoqda, va hatto ular informatika va hisoblash texnikasi sohasida mutahassis bo'lmagan odamlar uchun ham tushunarli bo'lib bormoqda. Bu narsa, eng avvalo foydalanuvchilar va ularning dasturlari, hisoblash texnikasi bilan maxsus (tizimli) dasturiy ta'minot – operatsion tizim orqali muloqat qilganliklari uchungina yuzaga keldi.

Shaxsiy kompyuter ikkita tashkiliy qismlardan iborat, bular texnikaviy ta'minot (hardware) va dasturiy ta'minot (software)lardir.

Texnikaviy ta'minoti — bu kompyuterning asosiy texnik qismlari va qo'shimcha (atrof) qurilmalaridir.

Hisoblash tizimi tarkibi konfiguratsiya deb ataladi. Odatda hisoblash texnikasining texnik va dasturiy vositalari alohida olib o'rganiladi. Shuning uchun ham mos ravishda hisoblash tizimlari texnik konfiguratsiyasi va dasturiy konfiguratsiyasi alohida olib o'rganiladi. Bunday bo'linish axborot texnologiyalari uchun muhim ahamiyatga egadir, chunki ko'p xollarda alohida olingan masala yechimini ham texnik, ham dastur vositalari yordamida ta'minlash mumkin.

Texnik ta'minoti.

Hisoblash tizimlarining texnik ta'minoti tarkibiga, texnik konfiguratsiyani tashkil etuvchi qurilma va asboblari kiradi. Zamonaviy kompyuter va hisoblash majmua (kompleks)lari blok-modulli konstruksiya (tuzilish)dan iborat. Ma'lum ishlarni bajarishga zarur bo'lgan texnik konfiguratsiyani tayyor blok va qismlardan yig'ib olish mumkin. Qurilmalarning, markaziy protsessorga (Central Processing UNIT, CPU) nisbatan joylashishiga qarab tashqi va ichki qurilmalarga ajratamiz. Tashqi qurilmalar, qoida bo'yicha, ma'lumotlarni kiritish va chiqarish qurilmalaridir, ularni odatda periferik qurilmalar deb ham ataladi.

Bundan tashqari ma'lumotlarni uzoq saqlashga mo'ljallangan qurilmalar ham tashqi qurilmalarga kiradi. Alohida blok va qismlar orasidagi kelishuvchanlik, birgalikda ishlashdagi moslanuvchanlik, apparatli interfeys deb ataluvchi o'tish apparat-mantiqiy qurilmalari yordamida bajariladi. Hisoblash texnikasidagi apparat interfeysiga belgilangan standartlar protokollar deyiladi. Shunday qilib, protokol — bu qurilma yaratuvchilari tomonidan, bu qurilmaning boshqa qurilmalar bilan muvaffaqiyatli va kelishilgan holda birgilikda ishlashi uchun, ishlab chiqiladigan texnik shartlar majmuasidir.

Dastur — buyruqlarning tartiblangan ketma-ketligidir. Kompyuter uchun tuzilgan har dastur vazifasi — apparat vositalarni boshqarishdir. Birinchi qarashda dasturning qurilmalar bilan xech qanday bog'liqligi yo'qdek ko'rinadi, ya'ni masalan, dastur kiritish qurilmalaridan ma'lumot kiritishni va chiqarish qurilmalariga ham ma'lumot chiqarishni talab qilmasa ham, baribir uning ishi kompyuterning apparat qurilmalarini boshqarishga asoslangan.

Kompyuterda, dasturiy va texnik ta'minot, doimo uzilmas aloqada va uzluksiz bog'lanishda ishlaydi. Biz bu ikki kategoriyani alohida ko'rib chiqayotganimizga qaramasdan, ular orasida dialektik aloqa mavjudligi va ularni alohida ko'rib chiqish shartli ekanligini esdan chiqarmaslik kerak.

Kompyuterlar va hisoblash tizimlarining dasturiy ta'minoti tuzilishini dasturiy konfiguratsiya deb ham ataladi. Dasturlar orasida xuddi kompyuterning fizik qismlari orasidagi kabi o'zaro aloqa mavjud. Aksariyat ko'pgina dasturlar, quyiroq darajadagi boshqa dasturlarga tayanib ishlaydi. Bunday bog'lanish dasturlararo interfeys deyiladi. Bunday interfeys (muloqot) ning mavjudligi texnik shartlar va o'zaro aloqa qoidalariga asoslangan bo'lsa ham, amalda u dasturiy ta'minotni o'zaro aloqada bo'lgan bir nechta sathlar (daraja)larga taqsimlash bilan ta'minlanadi. Dastur ta'minoti sathlari piramida tuzilishiga egadir. Har bir keyingi sath oldingi sathlar dasturiy ta'minotiga tayanadi. Bunday ajratish, hisoblash tizimining dasturlarni o'rnatishdan boshlab, to amalda

ekspluatatsiya qilish va texnik xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan ish faoliyatining hamma bosqichlari uchun qulaydir. Shunga alohida etibor berish kerakki, har bir yuqoridagi sath butun tizimning funkcionalligini oshiradi. Masalan, asos dasturiy ta'minoti sathiga ega bo'lgan hisoblash tizimi ko'p funksiyalarni bajara olmaydi, ammo u tizimli dasturiy ta'minotni o'rnatishga imkon beradi, ya'ni sharoit yaratadi.

Dasturiy ta'minot kompyuterning ikkinchi muhim qismi bo'lib, u ma'lumotlarga ishlov beruvchi dasturlar majmuasini va kompyuterni ishlatish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni o'z ichiga oladi. Dasturiy ta'minotsiz har qanday zamonaviy kompyuterda biror amal bajarib bo'lmaydi.

Kompyuterning texnikaviy va dasturiy ta'minoti orasida bog'lanish qanday amalga oshiriladi?

Avvalo ular orasidagi boglanish interfeys deb atalishini bilib olishimiz lozim. Kompyuterning turli texnik qismlari orasidagi o'zaro bog'lanish — bu, texnikaviy interfeysi, dasturlar orasidagi o'zaro bog'lanish esa — dasturiy interfeys, texnikaviy qismlari va dasturlar orasidagi o'zaro bog'lanish — texnikaviy — dasturiy interfeys deyiladi.

Shaxsiy kompyuterlar (SHK) – hammaboplik va universallik talablarini qoniqtiruvchi, bir kishi foydalanadigan mikro EHMlardir.

Shaxsiy kompyuterlar hammaboplik va universallik talablarini qondirishi uchun quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:

- individual xaridor uchun mos keladigan narxlarda;
- atrof-muhit sharoitlariga maxsus talablarsiz foydalanish avtonomligi;
- tuzilishining boshqarish, fan, ta'lim, turmush sohalarida turli ko'rinishda qo'llanilishlarga moslashuvchanligi;
- foydalanuvchining maxsus, kasbiy tayyorgarliksiz ishlashi imkoniyatini beruvchi operatsion tizimlar va boshqa "do'stona" dasturiy taminotlar;
- ishlashning yqori darajada ishonchliligi (buzilmasdan 5000 soatdan ortiq ishlashi).

Kompyuterning asosiy qurilmalari quyidagilar: **sistemali blok, monitor va klaviatura** (sichqoncha bilan).

Sistemali blokda markaziy protsessor, operativ (tezkor) xotira, qattiq disk, kontrollerlar, disketalar va lazerli kompakt disklar bilan ishlash uchun qurilmalar va boshqalar joylashadi.

Markaziy protsessor. Kompyuterning eng muhim qismini markaziy protsessor, (ya'ni protsessor va boshqaruv qurilmasi) tashkil etadi. Dastur yordamida berilgan ma'lumotlarni o'zgartiradigan, hamma hisoblash jarayonlarini boshqaradigan hamda hisoblash ishlariga tegishli moslamalarning o'zaro aloqasini o'rnatadigan qurilma – **protsessor** deb ataladi.

Operativ xotira. Operativ xotira o'zida kompyuterda ishlatilayotgan dasturlar va ma'lumotlarni saqlaydi. Ma'lumotlar doimiy xotiradan operativ xotiraga ko'chiriladi, olingan natijalar zaruriy holda diskka yoziladi. Kompyuter o'chirilishi bilan operativ xotiradagi ma'lumotlar o'chiriladi.

Diskli jamlagichlar. Ma'lumotlarni saqlash, hujjatlarni va dasturlarni bir jodan ikkinchi joyga olib o'tish, bir kompyuterdan ikkinchisiga o'tkazish kompyuter bilan ishlaganda foydalanadigan axborotni doimiy saqlash uchun disklardagi jamlagichlar ishlatiladi. Ular ikki turda bo'lib, **egiluvchan diskla (disketalar) va qattiq disklardagi jamlagichlar (vincesterlar)** deb ataladi.

Egiluvchan disklar (disketalar)ga ma'lumotlarni yozish va ulardan ma'lumotlarni o'qish uchun disk yurituvchi (diskovod) qurilmasi ishlatiladi. Bunday disketalar qattiq plastmassa g'ilofga o'ralgan bo'lib, bu ularning ishonchliligini va ishlash muddatini

osHIRadi. Ushbu disketalarda yozishni ta'qiqlovchi yoki imkon beruvchi maxsus o'tkazgichi mavjud. Agar teshikcha bekiLgan bo'lsa ma'lumotlar yozish mumkin, aks holda esa, mumkin emas. Disketadan birinchi bor foydalanganda uni albatta maxsus ravishda formatlash, initsializatsiya qilish kerak.

Qattiq disklardagi jamlagichlar (vinchesterlar) kompyuter bilan ishlaganda axborotni doimiy saqlashga mo'ljallangan. Qattiq diskdagi jamlagichlar bir-biridan, ya'ni diskka qancha axborot sig'ishi bilan farq qiladi. Diskning ish tezligi ikki ko'rsatkich bilan aniqlanadi:

1. Diskning sekundiga aylanishlar soni.
2. Diskdagi ma'lumotlarni o'qish va unga ma'lumotlarni yozish tezligi.

Kontrollerlar (maxsus Elektron sxemalar) kompyuter tarkibiga kiruvchi turli qurilmalar (monitor, klaviatura va boshqalar) ishini boshqaradi.

Kiritish-chiqarish portlari orqali protsessor tashqi qurilmalar bilan ma'lumot almashadi. Ichki qurilmalar bilan ma'lumot almashuvi uchun maxsus portlar hamda umumiy portlar mavjud. Umumiy portlarga printer, "sichqoncha" ulanishi mumkin. Umumiy portlar ikki xil bo'ladi: parallel va ketma-ket. Parallel partlar kirish-chiqishni ketma-ket portlarga nisbatan tezroq bajaradi.

Monitorlar. Kompyuter monitori (displey) ekranga matnli va grafik axborotni chiqarishga mo'ljallangan. Monitorlar monoxrom yoki rangli bo'lib, matnli hamda grafik holatlarda ishlashi mumkin.

Matn holatida monitor ekrani shartli ravishda alohida belgi o'rinlariga (ko'pincha 80 ta belgili 25 ta satrga) bo'linadi. Har bir o'ringa 256 ta belgidan biri kiritilishi mumkin. Bu belgilar qatoriga katta va kichik lotin alifbosi harflari, raqamlar, tinish belgilari, psevdografik ramzlar va boshqalar kiradi.

Grafik holat ekranga grafiklar, rasmlar va boshqalarni chiqarishga mo'ljallangan. Bu holatda axborotlarni turli yozuvli matnlar shaklida ham chiqishi mumkin. Yozuvlar ixtiyoriy shrift, o'lcham, interval va boshqalarga ega bo'lishi mumkin.

So'nggi paytlarda kerakli sifatga ega bo'lgan tasvirni hosil qilish imkonini beruvchi suyuq kristalli (LCD) monitorlari qo'llanilmoqda.

Klaviatura foydalanuvchi tomonidan ma'lumotlarni va boshqaruv buyruqlarini kompyuterga kiritishga mo'ljallangan qurilmadir. Klaviaturaning umumiy ko'rinishi undagi tugmachalar soni va joylanishiga qarab turli xil kompyuterlarda farq qilishi mumkin, lekin ularning vazifasi o'zgarmaydi.

Sichqoncha va trekbol kompyuterga axborotni kiritishning koordinatali qurilmalari hisoblanadi. Ular klaviaturaning o'rnini to'raligicha almashtira olmaydi. Bu qurilmalar asosan ikki yoki uchta boshqaruv tugmachasiga ega.

Trekbol - "ag'darilgan" sichqonchani eslatuvchi qurilmadir. Trekbolda uning korpusi emas, balki sharcha harakatga keltiriladi. Bu esa kursorni boshqarish aniqligini sezilarli ravishda oshirishga imkon beradi.

Shaxsiy kompyuter asosiy qurilmalari

Hozirgi vaqtda SHKlar zamonaviy fanlar va barcha xalq xo'jalik bo'limlarining rivojlanishida katta rol o'ynab kelmoqda. Insoniyat tashabbusidagi har bir ishda SHKni qo'llanilayotgani yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu sababli SHKdan foydalanish uchun ko'pchilik foydalanuvchilar dasturlashtirish algoritmik tillarni tezroq o'zlashtirishga harakat qiladilar.

SHKning dunyoga kelishiga avvalambor injinerlar va fiziklar juda muhtoj bo'lganlar desak mubolog'a bo'lmaydi. Juda tez rivojlanib borayotgan fan va texnikaning oldida turgan masalalarni juda katta hisoblashlarga olib keladi va bularni faqat SHK yordamida hisoblash mumkinligini foydalanuvchilar tushunib yetdilar. Endi SHKlarning eng oddiy to'plamlaridan tanlashni boshlaymiz. Boshlang'ich axborotlar mashinaga uzluksiz chiziqlar, ya'ni tenglamalar yordamida berilishi mumkin bo'lsa va bunda mashinalarning o'zi hisoblashlarni davom ettirib chizmani ekranga chiqarsa, bunday mashinalar avtomatik hisoblash mashinalari (AHM) deyiladi. Bularning boshqacha turi raqamli hisoblash mashinalari (RHM) deyiladi.

Ular uzluksiz bo'lmay diskret bo'ladilar. Bunday turdagi mashinalar barcha axborotlar raqamli kodlar ko'rinishida bo'ladi.

Shaxsiy kompyuterlar (SHK) asosan quyidagi asosiy qurilmalardan tashkil topadi:

tizimli blok (protssessor, unda xotira, mikroprotssessor, adapterlar joylashgan bo'ladi).

chiqarish qurilmasi (monitor);

kiritish qurilmasi (klaviatura, sichqoncha);

Dastlab hisoblash uchun yaratilgan kompyuterlarning imkoniyatlari hozirgi kunda "behisob" desak adashmaymiz. Bu kompyuterlar mashhur International Business Mashines Corporation korxonasi mahsulidir.

IBM PC kompyuterlarining AT 386, 486SX, 486DX, 586 hamda Pentium turlari keng tarqalgan.



4.1 - rasm. Protsessor va microprocessor

SHKning asosiy qurilmalari

Shaxsiy kompyuter quyidagi asosiy qurilmalardan tashkil topadi: Protsessor, monitor, klaviatura va sichqoncha.

Protsessor (mother board) - qurilmalarni va hisoblashlarni boshqaruvchi, asosiy qurilma bo`lib, unga mikroprotsessor, tezkor va kesh xotira, mikrosxemalari, kontroller va turli adabter, elektrosxemalar o`rnatiladi.

Protsessor asosan quyidagi qurilmalardan tashkil topadi.

Mikroprotsessor - kompyuterni boshqarish va barcha hisob ishlari, buyruqlarni bajarilishini ta`minlaydi. Mikroprotsessor turli amallarni tez bajarish qobiliyatiga ega. Uning tezligi sekundiga 100 million amalga va undan ortiq bo`lishi mumkin. Uning tezligi Megagerslarda hisoblanadi va protsessor nomidan keyin yoziladi. Masalan, Pentium 700.

Tezkor xotira - protsessor uchun zarur bo`lgan dasturlar va ma`lumotlarni saqlaydi. Kompyuter o`chirilishi bilan tezkor xotiradagi ma`lumotlar o`chiriladi.

Qattiq disk (doimiy xotira - Hard Disk Drive) - dastur va ma`lumotlarni doimo saqlaydi. U ba`zan "vinchester" deb nomlanadi. Vinchester nomi birinchi qattiq disk nomidan kelib chiqqan (1973-yilda IBM firmasi tomonidan yaratilgan qattiq disk nomi "30/30" bo`lgan va bu mashhur Winchester milting`ining kalibrga o`xshar edi). Ular hajm va ishlash tezligi bilan farqlanadi. Qattiq diskdagi dastur va ma`lumotlar esa o`chirilmaydi.

Kesh xotira - kompyuter tomonidan dasturlar ishlash jarayonida ko'p ishlatilgan ma'lumotlarni saqlash uchun foydalaniladi. Bu xotira tezkor va doimiy xotira o'rtasida joylashadi.



4.2 - rasm. Tezkor xotira, qattiq disk, kesh xotira

Kontroller (adapterlar) - ular har xil tashqi qurilmalar ishini ta'minlaydi. Ishlash holatlari bilan farqlanadi (video plata, tovush plata, tarmoq platasi va ...).

Disk yurituvchilari - bu egiluvchan va kompakt disklardagi ma'lumotlarni o'qish va yozish ishlarni bajaradigan qurilma.

Kiritish-chiqarish porti orqali mikroprotessor bilan ma'lumot almashadi. Ichki qurilmalar bilan ma'lumot almashuvi uchun maxsus portlar, hamda umumiy portlar mavjud. Umumiy portlar 2 xil bo'ladi: parallel - (LPT1, ..., LPT4) va ketma-ket (COM1, ..., COM3) bilan belgilanadi. Parallel portlar kirish-chiqishni, ketma-ket portga nisbatan tezroq bajaradi. Har bir port o'zining shaxsiy manziliga va raqamiga ega bo'lib, ularning umumiy soni 65536 taga yetadi.

BIOS (Basic input output system) - o'z tarkibidagi bir marta yozib qoldirilgan ma'lumotlar majmuasini saqlab turuvchi va alohida mikrosxema hisoblangan xotira turi hisoblanadi. Odatda bu xotiradagi ma'lumotlarni, uni ishlab chiquvchi korxonalar (firma) yozib qoldiradi. Bu ma'lumotlar kompyuter elektr manbadan o'chirilgan holda ham saqlanadi va alohida mikroakkumulyatorli batareyalardan oziqlanadi. Bu xotira turi faqat ma'lumotlarni o'qish rejimida ishlaydi. Shuning uchun bunday xotirada kompyuter qurilmalarini tekshiruvchi test dasturlar, operatsion sistemalarning yuklovchi dastur modullari saqlanadi.

Mikroprotessor. Mikroprotessor dasturlarning ishlashini ta'minlaydi va kompyuter qurilmalari ishini bajaradi. U kompyuter tezligini ta'minlaydi. Zamonaviy mikroprotessorlar uch guruhga bo'linadi:

-to`la buyruqlar bilan ishlaydigan CISC (Complex Instruction Set Computing) mikroprotessorlari;

-qisqartirilgan buyruqlar bilan ishlaydigan RISC (Reduced Instruction Set Computing) guruhiga mansub mikroprotessorlar;

-minimal buyruqlar bilan ishlaydigan o`ta tezkor MISC (Minimum Instruction Set Computing) guruhiga mansub mikroprotessorlar.


IBM PC kompyuterlarida odatda Intel firmasi va unga muvofiq boshqa firmalarning mikroprotessorlari o`rnatiladi. Kompyuterlar mikroprotessor turlari bilan ham farqlanadi. Mikroprotessorlar Intel - 8088, Intel -80386, Intel -80286, Intel -80386 Sx, Intel -80486, Intel Pentium kabi turlari mavjud.

Dastlabki kompyuterlar Intel - 8088 asosida qurilgan bo`lib, ularning ishlash tezligi juda sekin edi. Intel - 80286, Intel - 80386 mikroprotessorlari ham keyingi turlarga nisbatan tezligi sustligi sababli hozirgi kunda ishlab chiqarilmayapti.

1991-yildan boshlab IBM, Motorola, Fire, Power va boshqa firmalar birgalikda Power PC mikroprotessorini ishlab chiqishga kirishdi va bu borada muvaffaqiyatga erishdi.

1993-yildan boshlab Intel firmasining Pentium asosidagi Pentium Pro mikroprotessori o`rnatilgan kompyuterlari ham sotila boshlandi. Pentium Pro ning amallarni bajarish chastotasi 150 MGs bo`lib, u Pentium ga nisbatan ishlash tezligi 40 martaga ko`proqdir.

Shunday bo`lsada, Pentium narxining arzonligi va imkoniyatlari bilan foydalanuvchilarni o`ziga ko`proq jalb qilmoqda. Notebook kompyuterlar 120 MGli Pentium mikroprotessorlari asosida ishlaydi. Pentium mikroprotessorlaridan murakkab hisoblar va tasvirlar uchun foydalanish maqsadga muvofiq.



4.3 - rasm. Mikroprotessorlar

Tezkor xotira (operativ xotira). Tezkor xotira o`zida kompyuterda ishlayotgan dastur va ma`lumotlarni saqlaydi. Ma`lumotlar doimiy xotiradan tezkor xotiraga ko`chiriladi, olingan natijalar zarur holda diskka qayta yoziladi. Odatda Intel - 8088 protessorli shaxsiy kompyuter 1 Mbayt hajmdagi tezkor xotiraga ega. Hozirgi SHKlarining

tezkor xotirasi 1-2 Gegabaytdan ko`proq hajmga ega bo`lib, bu xotira ikki qismdan iboratdir:

1) 640 Mbaytli qismiga amallar tizimi hamda amaliy dasturlar majmuasi joylashtiriladi;

2) qolgan qismiga xizmatchi maqsadlar uchun ishlatiladigan dasturlar joylashtiriladi (test dasturlari, dastavval kompyuterni ishga tayyorlash dasturi va boshqalar).

Monitor (display, ekran) - foydalanuvchiga matnli va grafikli ma`lumotlarni chiqarish uchun xizmat qiladi. Kompyuter bilan bo`ladigan bevosita muloqotni ekranda ko`rish uchun monitor xizmat qiladi. Monitorning ikki: monoxrom va rangli turlari mavjud bo`lib, ular video adapter qurilmasi boshqaruvida ikki xil rejimda, matn yoki grafika holatlaridan birida ishlaydilar.

Monitorlar televizorlarga o`xshash, u ham tasvirlarni kineskop (elektron-nur trubkasi) yordamida hosil qiladi. Monitorlar har qanday televizorlardan farqli o`laroq yaqqol va aniq tasvirlarni ko`rsatadi. Ular bir-biridan o`lchamlari (14 dyumdan 24 dyumgacha) bilan farqlanadi.

Matnli rejimda monitor ekranni shartli ravishda 80 ta ustun, 25 satrga bo`linadi. Shu maydonning ixtiyoriy joyida belgilar tasvirlanadi. Bu belgilar katta va kichik lotin harflari, sonlar va yordamchi belgilar bo`lishi mumkin.

Grafik rejimda ekranga matnli ma`lumotlardan tashqari rasm va grafik tasvirlar ham chiqariladi. Bunda belgi ixtiyoriy shrift va o`lchamga ega bo`ladi. Bu rejimda ekran nuqtalar (piksel) to`plamidan iborat. Masalan, 640 x 400 imkoniyatli monitor ekranda gorizontalligiga 640 va vertikaliga 400 nuqtani tasvirlaydi. Nuqtalar soni oshishi bilan tasvir sifati oshadi. Quyida monitorlarning ba`zi bir turlari keltirilgan.

Kompyuterga monitor ulash uchun maxsus videoadapter zarur. *Videoadapter* - tasvir to`g`risidagi ma`lumotlar saqlanadigan xotiraning muayyan qismini monitorda aks ettiruvchi signalni, hamda sinxronizasiya signallarini gorizontalligiga (satri) va vertikal (ustun bo`yicha) taqsimlab, shakllantiradi.

Eng birinchi SHKlarda monitor vazifasida maishiy televizordan foydalanilgan bo`lsa, hozir esa kompyuterni juda quvvatli, kuchli grafik stansiyaga aylantiruvchilarga yetib kelindi. Bu vaqt ichida platalar va standartlarni bir necha avlodi almashdi. Avvaliga MDA (Monochrome Display Adapter - displayning monoxrom adapteri) standarti paydo

bo`ldi. MDA platasi ekranga faqat alfavit-raqamli axborotni chiqarishga qodir - hech qanaqa grafika va ranglarni ta`minlay olmasdi.

MDA o`rniga kelgan CGA (Color Graphics Adapter - rangli grafika adapteri) nafaqat matnli, balki grafik rejimlarda ham ishlar va mavjud bo`lgan o`n olti rangining to`rttasini ko`rsata olardi.

Keyingi bosqichda EGA (Enhanced Graphics Adapter — yaxshilangan grafika adapteri) ekranda ko`rinadigan ranglarning sonini 64 rangli palitradan 16 ranggacha yetkazdi va ekranga chiqariladigan grafika sifatini ancha yaxshiladi. EGA standarti paydo bo`lishi grafik dasturlar, jumladan Microsoft Windows operatsion sistemasi imkoniyatlarini kengaytirishga va mashhur bo`lib ketishiga omil bo`ldi.

Bugun ham foydalanib kelinayotgan VGA (Video Graphics Array) eng muvaffaqiyatli videostandart hisoblanadi, biroq hozirgi kunda u ham takomillashib, SVGA (Super Video Graphics Array) standartiga o`tdi.

Agar CGA ning birinchi variantlarida ranglar palitrasi 262144 dan 256 xil rang chiqarishni ta`minlasa, keyingi VGA bilan to`g`ri keladigan platalar paydo bo`ldiki, ularda ranglari bo`yicha farq 16.8 mlnni tashkil qiladi.

Monitorlarni o`lchamiga qarab uning bahosi o`sib boradi. Masalan, 17 dyumli monitorlar 14 dyumli monitorga nisbatan uch barobar qimmat bo`ladi. Monitorlar sifati bo`yicha ekrandagi kadrlar chastotasi - 75 Gni tashkil etishi lozim. Bu holda monitor sekundiga 80, yaxshi monitorlar (qimmatroq bo`ladi) 100 kadrni o`tkazishi mumkin. Ekrandan zararli nurlanish olmaslik, ular ta`sirini kamaytirish uchun ekranni LR(Low Radiation) deb yurituvchi maxsus qoplamalar bilan ta`minlanganiga e`tibor bering. Monitor sotib olayotganingizda kompyuter MPR II yoki TSO 95 standartiga mos kelsagina zararli nurlanishlar minimumga keltirilgan deb tushunish kerak. Shu bilan birga monitor spesifikasiyasida NI(Non Interiaced), ya`ni ekran qatorlarini barobariga ko`rsatish rejimi berilgan bo`lsa maqsadga muvofiq bo`ladi.



4.4 - rasm. Monitorlar

Klaviatura - foydalanuvchi tomonidan ma'lumotlarni kompyuterga kiritishga mo'ljallangan qurilmadir. Tugmachalar soni va joylashishi turli xil kompyuterlarda har xil bo'lishi mumkin, lekin ularning vazifasi o'zgarmaydi.

IBM PC SHK klaviaturalari 2 xilda ishlab chiqariladi. Kichik - 83 ta va katta -101 ta tugmachaga ega bo'lgan klaviaturalar. Katta klaviatura ishlashga juda qulay. Klaviatura harflar joylanishi bo'yicha ingliz (QWERTY) va fransuz (AZERTY) standartlariga bo'linadi.

Ba'zi hollarda kichik klaviatura - kichik razryadli klaviatura, katta klaviatura esa katta razryadli klaviatura deb ham yuritiladi. SHKning imkoniyatiga qarab kichik klaviaturaning 83, 89 tugmali variantlari respublikamizda keng tarqalgan. Katta klaviaturalarning 101, 104, 107 tugmali standart variantlari bor. Katta klaviaturalarning multimediali variantlar ham bo'lib, ularda 108-124 tagacha tugmachalar bor.



4.5 - rasm. Multimediali zamonaviy klaviaturalar

Klaviaturaning asosiy yoki alfavit tugmalari 57 ta tugmadan iborat bo'lib, 37 tasi lotin harf va belgilar, 10 tasi raqam va 10 tasi maxsus tugmalar. Ko'p tugmalarda bir nechta belgilar yozilgan. Har xil rangda yozilgan harflar, belgilar har xil til standartiga mosligidir. Til standartini o'zgartirish klaviaturalarda har xil (o'ng [Alt] + [Shift], ikkita [Shift], o'ng [Ctrl] + [Shift] tugmalarni birga bosish orqali) bo'ladi.

Maxsus tugmalar [Shift] - agar siz harflar tugmasini bossangiz u holda kichik harf kiritiladi, agar sizga katta harf kerak bo'lsa u holda maxsus [Shift] tugmani bosib, qo'yvormasdan shu harf tugmasini bosishingiz kerak (masalan, [Shift] + [a] bosilsa ekranda "A" hosil bo'ladi). Agar bitta rang bilan bir nechta belgilar yozilgan bo'lsa, u holda ulardan pastkidagi asosiy, yuqoridagi passiv deb nomlanadi. Tugmani bosilganda asosiy belgi kiritiladi. Agar sizga passiv belgi kerak bo'lsa, u holda siz maxsus tugmani bosib, qo'yvormasdan belgi tugmasini bosishingiz kerak (masalan, [Shift] + [1] bosilsa ekranda "!")

hosil bo`ladi). [Ctrl] va [Alt] - shu tugmalarni bosib turib boshqa tugmani bosganimizda har xil amallar bajariladi. [Caps Lock] - bu tugma yordamida [Shift] bosilib turgan holatini (faqat harflar uchun) yoqamiz yoki o`chiramiz. [Tab] - keyingi bo`limga yoki qismga o`tish. [Backspace] - oldin (chapda) joylashgan bitta belgini o`chirish uchun foydalaniladi. [Enter] - yangi satrga o`tish yoki ma`lumotlarni kiritish (ba`zi bir klaviaturalarda (Return) yoki (SR)). [Esc] - oxirgi harakatdan voz kechish.

Funksional tugmalar. Maxsus buyruqlar va amallarni bajarish tugmalari [F1] - [F12]. Har xil dasturlar bu tugmalarga har xil amallarni o`rnatadi.

Yo`nalish tugmalari. Kursor joylanishini o`zgartiradi. Kursorni bitta belgi chapga, yuqoriga, o`ngga va pastga siljitish imkoniyati.

Yordamchi tugmalar. [Home] - satr boshiga o`tish. [End] - satr oxiriga o`tish. [PageUp] - bir sahifa yuqoriga o`tish. [PageDown] - bir sahifa pastga o`tish. [Insert] - belgilarni o`chirib, ustiga yozish yoki ularni siljitib o`rtasiga yozish holatini o`rnatish. [Delete] - keyin (o`ngda) joylashgan bitta belgini o`chirish.

Raqam tugmalari. Raqamlarni kiritish uchun klaviatura. [0], ..., [9] gacha raqamlar va [/],[*],[-],[+] belgilari mavjud.

Tugmachalarning maxsus majmualari.

- [Ctrl] + [Break] - ishlayotgan dastur yoki buyruqni tugatilishini ta`minlaydi.

- [Ctrl] + [Alt] + [Del] - masalalar dispecherini chaqiradi yoki operatsion tizimni xotiraga qayta yuklaydi.

- [Shift] + [RrintScreen] - ekrandagi axborot nusxasini printeriga chiqarish rejimini ulash va o`chirishni ta`minlaydi.

- [Ctrl] + [Numlock] - dastur ishini to`xtatib turadi va davom ettiradi.

Sichqoncha - ma`lumot kiritilishini yengillashtiruvchi manipulyator. SHKning asosiy qurilmalaridan biri bu sichqonchadir. Uning 3 xil turi bo`ladi: standart, trekbol va sensor paneli. Standart sichqonchalar stol ustida ishlatish zarur bo`lgan, sensor paneli bilan trekbollar esa notebooklar uchun yaratilgan va ular pastki paneli ichiga o`rnatilgan bo`ladi.

Sichqoncha ichida rezina ichiga joylashgan sharik bor, u stol bo`yicha harakat qilganda maxsus roliklar va indikatorlar orqali ushbu harakat kompyuterga jo`natiladi va ekrandagi sichqoncha ko`rsatkichi (strelkasi) biz belgilagan yo`nalishda harakatlanadi.

Uning nomi tashqi ko`rinishidan kelib chiqqan. “Sichqoncha” qo`lga bemaol joylashuvchi bir necha tugmachali bo`ladi. Sichqoncha stol yoki maxsus yuzada (gilamchalar) harakati natijasida ekrandagi kursorni mos ravishda harakatlantiradi. Menyuning birortasini bajarish uchun sichqoncha mos tugmachasi bosiladi. Ba`zi amaliy dasturlar faqatgina sichqoncha bilan ishlashga moslashgan.

Axborot texnologiyalarning rivojlanishi sichqonchalarning bir necha xil ko`rinishlarini yaratishga sabab bo`ldi.

- sharikli, ikki tugmali;
- sharikli, uch tugmali;
- nurli, uch tugmali;
- nurli, multimediali;
- masofali, nurli, uch tugmali;
- masofali, multimediali;



4.6 - rasm. SHKning sichqonchalari

Shaxsiy kompyuter qo`shimcha qurilmalari

SHKning imkoniyatini oshirish maqsadida turli qurilmalar ishlab chiqarildi va ular SHKning qo`shimcha qurilmalari deb nomlandi. Ular qatoriga:

Printer - kompyuterdagi ma`lumotlarni qog`ozga chop qilish qurilmasi;

Disk (axborot tashuvchi qurilma) - axborotlarni ko`chirish, saqlash, tarqatish va tashish uchun ishlatiladigan qurilma;

Plotter - chizmalarni qog`ozga chiqaruvchi qurilma;

Skaner - kompyuterga matnli yoki tasvirli ma`lumotni kirituvchi qurilma.

Tarmoq adapteri - kompyuterni mahalliy tarmoqqa ulash imkonini beruvchi qurilma;

Audio-video adapter - kompyuter yordamida musiqa ijro etilishini va turli video roliklarni ko`rishni ta`minlovchi qurilma;

Modem - telefon tarmog`i orqali boshqa kompyuter bilan ma`lumot almashuvini ta`minlovchi qurilma;

Multimedia - Kompyuter yordamida tovushli va rolikli multikinolarni ko`rish imkoniyatini yaratib beruvchi qurilma;

Strimer - kompyuterning vinchesteridagi ma`lumotlarni nusxasini zaxiraga olish uchun mo`ljallangan qurilma.

Printer - kompyuter xotirasidagi axborotlarni (matnli va rasml) qog`ozga bosish uchun foydalaniladi. Printerlar ishlash tamoyillariga ko`ra matritsali, siyohli va purkagichli, lazerli printer turlarga bo`linadi.

Ignali printerlar - keng tarqalgan printerlar turi bo`lib, hozirgi kunda deyarli ishlatilmaydi. Respublikamizda ularni faqat temir yo`l, aviya va bank kassalarida uchratish mumkin.

Bu printerning ishlash qoidasi quyidagicha: printerning yozish boshchasida vertikal tartibda ignalar joylashgan. Boshqacha yozuv satri bo`ylab harakatlanadi va ignalar kerakli daqiqada bo`yalgan lenta orqali qog`ozga uriladi va natijada qog`ozda belgi yoki tasvir hosil bo`ladi.

Ignalar soniga qarab bu printerlar bir-necha turlarga bo`linadi: 9 ignali, 24 ignali, 48 ignali.

- 9 ignali printerda yozuv sifati pastroq. Sifatni oshirish uchun 2 yoki 4 yurishda bajarish kerak.
- 24 ignali printer sifatli va tezroq ishlaydi.
- 48 ignalisi yozuvni juda sifatli chiqaradi.



4.7 - rasm. Ignali printerlar

Ignali printerlar tezligi bir bet uchun 10 sekunddan 60 sekundgacha vaqt ketadi. Ba`zan zarbli printerlar ham deyiladi. Ignali matritsali printerlardan tashqari matritsali termoprinterlar guruhi ham bor, ular bosuvchi ignali kallak o`rniga termomatritsali kallak bilan jihozlangan va bosishda termogog`oz ishlatiladi

Siyohli printerda tasvir qog`ozga maxsus qurilma orqali purkalayotgan siyoh tomchilaridan yuzaga keladi. Siyohli printer sifati purkagichli printerga yaqin narxi ham arzon. Siyohli printer shovqinsiz ishlaydi. Shuning uchun hozirgi kunda ko`pchilik undan foydalanmoqda. Tezligi bir bet uchun 15 sekunddan 100 sekundgacha. Siyohli printerda bosuvchi kallakda ignalar o`rniga ingichka naychalar - soplolarga (konus naychalarga) ega, u orqali qog`ozga bo`yoq

rangning (siyohning) mayda tomchilari purkaladi. Bu zarbsiz bosuvchi qurilmadir. Bosuvchi kallakning matritsasi odatda 12 tadan 64 tagacha soplola ega. Keyingi yillarda ularning mukammallashishida jiddiy rivojlanishga erishildi. Tasvirni shakllantirishda bosuvchi kallakning juda mayda soplolari yordamida qog'ozga siyoh tomchilarining yo'naltirilgan portlatishga o'xshash purkash - purkagichli bosishning «Pufakli» texnologiyasi deb ataluvchi usuli ishlatiladi. Purkash jarayoni texnikasi quyidagicha bo'ladi. Soplo devoriga elektrik qizdiruvchi element o'rnatilgan bo'lib, uning harorati elektr impulsi berilganda 5-10 ms ichida keskin ortadi. Qizdiruvchi element bilan kontaktda joylashgan siyohning hammasi bir zumda bug'lanadi, bu bosimning keskin oshishiga olib keladi, buning oqibatida siyoh soplodan qog'ozga otilib chiqadi. «Otilgandan» keyin siyohlari kondensatsiyalanadi, soploda pasaygan bosim maydoni hosil bo'ladi va unga siyohning yangi porsiyasi (ulushi) so'riladi. Bu yangi texnologiya purkagichli printerlar va plotterlar olamida burilish yasaydi.



4.8 - rasm. Siyohli printerlar

Bu esa ularning o'tkazish qobiliyatini yana bir pog'onaga (dyumda 600-1440 ta nuqtagacha) ko'tarish imkonini berdi. Shunday qilib, hozirgi vaqtda purkagichli printerlar millimetrga 50 tagacha nuqtali o'tkazish qobiliyatini va sekundiga 500 tagacha belgini bosish tezligini ta'minlaydi va bunda bosish sifati o'ta yuqori bo'ladi.

Purkagichli printerlar yozuvchi kallakda katta miqdordagi soplolarni ishlatib, **rangli bosishni** ham bajaradi, lekin bunda o'tkazish qobiliyati oq-qoraga nisbatan taxminan ikki marta kamayadi (lekin Epson firmasi o'tkazish qobiliyati 400 dpi bo'lgan, rangli bosish tezligi sekundiga A4 o'lchamli 4 betni tashkil etgan noyob rangli purkagichli Stylus 600 printerini yaratgan). Rangli tasvirni yaratish uchun odatda, poligrafiyada qabul qilingan SMYK rangli sxema ishlatilib, u o'z ichiga to'rtta bazaviy (asosiy) rangni oladi: Syan - havo rang, Megenta - to'q qizil rang, Yellow - sariq rang, Key - yetakchi (qora rang). Murakkab ranglar bazaviy ranglarni aralashtirib hosil qilinadi. Bosish sifati juda ajoyibdir - to'liq rangli plakat deyarli bosmaxonanikidan farq qilmaydi.

Purkagichli printerlarning asosiy afzalliklari:

yuqori bosish sifati, katta miqdorli soploli printerlar uchun bosish sifati lazerli printer bilan taqqoslasa bo`ladi;
xomaki bosish rejimida yuqori tezlik;
oddiy, albatta, yaxshi zichlikdagi qog`ozni ishlatish, siyoh yoyilib ketmasligi uchun;
shovqinsiz ishlashi.

Purkagichli printerlarning asosiy kamchiliklari:

soplo ichida siyohning qurib qolish xavfi, bu ba`zida bosuvchi kallakni almashtirish zarurligiga olib keladi;

sarflanadigan materiallarning nisbatan yuqori narxdaligi, xususan, siyoh uchun balonchaning, ayniqsa, agar u bosuvchi kallak bilan birlashtirilgan va birgalikda almashtirilsa (bunday tuzilish keng tarqalgan).

Lazerli printerlar bosmaxona sifat darajasiga yaqin sifatli yozuvni ta`minlaydi. U ishlash nuqtai nazaridan nusxa ko`chiruvchi kseroksga yaqin, bunda faqat bosuvchi baraban kompyuter komandasi yordamida elektrlanadi. Bo`yoq donachalari zarblanib barabanga yopishadi va tasvir hosil bo`ladi. Tezligi bir bet matn uchun 3 sekunddan 15 sekundgacha. Rasm uchun ko`proq, katta rasmlar uchun 3 minutgacha vaqt talab qiladi. Hozirgi kunda minutiga 15-40 betgacha chop etadigan purkagichli printerlar bor.



4.9 - rasm. Lazerli printerlar

Lazerli printerlarda tasvirni shakllantirishning elektrografik usuli ishlatilib, bu usul shu nomdagi nusxa ko`chiruvchi apparatlarda ishlatiladi. Lazerli printer o`ta ingichka yorug`lik nurini yaratish uchun xizmat qiladi, bu nur oldindan tayyorlab qo`yilgan yorug`likka sezgir baraban sirtida ko`rinmaydigan nuqtali elektron tasvir konturini chizadi. Elektr zaryad lazer nuri bilan yoritilgan nuqtalardan baraban sirtiga oqib tushadi. Elektron tasvir tushgandan keyin razryadlangan maydonlarga yopishib qolgan bo`yoq (toner) kukuni bilan bosish bajariladi. Toner barabandan qog`ozga olib o`tiladi va tasvirni qog`ozda tonerni qizdirib, u erib ketguncha qotiriladi.

Lazerli printerlar millimetrda 50 tagacha nuqtalarni va sekundiga 1000 tagacha belgilarni bosuvchi tezlikni ta'minlaydigan o'tkazish qobiliyatli eng yuqori sifatli bosishni ta'minlaydi. Rangli lazerli printerlar ko'p ishlatiladi. Masalan, tektonik (AQSH) firmasining Phaser 550 lazerli printeri gorizontaal bo'yicha ham, vertikal bo'yicha ham millimetrda 48 nuqtali o'tkazish qobiliyatiga ega. Rangli bosish tezligi minutiga A4 o'lchamli 5 bet, monoxromli bosish tezligi - minutiga 14 bet.

Kompyuterlarning dasturiy ta'minoti

Dasturiy ta'minot (Software yoki qisqacha DT) - kompyuter bilan foydalanuvchi o'rtasidagi muloqotni unumli tashkil etish uchun ishlatiladigan dasturlar to'plamidir. Boshqacha qilib aytganda, dasturiy ta'minot hisoblash tizimi tomonidan bajariladigan dasturlar to'plamidir. Kompyuter xotirasida saqlanayotgan dasturlar to'plami uning **dasturiy ta'minotini** tashkil etadi.

Kompyuterda ishlash uchun o'rnatilib, tayyorlangan dasturlar to'plami o'rnatilgan **dasturiy ta'minot** deyiladi.

U yoki bu vaqt oralig'ida ishlatilayotgan dasturlar to'plami **dasturiy konfiguratsiya** deyiladi.

Dasturiy ta'minotga, shuningdek, uni loyihalash va yaratish bilan bog'liq quyidagi soha ham kiradi:

Dasturlarni loyihalash texnologiyalari (masalan, strukturali dasturlash yoki ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash);

- Dasturlarni testlash metodlari;
- Dasturlarning to'g'riligini isbotlash metodlari;
- Dastur ishining sifatini tahlil qilish;
- Dastur uchun yo'riqnoma hujjatlarini rasmiylashtirish;
- Dasturiy ta'minotni loyihalash jarayonini osonlashtiruvchi dasturiy vositalar yaratish va ulardan foydalanish.

Dasturiy ta'minot - kompyuterning ajralmas qismidir. U kompyuter texnik qurilmalarining mantiqiy davomi hisoblanadi. Muayyan kompyuterni qo'llash ko'lami uning uchun yaratilgan dasturiy ta'minot bilan belgilanadi. O'z-o'zidan kompyuter muayyan sohaga oid masalani yechish bo'yicha bilimlarni o'zida mujassamlashtirmaydi. Ushbu bilimlarni shakllantrish va ulardan foydalanish uchun dasturiy ta'minot zarur.

Zamonaviy kompyuterlarning dasturiy ta'minoti millionlab dasturlarni - o'yinlardan tortib to murakkab ilmiy masalalarni yechish dasturlarini o'z ichiga oladi.

Dasturiy ta'minot tasnifi

Kompyuterda ishlatiladigan barcha dasturlarni, ya'ni dasturiy ta'minotni shartli ravishda **uchta toifaga** ajratish mumkin:

1. Kompyuter resurslarini (xotira, kiritish-chiqarish qurilmalari kabi) boshqarish, saqlanayotgan axborotlardan nusxa olish, kompyuter qurilmalari ishini nazorat qilish, foydalanuvchiga turli xil uzilishlar haqida ogohlantirishlar berish kabi turli funksiyalarni bajaruvchi **tizimli dasturlar**;


2. Yangi ma'lumotlar, hujjatlar, dasturlar yaratish, shuningdek, ma'lumotlar bazalarini boshqarish imkonini beruvchi **uskunaviy dasturlar**;

3. Bevosita foydalanuvchi uchun zarur bo'lgan amaliy masalalarni yechishni ta'minlovchi amaliy dasturlar.



4.10-rasm.Dasturiy ta'minot tuzilmasi

Dasturiy ta'minot konfiguratsiyasi pog'onalari



4.11-rasm.Dasturiy ta'minot konfiguratsiya pog'onalari

Hisoblash texnikasining shiddat bilan rivojlanishi va uning qo'llanilish sohasining kengayishi dasturiy ta'minot evolyutsiyasi jarayonini keskin tezlashtirdi. Bu holat dasturiy ta'minotni tasniflashda, albatta, inobatga olinishi kerak.

Agar avvallari dasturiy ta'minotning asosiy toifalari - operatsion tizimlar, translyatorlar, amaliy dasturlar paketi sanoqli darajada bo'lgan bo'lsa, endilikda vaziyat tamomila boshqacha tus olgan.

Kiritish-chiqarishning bazaviy tizimi

Quyi pog'onada kiritish-chiqarish amallarini bajarilishini ta'minlovchi bazaviy tizim (**BIOS**). Ularning kodlari kompyuter mikrosxemasida qat'iy ravishda yozib quyilgan bo'lib, ular domiy ravishda saqlanadilar. Kompyuterga kuchlanish berilgach, ushbu dasturlar kompyuter qurilmalarini tekshirib oladilar va klaviatura hamda monitor qurilmalari ishini muvofiqlashtirib turadilar. Klaviaturada qaysi klavisha bosilsa, unga mos belgi monitor ekranida tasvirlanishi ta'minlanadi. Foydalanuvchi ushbu dasturlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi deyarli cheklangan. Faqat kompyuter ishining dastlabki soniyalarida foydalanuvchi ularni kuzatishi mumkin.

Tizimli dasturlar

Tizimli dasturlar kompyuterning barcha qurilmalari bilan ishlashni ta'minlaydilar. Odatda tizimli dasturlar kompyuterga biror yangi qurilma ulanib, o'rnatilganida, drayver dasturi ko'rinishida, operatsion tizim ishini sozlashda va u bilan ishlashlarida faol bo'ladilar.

Tizimli dasturlar amaliy dasturlar bilan birgalikda kompyuter resurslarini - protsessorni, xotirani, kiritish-chiqarish qurilmalarini boshqarishda ishlatiladilar.

Ushbu dasturlar barcha foydalanuvchilarga mo'ljallanib, umumiy foydalanish uchun ishlatiladilar. Tizimli dasturlar shunday yaratiladiki, kompyuterga kiritilgan amaliy dasturlar tez va oson bajarilishi ta'minlanishi kerak.

O'n minglab tizimli dasturlar ichida alohida o'rinni **operatsion tizimlar** egallaydilar. Ular bevosita kompyuter resurslaridan unumli va sifatli foydalanishni ta'minlaydilar.

Kompyuter ishlab chiqaruvchilari foydalanuvchi tomonidan qaysi dasturlar ishlatilishini oldindan bilmaganliklari uchun yangi kompyuterlar odatda amaliy dasturlar bilan jihozlanmagan bo'ladilar. Biroq har bir foydalanuvchi o'z maksadi yo'lida kerakli dasturlarni o'rnatib ishlash imkoniyatlari mavjud. Asosan kompyuter doimiy xotira qurilmasida kiritish- chiqarish operatsiyalarini bajarish imkonini beruvchi bazaviy tizim mikrosxemaga «tikilgan» holda quyi pogona dasturlari o'rnatiladi. Kerak bo'lgan tizimli va xizmatchi dasturlar soni juda ham ko'p (yuzlab va undan ortiq) miqdorda bo'lgani uchunular

umumiy paket holdida kompyuterga o'rnatiladilar. Tizimli va qisman xizmatchi dasturlarni o'z ichiga olgan bunday standart paket operatsion tizim deyiladi.

Operatsion tizim — kompyuter dasturiy ta'minotining eng muhim qismidir. U dasturlarni ishga tushirilishini, kiritish-chiqarish operatsiyalarini, boshqa yordamchi operatsiyalarni, ma'lumotlarni va resurslarni boshqarish, rejalashtirish, tashkil etish masalalarini avtomatlashtirish vazifasini bajaradi

Operatsion tizim vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ❖ Foydalanuvchi muloqotini ta'minlash;
- ❖ Ma'lumotlarni kiritish-chiqarish va ularni boshqarish;
- ❖ Qayta ishlash j arayonini rejalashtirish va tashkil etish;
- ❖ Resurslarni taqsimlash (operativ xotira, kesh xotira, protsessor, tashqi qurilmalarni);
- ❖ Dasturlarni bajarish uchun ularni ishga tushirish;
- ❖ Xizmat ko'rsatish bo'yicha turli operatsiyalarni bajarish;
- ❖ Turli xil ichki qurilmalararo ma'lumotlarni uzatish;
- ❖ Periferiya qurilmalari ishini dasturiy qo'llab-quvvatlash.

Bir vaqtning o'zida qayta ishlanadigan masalalar va foydalanuvchilar soniga qarab operatsion tizimlarning to'rt asosiy sinfga ajratish mumkin::

❖ ***Bir foydalanuvchili, bitta masalali*** operatsion tizimlar. Ular yordamida bitta foydalanuvchi klaviaturadan foydalanib muayyan vaqt oralig'ida faqat bitta masalani yechish imkoniga ega bo'ladi;

❖ ***Bir foydalanuvchili fon rejimida chop etishga mo'ljallangan*** operatsion tizim. Ushbu tizim yordamida foydalanuvchi bir masala yechishi davomida fon rejimida boshqa ma'lumotini chop etishi mumkin;

❖ ***Bir foydalanuvchili ko'p masalali operatsion tizim.*** Bunday tizimda bitta foydalanuvchi parallel ravishda kompyuterda bir necha masalani kayta ishlashi mumkin;

❖ ***Ko'p foydalanuvchili, ko'p masalali operatsion tizim.*** Bir vaqtning o'zida bir necha foydalanuvchi o'z masalalarini parallel ravishda qayta ishlashlari mumkin. Bunday operatsion tizim uchun ko'plab kompyuter resurslari talab etiladi.

Operatsion tizim foydalanuvchiga ko'rinmaydigan holda apparatura qurilmalarini boshqarish, ularga axborotni uzatish yoki

ulardan qabul qilish jarayonlarini boshqarishni amalga oshirib, foydalanuvchiga qulayliklar yaratadi.

Operatsion tizim insonga kompyuterda o'z ishini samarali tashkil etish imkonini beradi. Bugungi kunda dasturiy ta'minotning quyidagi guruhlari shakllanib, rivojlanmoqda:

- operatsion tizimlar va kobiklar;
- dasturlash tizimlari (translyatorlar, qism dasturlar kutubxonasi, sozlovchilar va shu kabilar);
- uskunaviv tizimlar;
- integrallashgan (iamlangan) dasturlar paketi;
- dinamik elektron iadvallar;
- mashinaviv grafika tizimlari;
- ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (MBBT);
- amaliy dasturiy ta'minot.

Dasturiy ta'minot strukturasi rasmda keltirilgan.

Tizimli dasturlar sirasiga shuningdek turli xizmatchi dasturlar - utilitalar (lotincha *utilitas* — foyda) kiradilar. Ular operatsion tizim imkoniyatlarini kengaytiradilar yoki to'ldiradilar yoki ayrim muhim vazifalarni mustaqil bajaradilar. Bunday xizmatchi dasturlarga:

- Kompyuter qurilmalari ishini nazorat, testlash, diagnostika qilish dasturlari;
- Drayver-dasturlar;
- Arxivator dasturlari;
- Antivirus dasturlari;
- Disk sohasini optimal boshqarish dasturlari;
- Tashqi xotirada saqlanayotgan ma'lumotlarni tiklash, himoyalash va disklarni formatlash dasturlari;
- Kompyuterlar o'rtasida axborotlarni ayirboshlash imkonini beruvchi kommunikatsiya dasturlari;
- Operativ xotiradan samarali foydalanish imkonini beruvchi xotirani boshqarish dasturlari;
- CD-ROM, CD-R va boshqa shu kabi tashki xotira vositalariga axborotni yozish dasturlari va boshqa shu kabi dasturlar kiradilar.

Utilitalarning bir qismi operatsion tizim tarkibiga kiritilgan, boshqalari esa mustaqil ravishda foydalanuvchi tomonidan yuklanib, bajariladilar.

Uskunaviy dasturlar

Kompyuterga xizmat ko'rsatuvchi, uning yurilmalarini tekshirib, nazorat yiluvchi, foydalanuvchining ma'lumotlarini, dasturlarini yaratish imkonini beruvchi dasturlardir. Foydalanuvchi yoki dasturchi ushbu dasturlar yordamida o'z hujjatlarini yaratishi, tahrirlashi, boshqa amaliy dasturlarini yaratib, sozlashi mumkin.

Uskunaviy dasturiy vositalar — amaliy yoki tizimli dasturlarni yaratish, tahrirlash yoki takomillashtirish jarayonida ishlatiladigan dasturlardir.

O'z vazifalariga ko'ra ular dasturlash tizimlariga yayin. Uskunaviy dasturlarga quyidagilar kiradilar:

- muharrirlar - matn muharrirlari (redaktorlar);
- dasturlarni komponovka qilish vositalari;
- yaratilayotgan dasturdagi xatoliklarni aniqlash va ularni bartaraf qilish imkonini beruvchi sozlash dasturlari;
- tez-tez ishlatib turiladigan tizimli amallarni bajaruvchi yordamchi dasturlar;
- grafik dasturlar paketi;
- jadval protsessorlari, taqdimotlar yaratish dasturlari;
- tovushli ma'lumotlarni qayta ishlovchi dasturlar paketi va boshqalar.

Uskunaviy dasturiy vositalardan dasturiy ta'minot yaratish jarayonining barcha bosqichlarida foydalanish mumkin.

Amaliy dasturlar

Amaliy dasturlar pog'onasida foydalanuvchi ehtiyojlarini yondiradigan va unga xizmat yiluvchi amaliy jihatdan muayyan masalani yechish dasturlari joylashadi. Ular yordamida matnlar yaratilishi, tahrirlanishi, chizmalar va tasvirlar yaratilishi va ularga ishlov berish, musiyiy tovushlarni yayta ishlash, insonlarni muloyotga chorlash va shu kabi ko'pgina masalalar yeiladi. Amaliy dasturlar kezi kelganda quyi pog'ona dasturlaridan foydalangan holda yurilmalarga murojaat yiladilar.

Amaliy dastur - berilgan muammoli sohaning muayyan masalasini yechish imkonini beruvchi ixtiyoriy muayyan dasturdir.

Masalan, qandaydir firmaning moliyaviy faoliyatni kompyuter yordamida nazorat qilish masalasini yechish uchun to'lov qaydnomalarini tayyorlash dasturi amaliy dastur bo'ladi. Amaliy

dasturlar umumiy xarakterga ega bo'lishi ham mumkin. Masalan, hujjatlarni yaratish va chop etishga yo'naltirilgan dasturlar.

Amaliy dasturlar yoki avtonom yoki boshqa dasturlar, paketlar bilan birgalikda ishlatilishi mumkin.

Amaliy dasturlar paketi

Amaliy dasturlar paketi — muayyan muammoli soxada umumiy foydalanish uchun yaratilgan dasturiy majmua bo'lib, undan foydalanish bo'yicha texnik hujjatlar (yo'riqnomalar) bilan to'ldiriladi

Yechiladigan masala turiga yarab amaliy dasturlar paketini quyidagi turlarga ajratish

mumkin:

- ❖ tipik muhandislik, iytisodiy, umum ilmiy masalalarni yechishga mo'ljallangan paketlar;
- ❖ tizimli dasturlar paketi;
- ❖ avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari va ilmiy tadqiqotlarni avtomatlashtiruvchi tizimlar uchun yaratilgan paketlar;
- ❖ pedagogik dasturlar paketi va boshqalar.

Foydalanuvchi muayyan masalani amaliy dasturlar paketidan foydalangan holda yechishi uchun paket o'sha masalaga xos parametrlarni sozlash imkoniga ega bo'lishi kerak (qo'shimcha ma'lumotlar kiritish).

Har bir paket ma'lumotlarni yayta ishlash metodlari va ularni tasvirlash shakllariga, to'liq diagnostika qilish imkoniga ega bo'lishi kerak

Amaliy dasturlar paketi foydalanuvchining dasturlash bo'yicha kasbiy mahorati saviyasiga bo'lgan talablarni kamaytirishni ta'minlaydi, ya'ni dasturchisiz o'z masalasini yechish imkonini yaratadi.

Ko'pincha amaliy dasturlar paketida ma'lumotlar bazasi ham qo'llab-quvvatlanadi. Bunday baza hisoblashlar uchun kerakli bo'lgan koeffitsiyentlar, boshlang'ich parametrlarni saylab, ularni amaliy dasturga uzatadi.

Dasturiy qobiqlar

Ko'pgina operatsion tizimlar uchun buyruqlarni aniq va xatosiz kiritish, ba'zi qo'shimcha ma'lumotlarni ham buyruq bilan birga kiritilishi talab etiladi. Biroq foydalanuvchilar uchun har bir buyruq sintaksisi va semantikasini tushunib, eslab qolish mushkul. Shuning uchun operatsion tizim asosida ishlaydigan, foydalanuvchilarga qulay

bo'lgan muloqot qilish dasturlari yaratilgan. Bunday dasturlar dasturiy qobiq deyiladi. Bugungi kunda **NORTON COMMANDER**, **VOLKOV COMMANDER**, **WINDOWS COMMANDER** dasturiy qobiqlarini ko'plab foydalanuvchilar ishlatib kelmoqdalar.

1990 yilda Piter Norton tomonidan ishlab chiqilgan NORTON COMMANDER dasturiy qobig'idan so'ng operatsion tizimlar bilan ishlash osonlashtirildi. Foydalanuvchilar dasturiy qobiq bo'yicha har bir buyruq uchun birlashtirilgan funksional klavishalar vazifalarini bilsalar, operatsion tizim buyruqlari bo'yicha bajariladigan vazifalarini oson boshqarishlari mumkin.

Translator, kompilyator i interpretator

Translyator (inglizcha **translator** — tarjimon) — tarjimon dastur. U yuqori darajadagi dasturlash tillaridan birida yozilgan dasturni mashina tiliga tarjima qiladi.

Translyatorlar kompilyatorlar va interpretatorlar ko'rinishida ishlab chiqiladilar. Ishlash nuqtai-nazaridan kompilyatorlar va interpretatorlar bir-birlaridan jiddiy farq qiladilar

Kompilyator (inglizcha. **compiler** — tuzuvchi, yig'uvchi) yuqori darajadagi tilda yozilgan dastur matnini to'liq o'qib, uni mashina tiliga tarjima qiladi. Tarjima qilingan mashina tilidagi dastur keyin kompyuter tomonidan bajariladi. Agar yuqori darajali tilda yozilgan dastur matnida xatoliklar bo'lsa, kompilyator bu haqda foydalanuvchiga tegishli ma'lumotlar beradi, mashina tilidagi dastur bajarilmaydi.

Interpretator (inglizcha **interpreter** — talqin qiluvchi, ogzaki tarjimon) yuqori darajali dasturlash tilida yozilgan dasturdagi har bir satrni alohida tahlil qilib, uni bajaradi. Agar satrda xatolik bo'lsa, bu haqda ogohlantiruvchi ma'lumot berilib, satr bajarilishi to'xtatiladi. Agar xatolik bo'lmasa, u mashina tiliga tarjima qilinib, bajariladi va keyingi satr tahlil qilinadi. Shu tariqa dastur satrlari ketma-ket tahlil qilinib, bajariladi.

Yuqori darajadagi dasturlash tilida tuzilgan dastur kompilyatsiya kilingach, boshlang'ich dastur matni va kompilyatorning o'zi kerak bo'lmaydi. Interpretator esa har gal dastur bajarilishida uning satrlarini ketma-ket tarjima qilishi uchun ishlatiladi.

Kompilyatsiya qilingan dasturlar tezroq ishlaydi, lekin interpretatsiya qilingan dasturni sozlash va o'zgartirish oson.

Har bir muayyan dasturlash tili yoki kompilyatsiya yoki interpretatsiyaga yo'naltirilgan. Masalan, **Paskal** tili murakkab masalalar yechishda tezlik nuqtai-nazaridan ishlatiladi. Shuning uchun ushbu til kompilyator ko'rinishida ishlab chiqilgan.

Boshqa tomondan **Beysik** dasturlash tili boshlvchi dasturchilarga mo'ljallangan bo'lib, ular dastur har bir satri bajarilishini kuzatishlari va tahrirlashlariga imkon yaratadi.

Dasturlash tizimlari

Dasturlash tizimlari — ular muayyan dasturlash tillarida yangi dasturlar yaratish uchun ishlatiladilar. Zamonaviy dasturlash tizimlari foydalanuvchiga o'z dasturini yaratishda qudratli va qulay bo'lgan bir qancha vositalarni taqdim etadilar. Ularga:

- ❖ kompilyator **yoki** interpretator;
- ❖ yaratish uchun integrallashgan muhit;
- ❖ dastur matnini yaratish va tahrilash vositalari;
- ❖ keng ko'lamdagi standard dasturlarning kutubxonalar va funksiyalari;
- ❖ dasturni sozlash va xatoliklarini bartaraf etish uchun ishlatiladigan maxsus dasturlar;
- ❖ foydalanuvchi uchun "do'stona" bo'lgan muloqot muhiti;
- ❖ ko'p oynali rejimda ishlash;
- ❖ grafik tasvirlarning kutubxonalar, ushbu kutubxonalar bilan ishlashni ta'minlovchi xizmatchi dasturlar
- ❖ *assembler* tili;
- ❖ yordam ko'rsatish xizmati;
- ❖ boshqa o'ziga xos imkoniyatlar.

Boshlovchi dasturchilar uchun **Turbo Basic**, **Quick Basic**, **Turbo Pascal**, **Turbo C** dasturlash tizimlari yaratilgan.

Keyingi yillarda **Windows-ilovalar** (Windows muhitida ishlaydigan dasturlar) yaratishga yo'naltirilgan dasturlash tizimlari keng ommalashib bormoqda:

❖ **Borland Delphi** (Delfi) paketi — Borland Pascal turkumidagi dasturlash tizimining davomchisi. Uning tez ishlaydigan kompilyatori amaliy dasturlash masalalarining deyarli barchasini samarali yechish uchun qulay imkoniyatlarga ega.

❖ **Microsoft Visual Basic** paketi — ob'ektga yo'naltirilgan Windows-dasturlarini vizual vositalar yordamida qulay yaratish imkonini beruvchi dasturlash tizimi. Diagrammalar va taqdimotlar

yaratish uchun vizual vositalarga ega.

❖ **Borland C++** paketi —DOS va Windows ilovalarini yaratish borasida eng qulay va ommalashgan dasturlash tizimi.

2. Ta'limda texnikaviy va dasturiy ta'minotai qo'llash.

Ta'limning texnik vositalari. TTV - bu o'zida o'quv- axborotlarini ekranli-ovozli aks ettiruvchi asbob va moslamalardir. Ularga quyidagilar kiradi: o'quv kinofilmlari; diafilmlar; kompyuterlar; magnitofon tasmlari; radioeshittirish; teleko'rsatuvlar.

Ta'limning texnik vositalarini quyidagi turlarga ajratish mumkin: axborot; aralash(kombinatsion); trenajyor; bilimlarni nazorat qilish vositalari; audiovizual vositalar.

Ta'limning texnik vositalari quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- ta'limning sifati va samaradorligini oshiradi;
- o'quv jarayonining jadallashuvini ta'minlaydi;
- o'quvchilarni idrok qilishga yo'naltiradi;
- o'quvchilarda bilimlarni egallashga nisbatan katta qiziqish hosil qiladi;
- dunyoqarashni, ishonchni, o'quvchilarning axloqiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi;
- o'quv ishiga nisbatan o'quvchilarda emotsional munosabatni oshirishni ta'minlaydi;
- bilimlarni nazorat, o'zini-o'zi nazorat qilishni ta'minlaydi.


Ta'limning texnik vositalari - didaktik ta'minlangan barcha texnik qurilmalar, optimalik bilan axborotlarni qayta ishlashga mo'ljallangan va o'quvtarbiya jarayonida foydalanish uchun qo'llaniladi.

Ta'limning texnik vositalari - ikkita tushunchaga ega: texnik qurilmalar (apparat) va o'qitishning didaktik vositalari (axborotlarni ifodalash),

Ingliz tili manbalarida O'TV nomi audiovizual vositalar, ba'zan qattiq (hardware) va yumshoq (software) ifodalanadi.



4.12–rasm. Multimeidiya vositalari



4.13-rasm. Ta'limda texnik vositalarini shartli tasniflanishi

Elektron axborot ta'lim resurslarini yaratishda keng ishlatilib kelinayotgan dasturiy ta'minotlardan biri Ispring dasturi hisoblanadi. Odatda, taqdimotni o'tkazishga tayyorlanish jarayonida aksariyat hollarda Microsoft PowerPoint dasturiy ta'minotidan foydalaniladi. Ammo bunday taqdimotlar faqat mazkur mahsulot formatidagina bo'lishi mumkin (ppt, pptx). Hozirgi vaqtda internet

texnologiyalarining rivojlanishi va o'z navbatida, masofali ta'lim turining paydo bo'lishi natijasida taqdimot fayllarini internet brauzerining o'zida onlayn ravishda to'g'ridan-to'g'ri ko'rish uchun flash (swf) formatida yoki HTML 5 texnologiyasi asosida yaratilgan fayl bo'lishi kerak. Hozirga kelib, PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotdan flash-rolik shakllantirish imkoniyatini beruvchi dasturlar yaratilgan.

Nazorat savollari:

1. Texnikaviy ta'minot nima?
2. Dasturiy ta'minot nima?
3. Shaxsiy kompyuter qurilmalarini tavsiflang.
4. Dasturiy ta'minot turlarini izohlang.
5. Shaxsiy kompyuter asosiy qurilmalariga nimalar kiradi?
6. Dasturiy ta'minot qanday toifalariga bo'linadi?
7. Ta'limda foydalanilayotgan qanday ta'limiy dasturlarni bilasiz?

5-MAVZU. MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI VA VOSITALARI

Reja:

1. **Multimedia tushunchasi.**
2. **Multimediya imkoniyat dasturi.**
3. **Multimediya apparat imkoniyatlari.**

Tayanch iboralar: *Multimedia, multimedia texnologiyalari, vizual effektlar, audio, video, interfaol, ko'pmuhitlik, virtual borliq, multimediya dasturiy vositalari, multimediya apparat vositalari, raqamli texnologiyalar, animatsiya.*

O'quv mashg'ulot maqsadi: *talabalarda multimediya haqida tushunchalarni shakllantirish, multimediya dasturiy va texnik vositalar bilan ishlash malakalarini oshirish.*

1. Multimedia tushunchasi.

O'z amaliyotida o'qituvchilar maxsus darslar uchun maxsus multimedia skriptlaridan foydalanadilar. Bunday stsenariylarga qisqa matn, asosiy formulalar, chizmalar, rasmlar, videolar, animatsiyalarni o'z ichiga olgan multimedia darslarining xulosalari kiradi. Odatda, ushbu stsenariylar Microsoft Office to'plamidan Power Point dasturidan foydalangan holda multimedia taqdimotlari shaklida tayyorlanadi.

Namoyish materiallarining an'anaviy manbalari tijoratda mavjud bo'lgan multimedia diskleri (o'quv kurslari va entsiklopediyalar), Internetdagi materiallar va ichki ishlanmalardir. Multimedia kurslari. Ular orasida, birinchi navbatda, mavzular bo'yicha multimediya kurslarini (Fizikon firmalari, Tutor firmalar 1C, Kiril va Metyus elektron to'plamlari va entsiklopediyalari, Atrofimizdagi dunyo va boshqalar) ta'kidlash kerak.

Axborot manbalari orasida Internetni alohida ta'kidlash kerak, bu erda turli xil jismoniy hodisalarning ko'plab fotosuratlar va video parchalari bepul mavjud.

Bugungi kunda o'qituvchining ishini proektor, raqamli kameralar va videokameralardan foydalanmasdan tasavvur qilish mumkinmi? Har qanday voqea yozib olinadi, qayta ishlanadi va foto va video faylda to'planadi ..

Multimedia (lotincha — ko'p va — vositachi bo'lmoq)-kompyuterning matn, grafik, tovushli va videoma'lumotlar bilan

ishlashga imkon beruvchi qurilmasi. Ana shunday qurilma o'rnatilgan kompyuter **multimedia kompyuter** deyiladi. Hozirda deyarli barcha kompyuterlar multimedia qurilmalar bilan ta'minlangan. Bularga SE-KOM, SE-K\U kompakt diskklarini o'qiydigan disk yurituvchi qurilmalar, tovush platalari, videokartalar va boshqalar kiradi. Keyingi vaqtlarda multimedia qurilmalar standartiga grafik tezlatgichlar va katta hajmli universal **kompakt disklar** ham qo'shildi.

Multimedaning texnik va dasturiy vositalari. Multimedia vositalari- bu apparat va dasturlar to'plami bo'lib, u insonga o'zi uchun tabiiy bo'lgan turli-tuman muhitlarni: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalarni ishlatgan holda kompyuter bilan muloqot qilish imkonini beradi.

Multimediy vositalari (multimedia – ko'pvositalilik) - bu insonga o'zi uchun tabiiy muxit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqatda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir.

Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyi-dagilar kiradi:

- axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutk, musika, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar) turlarini bir dasturiy maxsulotda integratsiyalaydi. Bunday integratsiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli kurilmalari: mikrofon, audio-tizimlar, optik kompaktdisklar, televizor, videomagnitafon, videokamera, elektron musiqiy asboblardan foydalanilgan holda kompyuter boshqaruvida bajariladi;

- muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lgan matn va grafikadan farqi ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protsessor tez harakatchanligi, ma'lumotlarni o'zlash shinasining o'tkazish qobiliyati, operativ (tezkor) va video-xotira katta sig'imli tashqi xotira (ommaviy xotira), hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki baravar oshirilishi talab etiladi;

- "inson-kompyuter" interaktiv mulokotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur xolat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida xayotimizga kirib keldi. Uning o'zi nima degan savol tug'iladi? Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Bizning fikrimizcha, multimedia - bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya (ob'yektlarining fazodagi xarakati) effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan xoldagi ko'rinishidir.

Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning bu usuli, hozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha tatbiq, qilinmoqda. Xatto, xar bir oila multimedia vositalarisiz xordiq, chiqarmaydigan bo'lib koldi. Multimedia vositalarining 1981 yildagi yalpi oboroti 4 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 1994 yili esa 16 mlrd. AQSh dollarini tashkil kildi. Hozirgi kunda esa sotilayotgan har bir komp'yuterni multimedia vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kompyuterlarning 70-yillarda ta'lim sohasida keng qo'llash yo'lida urinishlar zoye ketganligi, avvalombor, ular unumdorligining nixoyatda pastligi bilan bog'liq edi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumlidir va vaqtdan yo'tish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30 % gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada o'zoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab kolish 75 % ortadi. Bunga biz multimedia vositalari asosida chet tillarini o'rganish jarayenida yana bir bor ishonch xosil qildik.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

- a) berilayotgan materiallarni chuqurroq, va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;
- b) ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyogi yanada ortadi;
- c) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

d) g) olingan bilimlar kishi xotirasida o'zoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

2. Multimedia imkoniyat dasturi

Multimedia vositalarini ta'limda qo'llash quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

ta'limning gumanizatsiyalashuvini ta'minlash;

o'quv jarayonining samaradorligini oshirish;

ta'lim oluvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish (o'zlashtirganlik, bilimga chanqoqlik, mustaqil ta'lim olish, o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini o'zi kamol toptirishga qaratilgan qobiliyatlik, ijodiy qobiliyatlari, olgan bilimlarini amaliyotga qo'llay olishi, o'rganishga bo'lgan qiziqishi, mehnatga bo'lgan munosabati);

ta'lim oluvchining kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- kompyuter vositalari va axborot elektron ta'lim resurslari yordamida har bir shaxsning
- alohida (individual) ta'lim olishi hisobiga ochiq va masofaviy ta'limni individuallashtirish va differensiyalash imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi;
- ta'lim oluvchiga faol bilim oluvchi subyekt sifatida qarash, uning qadr-qimmatini tan olish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- mustaqil o'quv faoliyatini olib borish, bunda ta'lim oluvchi mustaqil o'qib va rivojlanib boradi;
- ta'lim oluvchilarda, o'zlarining kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun hozirgi tez o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashuviga yordam beradigan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish.

Multimedia-kompyuterning axborotlarini rangli grafika, matn va grafikada effektlar, ovozlarning chiqishi va sintezlashgan musiqalar, animasiya, shuningdek, to'laqonli video-kliplar, hatto videofilmlar kabi turli xil ko'rinishlari bilan ishlash imkoniyati.

Multimediyali kitoblar – bitta axborot tashuvchi vositasiga jamlangan (masalan, CD –ROM diskga) hamda matnli, ovozli, statik – dinamik va videotasvirli ma'lumotlardan tashkil topgan kitoblar.

Yarimmediya kitoblar – multimedia kitoblardan farqli ravishda, ma'lumotlarni yetkazib berishda turli vositalarning (CD – ROM, magnit disk, qog'oz va h.k.) majmuasidan foydalanuvchi nkitoblardir.

Media komponentlari Multimedia nima? Ko'p - ko'p, ommaviy axborot vositalari - o'rta. Bu inson uchun tabiiy bo'lgan turli xil aloqa kanallari: matn, grafika, animatsiya (video), audio ma'lumotlardan foydalanadigan inson-mashina interfeysi. Shuningdek, turli xil hissiyotlarga murojaat qiladigan ko'proq ixtisoslashgan virtual kanallar. Keling, multimediyaning asosiy tarkibiy qismlarini batafsil ko'rib chiqamiz.

1. Matn - Imo-ishora yoki og'zaki ma'lumotni ifodalaydi. Matn belgilari harflar, matematik, mantiqiy va boshqa belgilar bo'lishi mumkin. Matn nafaqat adabiy bo'lishi mumkin, balki matn bu kompyuter dasturi, musiqiy nota va boshqalar. Har holda, bu ba'zi bir tillarda yozilgan belgilar ketma-ketligi. Matn so'zlari ularning ma'nosiga hech qanday o'xshashligi yo'q. Ya'ni, ular mavhum fikrlashga qaratilgan bo'lib, biz ularni boshimizga ma'lum narsalar va hodisalarga qaytaramiz. Bundan tashqari, matn har doim aniqlik va aniqlikka ega, u aloqa vositasi sifatida ishonchli. Matnsiz ma'lumot aniq, aniq bo'lmagan bo'lishni to'xtatadi. Shunday qilib, matn shakl jihatidan mavhum, ammo mazmunan konkretidir. Ilmiy maqola, reklama, gazeta yoki jurnal, global Internetdagi veb-sahifa, kompyuter dasturi interfeysi va boshqa ko'p narsalar matnli ma'lumotlarga asoslangan. Belgilangan har qanday ma'lumot mahsulotidan matnni olib tashlash orqali biz ushbu mahsulotni yo'q qilamiz. Reklamada ham risolalar, davriy nashrlar, kitoblar haqida gapirmasa ham, asosiysi bu matn. Ko'p sonli bosma materiallarning asosiy maqsadi ma'lum ma'lumotlarni odamga matn shaklida etkazishdir. Matn nafaqat ingl. Nutq ham matn, tovushlar sifatida kodlangan tushunchalardir. Va bu matn yozilganidan ancha eski. Inson yozishdan oldin gapirishni o'rgangan.

2. Vizual yoki grafik ma'lumotlar - Bu ko'rinadigan, statik va matnga kodlanmagan ma'lumotlarning qolgan qismi. Aloqa vositasi sifatida tasvir yanada noaniq va noaniq, u matnning konkretligiga ega

emas. Ammo bu boshqa afzalliklarga ega. a) juda ko'p ma'lumot. Faol ko'rish bilan, adresat bir vaqtning o'zida turli ma'no, ma'no va nuanslarni qabul qiladi. Masalan, fotosuratda odamlarning yuz ifodalari, pozadan tortib atrofdagi muhit va boshqalar ko'p narsani aytib berishi mumkin. Va har bir kishi bir xil tasvirni turli yo'llar bilan qabul qilishi mumkin. b) idrok etish qulayligi. Matnni o'qishdan ko'ra, illyustratsiyani ko'rish uchun juda kam harakat talab etiladi. Istalgan hissiy ta'sirga ancha osonroq erishish mumkin. Grafika ikki turga bo'linishi mumkin: fotosurat va rasm. Haqiqiy dunyoni fotografik jihatdan to'g'ri namoyish etish materialga haqiqiylik va reallikni beradi va bu uning qiymati. Chizish allaqachon inson ongida voqelikning ramzlar ko'rinishidagi sinishi: egri chiziqlar, shakllar, ularning ranglari, kompozitsiyalari va boshqalar. Rasm ikkita funktsiyaga ega bo'lishi mumkin: a) ma'lumotni vizual ravishda aniqlashtirish va qo'shimcha qilish: rasm, diagramma shaklida yoki kitobdagi illyustratsiya shaklida - maqsad bir xil; b) nashrning ma'lum uslubi, estetik ko'rinishini yaratish.

3. Animatsiya yoki video, ya'ni harakat - Kompyuter animatsiyasi ko'pincha ikkita masalani echishda ishlatiladi.

a) e'tiborni jalb qilish. Har qanday harakatlanuvchi narsa darhol tomoshabin e'tiborini tortadi. Bu instinktiv xususiyatdir, chunki harakatlanuvchi narsa xavfli bo'lishi mumkin. Shuning uchun animatsiya e'tiborni eng muhim narsaga jalb qilishning omili sifatida muhimdir. Shu bilan birga, e'tiborni jalb qilishning oddiy vositalari etarli. Shunday qilib, Internetdagi bannerlar uchun odatda elementar, davriy takrorlanadigan harakatlar qo'llaniladi. Murakkab animatsiyalar hatto kontrendikedir, chunki veb-saytlar ko'pincha grafikalar bilan ortiqcha yuklanadi. Va bu mehmonni bezovta qiladi va charchatadi.

b) Turli xil axborot materiallarini yaratish: videofilmlar, prezentatsiyalar va boshqalar. Bu erda bir xillik mos emas. Tomoshabinning diqqatini boshqarish kerak. Va buning uchun soddalashtirilgan shaklda bo'lsa ham, ssenariy, syujet, drama kabi narsalar kerak. Harakatning o'z vaqtida rivojlanishi o'z bosqichlariga va o'z qonunlariga ega (ular quyida muhokama qilinadi).

4. Ovoz - Ovozli ma'lumot boshqa sezgi organiga - ko'rish uchun emas, balki eshitish uchun yo'naltirilgan. Tabiiyki, uning o'ziga xos xususiyatlari, dizayni va texnik xususiyatlari mavjud. Axborotni idrok etishda siz juda ko'p o'xshashliklarni sezishingiz mumkin. Yozuvning

analogi nutqdir, tasviriy san'atni ma'lum darajada musiqa bilan taqqoslash mumkin, tabiiy, ishlov berilmagan tovushlar ham qo'llaniladi. Asosiy farq shundaki, statik tovush mavjud emas. Ovoz har doim atrof-muhitning ma'lum bir chastota, amplituda, tembr xususiyatlariga ega bo'lgan dinamik tebranishlari. Inson qulog'i tovush tebranishlarining harmonik spektriga, tonlarning dissonansiyasiga juda sezgir. Shuning uchun yuqori sifatli raqamli kompyuter tovushini olish hali ham texnik jihatdan qiyin vazifa. Va ko'plab mutaxassislar analog tovushni raqamli tovush bilan taqqoslaganda ko'proq "jonli", deb hisoblashadi.

5. Virtual kanallar - bu boshqa hislarga murojaat qiladi. Shunday qilib, uyali telefonda tebranish signallari ko'rish va eshitish emas, balki teginish tuyg'usiga murojaat qiladi. Va bu ekzotik emas, balki keng tarqalgan axborot kanali. Kimdir abonent bilan gaplashmoqchi bo'lganligi. Taktil (taktil) sezgilar boshqa maqsadlarda ham qo'llaniladi: turli xil simulyatorlar, kompyuter o'yinlari va jarrohlr uchun maxsus qo'lqoplar va boshqalar mavjud. Yaqinda paydo bo'lgan 4D-kinoteatrlarda tomoshabinning filmdagi ishtiroki samarasi ilgari ishlatilmagan turli xil vositalar yordamida amalga oshiriladi: harakatlanuvchi stullar, yuzga chayqalishlar, shamolning shamollari, hidlar. Hatto asab hujayralari, inson miyasi bevosita ishtirok etadigan aloqa va boshqarish kanallari mavjud. Ular nogironlar, nogironlar uchun mo'ljallangan. Mashg'ulotdan so'ng, odam fikr kuchi bilan ekrandagi nuqta harakatini boshqarishga qodir. Va (eng muhimi) aqliy ravishda maxsus nogironlar aravachasini o'rnatadigan buyruqlar bering.

Shunday qilib, virtual haqiqat asta-sekin badiiy adabiyotdan kundalik hayotning bir qismiga aylanib bormoqda. Multimedia bu ovozli va vizual effektlarni yaratishni ta'minlaydigan, shuningdek, ularning yaratilishini ta'minlaydigan dastur davomida odamning ta'sirini ta'minlaydigan apparat va dasturiy ta'minot to'plamidir.

Bugungi kunda multimedia axborot texnologiyalari sohasida juda tez rivojlanmoqda. Kompyuterlarning har xil turdagi ommaviy axborot vositalarini qayta ishlash qobiliyati ularni keng ko'lamdagi dasturlarga moslashtiradi va eng muhimi, tobora ko'proq odamlar nafaqat turli multimedia loyihalarini ko'rish, balki ularni o'zlari yaratish imkoniyatiga ham ega bo'lmoqdalar.

3. Multimediya apparat imkoniyatlari.

O'quv jarayonida multimedia manbalaridan foydalanishning afzalliklari:

1. Taqdimot:

Mavzuni e'lon qilishda, fotosuratlarini ko'rishda ko'rish;

Abstraktlarni qo'llab-quvvatlashda talabalarning mustaqil topshiriqlarini tezda tekshirish: formulalar, sxemalar, xulosalar;

Muammoni hal qilish va natijani ko'rish;

Matnlardagi tipografik xatolar, nutqda uchraydigan rad etishlar, fotosuratlardagi jismoniy nuqsonlar va boshqalarni jamoaviy muhokama qilish, bu signal buzilishlarini tasodifiy ta'sirlar orqali muhokama qilish yoki ular axborot nazariyasida, shovqin yoki shovqinlarda ham aytilganidek, talabalarni yaratishga imkon beradi. tanqidiy fikrlash.

2. Videoklip:

Ushbu tajribani darsda tayyorlash va o'tkazish uchun o'qituvchining vaqtini tejaydi.

3. Animatsiya:

Haqiqiy tajribani o'tkazish imkonsizdir va animatsiya ko'rib chiqilayotgan ob'ektlar aslida qanday harakat qilishini ko'rsatadi.

Kompyuterda sinov:

Bu talabalarning oldingi va berilgan darslarda olgan bilimlarini tezda tekshirishga imkon beradi;

Bu o'qituvchiga materialning assimilyatsiya darajasini va sifat muammolarini hal qilish uchun olingan bilimlarni tekshirish qobiliyatini ko'rishga imkon beradi;

5. Kompyuterni simulyatsiya qilish murakkab tizimlarni o'rganish uchun samarali usullardan biridir.

O'quv jarayonida AKTdan foydalanish o'quv va o'z-o'zini o'qitish samaradorligi va intensivligini oshirishning oqilona usuli hisoblanadi. AKT sizga axborot jarayonlarini avtomatlashtirishga imkon beradi: uzoq muddatli va ixcham saqlash, tezkor qidiruv, tezkor ishlov berish, yangi mahsulot ishlab chiqarish, har qanday masofada uzatish va zarur bo'lganda multimedia (matn, jadval, grafik, animatsiya, audio va video).

Multimediya texnologiyalaridan foydalanish ta'limga yanada samarali yondashuvlardan foydalanishga olib keladi va eng samarali ta'lim vositasi hisoblanadi. Yana bir afzalligi talabalarga hissiy ta'sir

ko'rsatadi. Ayniqsa, agar videolar kiritilgan bo'lsa va slaydlar uchun ovozli hamrohlik bo'lsa, bu talabalar ko'rgan va eshitgan narsalariga shaxsiy munosabatni shakllantirishga imkon beradi.



5.1-Rasm. Multimedianting apparat-dasturiy vositalari

Multimedia vositalari – bu foydalanuvchi ovoz, video, tasvir, matn, animatsiya yordamida muloqotda bo‘ladigan apparat va dasturiy vositalarning yig‘indisi. Multimedia qurilmalari - bu multimediali ma’lumotlarni qayta ishlash, ya’ni matn, ovoz, tasvir va videoaxborotlar bilan ishlaydigan apparat vositalari bo‘lib ularga quyidagilar kiradi:

- Ma’lumotni yozib olish qurilmalari;
- Ma’lumotni chiqarish qurilmasi;
- Manipulyatorlar; “Virtual borliq” qurilmalari;
- Axborot tashuvchi qurilmalari;
- Tasvirlarni qayta ishlash qurilmalari.
- Manipulyatorlar;
- “Virtual borliq” qurilmalari;
- Axborot tashuvchi qurilmalari;
- Tasvirlarni qayta ishlash qurilmalari.





5.2-Rasm Multimedianing apparat vositalari.

Multimedia elementlari dasturiy vositalar yordamida birlashtiriladi. Bu dasturiy vositalar multimedia elementlarining aloxida kurinishi uchun amalga oshiriladi.

**Tasvirlarni yaratuvchi va ular bilan ishlovchi vositalar
raqamli fotoapparat**



Skanerlar



5.3-Rasm. qo‘l skaneri(a), barabanli skaner(b), planshetli skaner(v), rulonli skaner(g), proyeksion skaner(d), lazerli skaner(e), 3D skanerlar(j)



5.4-Rasm. Digitayzerlar

Tasvirlarni ko‘rish va ular bilan ishlash uchun mo‘ljallangan dasturiy vositalarga Adobe Photoshop, Corel Photo-Paint, Paint Shop Pro, Microsoft Picture It!, Visualizer Photo Studio, Pixel image editor, PixBuilder Photo Editor, Fo2Pix ArtMaster lar kiradi.

Ovoz yozish va ovoz tahrirlash vositalari

Ovozli fayllarni kompakt diskka yozish, multimedia taqdimotlarini tayyorlash, videokonferensiyalarni o‘tkazish, o‘yinlar o‘ynash, audio CD larni eshitish uchun ovoz platasi yoki audioadapter (audio – bu «ovoz», adapter esa manbadagi ma’lumotni kompyuterga o‘tkazuvchi texnik qurilma) deb nomlanuvchi karta zarur bo‘ladi. Ushbu tovushni qayta ishlovchi tovush platasi, tovush chiqarish vositasi, akustik tizimlar yoki yakka tinglagichlar hamda audio

ma'lumotlarni kiritish uchun xizmat qiladigan mikrofon, ovozli kompakt-disk proigratellari, ovoz kolonkaları va b. qurilmalarga ulanadi. Tovush platasiga, shuningdek, magnitofon, elektr musiqa asboblari kabi audiokomplektlar ham ulanishi mumkin.



5.5-Rasm. Audio adapter va uning bosh plataga ulanishi

Video yozish va video tahrirlash vositalari

Video bilan to'laqonli ishlash uchun videoma'lumotni komp'yuterga mos shaklga va asliga qaytaruvchi moslama – videokarta zarur. Unga videokamera, videomagnitofon va televizor kabi moslamalar ulanishi mumkin.

Aksariat hollarda videoelementlarni monitorda ifodalay olish yetarli bo'ladi. Shunday masalani hal etish uchun har qanday zamonaviy komp'yuterda mavjud bo'lgan videoadapter va monitor yetarlidir.



5.6-Rasm. Video adapter va uning bosh plataga ulanishi

Ma'lumot tashuvchilar

CD-R (Compact Disc-Recordable – yoziluvchi kompakt disk), **CD-RW (Compact DiskRewritable**- 1000 martagacha qayta yozish mumkin bo'lgan disk) - lazerli (kompakt) diskga 650 Mbayt (700 Mbayt) hajmdagi ma'lumotni yozish mumkin.



DVD (Digital Versatile Disk) disklar bir yoki ikki taraflama ma'lumot yozish imkoniyatini beradigan tarzda tayyorlanadi. Taraflari soniga qarab DVDlar DVD-5, DVD-9, DVD-10, DVD-14, DVD-18 turlarga bo'linadi va mos ravishda 5, 9, 10, 14, 18 Gb ma'lumotni saqlaydi.



HD DVD (yuqori aniqlikdagi raqamli universal disk) – DVD diskarga nisbatan yuqori aniqlik va hajmga ega. HD DVD disklar DVD diskarga qaraganda 5 marotiba ko'proq axborotni saqlaydi. HD DVD diskardagi axborotlar bir qatlamli diskda 15 Gb, ikki qatlamli diskda 30 Gb ni tashkil qiladi.



Blu-ray Disc, BD (ingl. blue ray — xavo rang nur va disc — disk;) — optik disk tashuvchi formati bo‘lib, raqamli axborotlarni hamda yuqori aniqlikdagi videomateriallarni katta zichlikda yozish imkonini beradi. Blu-ray Disc dagi axborotlarni o‘qishda qisqa to‘lqinli lazer (405 nm) dan foydalaniladi. Ushbu disklardagi axborot hajmi bir qatlamli diskda 25 Gb, ikki qatlamli diskda 50 Gb ni tashkil qiladi.



Manipulyatorlar

Kompyuterni boshqarish uchun sodda, qulay va ommabop bo‘lgan qurilmalardan biri bu manipulyator (sichqoncha) hisoblanadi.



5.6-Rasm. a) sichqoncha, b) oyoq manipulyatori, v) sharikli manipulyator (trekbol), g) djoystik

“Virtual borliq” vositalari

Virtual borliqqa kirishning eng oddiy yo‘li bu kompyuter ekrani hisoblanadi va bu borliqda sichqoncha, klaviatura, djoystik yordamida ishlash mumkin.

Bulardan tashqari virtual borliqni yaxshiroq his etish uchun boshqa qurilmalarni ham ishlatish mumkin. Ular: **Turli oynali ko‘zoynak** - bu qurilma tasvirni ul o‘lchamda (hajmli) ko‘rishga yordam beradi.



Bir muncha murakkabroq ishlaydigan ko‘zoynak ham mavjud bo‘lib, uning ishlash prinsipi quyidagicha: ekran orqali ko‘zoynakning bitta ko‘ziga tasvir yuboriladi, ikkinchisi esa qorong‘u bo‘lib turadi. So‘ngra tasvir keyingi ko‘zga o‘tadi, shu tarzda tasvir ketma-ket ko‘rsatiladi va ko‘zoynak ekranida uch o‘lchamli tasvir illyuziyasi hosil bo‘ladi.

Virtual borliq shlemi (Head Mounted Display) – o‘ylab topilgan virtual borliqni to‘liq his etish uchun mo‘ljallangan qurilma. Tasvir hajmini ko‘rsatish uchun shlem ichida ikkita uncha katta bo‘lmagan ekran joylashgan bo‘lib, tasvir ham ikkiga bo‘linadi va ikkala ko‘z uchun alohida tasvir yaratiladi. Ushbu shlem 360 gradus sohadagi barcha tasvirlarni vizual ko‘rish imkonini beradi, hattoki bosh burilgan vaqtda mos ravishda tasvir joylashuvi ham o‘zgaradi.



5.7-Rasm. Virtual borliq shlemi

Axborotli qo‘lqop – virtuallikni oshirish maqsadida ishlatiluvchi qo‘lqop bo‘lib, u yordamida virtual borliqdagi predmetlarni ushlash, surish va harakatga keltirish mumkin.



VR-kostyum - virtual borliqning eng to‘liq to‘plamli qurilmasi hisoblanadi. Tananing barcha nuqtalaridagi harakatni kuzatib boruvchi ko‘pgina magnitli sensorlardan iborat kombinzon.



Multimedia tizimining **dasturiy** muhitini ham ikkiga bo‘lish mumkin: amaliy va ixtisoslashtirilgan. *Amaliy dasturlar* foydalanilayotgan yoki loyihalashtirilgan amaliy dasturlar. *Ixtisoslashtirilgan dasturlarga* multimedia ilovalarini yaratuvchi dasturiy vositalar kiradi. Bu toifadagi dasturlarga grafik muharrir,

videotasvir muharriri, tovushli axborotni xosil qilish va muharrirlash vositalari kiradi.

2. Ta'lim jarayonida mul'timedia texnologiyalaridan foydalanish.

Jahon miqyosida nazar soladigan bo'lsak kompyuter grafikasi va dizayn juda ham keng darajada rivojlangan. Ularni amalda anchadan buyon qo'llab kelishmoqda. Lekin bu yaratilayotgan barcha dasturlar, roliklar, dizaynlarning asosiy qismi kinofilmlar, multafilmlar, web-saytlar uchun yaratilmoqda. Maxsus saytlarda fanlarga mavzulashtirilgan multimediali darsliklarning kamligi, borlarini ham aniq bir fanni mavzularini to'la yoritib bera olmasligi ta'lim sohasiga yanada ko'proq e'tibor berish lozimligini e'tirof etadi.

Lekin elektron darsliklar ichiga kiritilgan matnli yozuvlar, rasmlardan hozirda grafikaning eng zamonaviy yo'nalishi bo'lgan roliklarning yaratilishi saytlarga va shunga tegishli bo'lgan narsalarga qiziqishni oshiradi. To'g'ri bu sohada ko'p ishlar amalga oshirilgan. Darslarning multimedia imkoniyatlaridan foydalantib o'tilishi o'qituvchilarga bir qancha qulayliklar tug'diradi. Chunki, shu fanga mavzulashtirilgan ovozli dasturlar, rasmi ishlanmalar, harakatli yozuvlar (prezentatsiyalar), multiplikatsiya ko'rinishida yaratilgan filmlar, animatsiyalar bir tomondan o'qituvchi uchun yangilik bo'lsa, ikkinchi tomondan ta'lim oluvchilar uchun qiziqarli va diqqatini o'ziga jalb qiladi. Va mavzuni yaxshi o'zlashtirilishiga turtki bo'ladi.

Multimedia texnologiyalarining afzalliklari va alohida xususiyatlarini sanab o'tamiz:

- turli xil ko'rinishdagi katta hajmdagi axborotlarni bitta diskda saqlash imkoniyati mavjud (bir necha bobli matnlarni, minglab yuqori sifatli tasvirlarni bir necha soatli film va roliklarni hamda tovushli axborotlarni);

- sifati saqlangan holda ekranda tasvirlarni qismlarga ajratish yoki ularni eng qiziq hamda kerakli qismlarini kattalatish imkoni mavjud;

- grafiklar, tasvir va rasmlarni qiyosiy taxlil qilish, ularning ko'rsatgichlarini xisoblash, ilmiy yoki o'rganish maqsadida dasturiy vositalar yordamida ishlov berish imkoniyati;

- tasvir yoki tasvirni yoritish maqsadida foydalanilgan matn hamda boshqa ko'rsatilayotgan axborotdan kalit so'zlarni yoki tasvirni

kerakli qismini ma'lumot olish hamda tushuntirishga kerakli axborotni ajratib olish imkoniyatlari mavjud;

- statik yoki dinamik tasvirga monand uzluksiz musiqa hamda boshqa audio ta'minotini olib borish;

- «stop-kadr» (kadrni to'xtatish) ish tartibidan foydalanib videoyozuv lavxasidan foydalanish imkoniyati;

- global Internet tarmog'iga hamda ulanish uning resurslaridan va foydalanuvchilaridan foydalanish maqsadida imkoniyati mavjud;

- grafik va tovush redaktorlari, kartografik axborot va matnlarga ishlov bera oladigan shaxsiy amaliy dasturlar bilan ishlash mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan afzallik va xususiyatlardan tashqari yana ko'pgina imkoniyatlari mavjuddir, jumladan, tasvirni yaxlit yoki bir qismini avtomatik ravishda ko'rish, tanlangan joyini saqlab qolish va belgilab qo'yish.

Multimedia tizimlarini paydo bo'lishi axborot texnologiyalarini rivojlanishiga va ilm-fanda, talimda, savdoda (biznesda) tibbiyotda keng ko'lamda tadbiiq etilishiga turtki bo'ldi.

ATlarining multimedia vositalari o'quv jarayonida quyidagi eng muhim jihatlari bilan alohida ahamiyatga egadir:

- differensial va individual o'qitish jarayonini tashkil qilishi;

- o'qish jarayonini baholash, teskari aloqa bog'lashi;

- o'zini-o'zi nazorat qilish va tuzatib borishi;

- o'rganilayotgan fanlarni namoyish etishi va ularning dinamik jarayonini ko'rsatishi;

- fan mavzularida animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompter va axborot texnologiyalardan foydalanishi;

- o'quvchi – talabalarga fanni o'zlashtirish uchun strategik ko'nikmalar hosil qilishi va hokazo.

Shuningdek, multimedia vositalarining amaliy tomoni, ulardan o'quv jarayonida foydalanish va kelgusida ta'lim tizimida o'quv jarayoni uchun ma'lumotlar bazasini va animatsion taqdimotlar yaratishdek muhim vazifani amalga oshirishga zamin hozirlaydi.

Multimedia - jadal rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi:

- axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar), turlarini bir dasturiy

mahsulotda integratsiyalaydi. Bunday integratsiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari;

- muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protsessor tez harakatchanligi, ma'lumotlarni uzatish shinasining o'tkazish kobilyati operativ va video-xotira, katta sig'imli tashqi xotira, hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki barovar oshirilishi talab etiladi;

- "inson-kompyuter" interaktiv muloqotning yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur holat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi;

- multimedia vositalari asosida o'quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish hozirgi kunning dolzarb masalasidir.

Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning usuli hozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha tadbiq qilinmokka. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumli va vaqtdan yutish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saklash 25- 30% oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'inishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab kolish 75% ortadi.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish kuyidagi afzalliklarga ega:

- berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati borligi;

- ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;

- ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

- olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Multimedia vositalari asosida o‘qitish jarayonida aniq fanni kompyuter asosida to‘liq o‘qitish, ma’ruza matnlarini taxrirlash, talabalar topshirgan nazorat natijalarining taxlili asosida ma’ruza matnlarini bayon qilish uslubini yaxshilash, o‘quvchi-talabalar axborot texnologiyalarini multimedia vositalari asosida animatsiya elementlarini dars jarayonida ko‘rishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Sifatli multimedia ilovalari ishlab chiqishga yo‘naltirilgan turli-tuman, bir biridan farqli texnologik usullar mavjud.

Nazorat savollari

1. Multimedyaning texnik – dasturiy vositalarini aytib bering.
2. Multimediya tushunchasiga izoh bering?
3. Multimediya nima?
4. Video yozish va video tahrirlash vositalarini ishlash prinsipini aytib bering.
5. Ta’lim jarayonida mul’timedia texnologiyalaridan foydalanishni izohlab bering.
6. Multimediya komponentlarini izohlang.
7. Multimedyaning apparat-dasturiy vositalariga nimalar kiradi?

6- MAVZU ELEKTRON POCHTA.

Reja:

1. Elektron pochta tarixi.
2. Elektron pochta texnologiyasi.
3. Elektron pochta kutisini yaratish.

Tayanch iboralar: Elektron mail, Pochta qutisi, “e-mail”, mail.ru, gmail.com, yahoo.com., Internet Explorer dasturi.

O‘quv mashg‘ulot maqsadi: talabalarda Elektron pochta to‘g‘risida shakllantirish df Elektron pochta bilan ishlash ko‘nikmalarini o‘rgatish

1. Elektron pochta tarixi.

Elektron pochta xizmati va uning imkoniyatlari. Internet–xalqaro tarmog‘ining asosini Elektron mail (E-mail) - elektron pochta xizmati tashkil qiladi. Elektron pochta xuddi odatdagi pochta deb bo‘lib, faqat bunda xatni qog‘ozga emas, balki kompyuter klaviaturasidan harf va so‘zlarni terib, ma’lum elektron yozuv ko‘rinishiga keltiriladi.



Elektron pochta maxsus dastur bo‘lib, uning yordamida Internet tarmog‘i orqali dunyoning ixtiyoriy joyidagi elektron manzilga xat, hujjat, ya’ni ixtiyoriy ma’lumotni tezda (bir necha soniya va daqiqalarda) jo‘natish va qabul qilib olish mumkin.

Elektron pochta kamchiligi shundan iboratki, xat jo‘natuvchi va qabul qiluvchining har ikkalasi ham foylanayotgan kompyuter Internet tarmog‘iga ulangan bo‘lishi zarur.



Xabar va pochta qutisi tushunchalari. Xabar, umuman olganda, foydalanuvchi pochta orqali yuborishi kerak bo'lgan ma'lumot hisoblanadi va oldindan boshqa dasturda (masalan Word) tayyorlab, keyin elektron pochta orqali jo'natishi maqsadga muvofiqdir. Pochta serveri o'zining matn terish oynachasiga ham ega bulib, xabarni shu oynada yozish mumkin.

Pochta qutisi – bu foydalanuvchi uchun elektron pochta xizmatini taqdim etuvchi kompyuterda qayd qilingan nomdir. Ushbu nom kompyuter xotirasida papka ko'rinishida shakllantiriladi va u o'zida kiruvchi va chiquvchi xabarlarni vaqtinchalik saqlaydi. Elektron pochta manzillaridagi elektron pochta manzili belgisidan (_____ @ _____) oldin kelgan yozuv pochta qutisi nomini anglatadi.

Xabarlarning turlari. Xabarlar turli ko'rinishda bo'lishi mumkin masalan: matn, grafik, rasm, ovoz va video ma'lumotlar. Yuborilishi rejalashtirilayotgan ma'lumotlarning hajmi bo'yicha ham chegaralanish mavjud. Har bir pochta provayderi o'zining siyosatiga ega bo'lib bitta xabarning 2, 5, 10 Mb hajmgacha bo'lgan xabarlarni yuborishni ta'minlaydi. Agarda bu hajm oshib ketsa katta hajmdagi xabarlarni Rar yoki Zip dasturlari yordamida arxivlab yuborish tavsiya etiladi.

Elektron pochta manzili. Elektron manzil @ belgisi bilan ajratilgan ikki qismdan iborat, ya'ni manzilgoh @ foydalanuvchi nomi. Elektron manzilga misol tarikasida. giu@umail.uz, giu@inbox.uz larni keltirish mumkin, bu elektron manzillar “tuit” nomli ishlatuvchining <http://www.umail.uz>, <http://inbox.uz> pochta serverida joylashgan pochta qutisi hisoblanadi.

1. Elektron pochta texnologiyasi.

Xabarlarni uzatish va qabul qilish. Tashkil qilingan elektron pochta orqali boshqa elektron manzilga xat jo'natish ketma-ketligini ko'rib chiqamiz: dastlab, mail.ru Web sahifasi ishga tushiriladi va ekranda hosil bo'lgan ishchi oynaning *Imya* darchasida foydalanuvchi elektron manzili va *Parol* darchasida paroli kiritiladi va *Voyti* tugmachasi bosiladi. *Komu* darchasiga xat jo'natilishi kerak bo'lgan elektron manzil, *Kopiya* darchasiga, agar shu xat boshqa manzilga ham jo'natilishi kerak bo'lsa, o'sha manzil, *Tema* darchasiga xat mavzusi yoziladi. Xat mazmuni pastki bo'sh oynaga yoziladi va *Otpravit* tugmachasi bosiladi. Agar xat to'g'ri jo'natilgan bo'lsa, u holda ekranda

Uspeshno otpravlen ma'lumoti paydo bo'ladi. Foydalanuvchi elektron manzil orqali kompyuter xotirasidagi ixtiyoriy fayllarni ham jo'natishi mumkin. Buning uchun *Prikrepit* tugmachasi bosiladi. Agar bir nechta faylni jo'natish kerak bo'lsa, qolgan fayllar ham shu tartibda tanlanadi.

Foydalanuvchi elektron pochtaga kelgan xatlarni ko'rishi uchun *Vxodyauyie* buyrug'i tanlanadi. Ekkranda pochtaga kelgan xatlar ro'yxati paydo bo'ladi. Unda xat kimdan, mavzusi, pochtaga qachon kelib tushgan va fayl o'lchami to'g'risida ma'lumot saqlangan. Foydalanuvchi xatni o'qishi uchun, *Tema* bandida sichqonchani chap tugmachasi bosiladi. Ekkranda xat mazmuni paydo bo'ladi. Foydalanuvchi xatni o'qishi va agar zaruriyat bo'lsa *Fayl* □ *Pechat* buyrug'i orqali printerda chop qilishi mumkin. Elektron pochtaga keraksiz xatni o'chirish uchun dastlab u belgilanadi va *Udalit* tugmachasi bosiladi. o'chirilgan fayl *Korzinaga* borib tushadi. Korzinani tozalash *Ochistit* *Korzina* buyrug'i orqali amalga oshiriladi.

Xabarlarni ko'pchilikka yuborish. Ma'lum bir sabablarga ko'ra bir xil mazmundagi xabarlarni bir necha manzil yoki pochta qutisiga yuborish zaruriyati paydo buladi. SHunda, *Komu* darchasiga xat jo'natilishi kerak bo'lgan elektron manzillar “ ; ” (nuqta vergul) belgilari bilan ajratiladi, masalan: (giu@umail.uz; giu@inbox.uz; va boshqa manzillar), *Kopiya* darchasiga, agar shu xat boshqa manzilga ham jo'natilishi kerak bo'lsa, o'sha manzil, *Tema* darchasiga xat mavzusi yoziladi. Ushbu vazifadan biror elon yoki yangilikni ko'pchilikka barobar yuborish uchun foydalaniladi.

Spam tushunchasi, spamlarning turlari va ularga karshi kurashish. «Spam» termini yangi mazmunda jonga teguvchi elektron tarqatmalar yoki pochta chiqindilari degan ma'noni anglatadi. Spamlar 1993-yilda paydo bo'lgan. Kompyuter tarmog'i administratori Richard Depyu yaratgan dasturdagi xato 1993-yil 31-mart kuni konferentsiyalardan biriga ikki yuzta bir xil xat jo'natilishini keltirib chiqardi. Uning norozi suhbatdoshlari jonga teguvchi xabarlarga tezda - «spam» degan nom topdilar. «Kasperskiy Laboratoriyasi» tushunchasiga ko'ra, spam - bu so'ralmagan anonim ommaviy tarqatmalardir.

Spam (foydalanuvchi tomonidan so'ralmagan axborot) jo'natuvchining (spamer) maqsadi va vazifalariga qarab tijorat axborotiga ega bo'lishi yoki unga hech qanday aloqasi bo'lmasligi mumkin. SHunday qilib, mazmuniga qarab, xabarlarning «tijorat»

spami - «unsolicited commercial e-mail» (umumiy qabul qilingan abbreviaturasi - UCE) va «notijorat» - «unsolicited bulk e-mail» (UBE) turlari mavjud.

Anonim: barcha ko‘pincha aynan yashirin yoki qalbakilashtirilgan qayta aloqa manzili ko‘rsatilgan avtomatik tarqatmalardan jabrlanadi.

Ommaviy: ushbu tarqatmalar aynan ommaviy va faqatgina shular spamerlar uchun haqiqiy biznes hamda foydalanuvchilar uchun haqiqiy muammo hisoblanadi.

So‘ralmagan: imzolangan tarqatmalar va konferentsiyalar bizning tushunchamizga kirmasligi kerakligi yaqqol tushunarli. Har bir elektron pochta xizmati o‘zining foydalanuvchilariga spamdan himoyalaniish vositalarini taklif qilishadi. Ya’ni spamga taalluqli bo‘lgan elektron manzillar spam filtriga kiritiladi va ushbu manzillardan kelayotgan spamlar xabarlar vaqtincha saqlanuvchi katalogga avtomatik tarzda joylashtiriladi va 30 kundan keyin o‘chirib tashlanadi.

Filtrlar va qora ruyxat. Filtrlar asosan kelayotgan xatlarni saralash, tartiblash funksiyasini bajaradi. Qora ruyxat esa xat yuboruvchi manzilni maxsus jurnalga kiritib bu manzildan boshqa xat olmaslik maqsadida ishlatiladi.

Milliy elektron pochta xizmatlari. Xozirgi kunda milliy pochta xizmatlari ham ancha rivojlanib bormokda. O‘zbekistondagi har bir Internet provayder o‘zining pochta serveri va xizmatiga ega bo‘lib, asosan o‘zining mijozlariga xizmat ko‘rsatadi, ularning ichidan umail.uz, inbox.uz kabilari ochik hisoblanadi va bu tizimdan hohlovchilar bepul foydalanib xat va xabarlar jo‘natib qabul qilishlari mumkin.

Xalkaro pochta xizmatlari: mail.ru, gmail.com, yahoo.com. Elektron pochta orqali ma’lumot yuborish uchun ikki yo‘nalish mavjud, bulardan biri bepul elektron pochta xizmati deb yuritilib, undan foydalanish uchun Internetda ma’lum bir Web sahifalari mavjuddir. Bular mail.ru, yahoo.com, mail.uz, gmail.com va hokazo. Foydalanuvchi dastlab, pochta manziliga ega bo‘lishi kerak. Pochta manzilini tashkil qilish uchun Internet Explorer brauzerining asosiy oynasiga ushbu Web sahifalaridan biri nomi yoziladi va ishga tushiriladi.

Elektron pochtdan foydalanish va elektron xabarlarni almashish madaniyati. Hayotdagi etika kabi elektron pochtda ham foydalanish etikasi mavjud. Ularning ba'zilariga to'xtalib o'tamiz:

- pochtagizni tez-tez o'qib turing. Ko'pchilik foydalanuvchilar o'z xatlarini faqatgina bo'sh vaqtlaridagina o'qiydilar. Bu korrespondentlarga nisbatan bo'lgan behurmatlikdir. Buning oqibatida siz juda ham muhim bo'lgan axborotni qo'ldan boy berishingiz mumkin. Foydalanuvchi pochtagini har doim, o'z vaqtida o'qib borishi lozim;

– xatda albatta sarlavha (subject) ko'rsatish zarurdir. Bu mijozlarni ortiqcha ishlardan qutqaradi;

– xatingizni oluvchini biling va hurmat qiling;

– xatni xatosiz yozing. Grammatik va orfografik xatolar bilan yozilgan xat jo'natuvchi to'g'risida yaxshi taassurot qoldirmaydi;

– qisqa yozing. Elektron pochtda yozayotgan xatingizni mazmunini qisqa va aniq ko'rsata biling. Xatingizdagi xatolar va fikrdan chiqib ketishlik birinchi o'rinda xatingizni emas, balki sizning o'zingizni xarakterlaydi;

– o'z xatingizni boshqa manzillarga ko'chirishlikdan saqlaning. O'z xatingizni faqatgina shu xat tegishli bo'lgan manzillarga jo'nating. Aks holda, xatlarni ko'p manzillarga jo'natish hamkorlaringizda yaxshi taassurot uyg'otmasligi mumkin;

– kerak bo'lmagan taqdirda o'z xatingizga javob va so'rovlar yo'llamang.

Kerak bo'lmagan taqdirda «iltimos javob bering» yoki «iltimos xatni tasdiqlang» kabi so'rovlarni yo'llamang;

– so'rovlarga to'liq javob bering. So'rovlarga javob berishda qisqa «ha» yoki «yo'q» kabi javob bermang. Bu hol xat oluvchida tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Chat tushunchasi. Internetda chatdan foydalanish va muloqot qilish. Chat deganda real vaqt tizimida Internet tarmog'i orqali xabarlarni tezkor almashish vositalari va ushbu muloqotni ta'minlab beruvchi dasturiy ta'minot tushuniladi. Forumlarga nisbatan chat tizimida muloqot qilish va xabarlar almashish real vaqt tizimida sodir bo'ladi.

Chat - bu bir vaqtning o'zida bir necha foydalanuvchining Internet orqali muloqotidir. Bunda foydalanuvchilar odatda matn yozishish orqali yangiliklar bilan almashishadi yoki biror mavzuni muhokama

qilishadi, yoki gaplashishadi. Chat tizimida barcha foydalanuvchilar o‘zaro yozuv ko‘rinishidagi xabarlarini almashish orqali muloqot qiladi.

Internet orqali so‘zlashuv. Internet orqali o‘zaro muloqot deganda ikki yoki undan ortiq foydalanuvchilarning bir vaqtini o‘zida, bir-birlari bilan internet tarmog‘i orqali aloqa o‘rnatilishi tushuniladi. Bunday muloqot jarayonida foydalanuvchilarning joylashuv o‘rni ahamiyatga ega emas, ya‘ni foydalanuvchilar qaerda bo‘lishlaridan qat‘iy nazar Internet tarmog‘i orqali muloqot o‘rnata oladilar. Bunday so‘zlashuvlarni amalga oshirish uchun maxsus dasturlar bo‘lishi talab qilinadi. Bunday dasturlarga Skayp, Meyl Agent, Google Talk, ICQ dasturlari kiradi.

Internet orqali so‘zlashuv jarayonida mikrofon va eshitish qurilmasini kompyuterga ulab keltirilgan dasturlar yordamida foydalanuvchilar so‘zlashib muloqot qilishlari mumkin. Bunda Internet orqali muloqot jarayoni foynalanuvchiga tezkorligi, arzonligi hamda sifatligi bilan qulayliklar yaratib beradi.

Internet orqali video muloqot. Internet orqali video muloqot deganda foydalanuvchilar bir birlarini kompyuter ekranida (on-layn tarzda) ko‘rib turadilar, ya‘ni foydalanuvchilarning harakatli tasvirlari bir-birlariga uzatiladi. Bu video aloqani amalga oshirib beruvchi qurilma veb kamera deb nomlanadi. Internet orqali video muloqot jarayonida muloqotda qatnashayotgan barcha foydalanuvchilar bir birining gapini eshitibgina qolmay, balki bir-birlarini ko‘rib ham turishadi.

Veb kamera va uning ahamiyati. Veb kamera alohida qurilma bo‘lib, u kompyuter vositasiga ulanadi va Internet tarmog‘i orqali muloqotlarda ishlatiladi.

2. Elektron pochta kutisini yaratish.

Elektron pochta tizimlari Elektron pochta orqali ma‘lumotlar uzatish va qabul qilish

Internet elektron pochta xizmatini ko‘rsatadi. Elektron pochta nima? Elektron pochta maxsus programma bo‘lib, uning yordamida siz dunyoning ixtiyoriy joyidagi elektron adresga xat, hujjat va umuman ixtiyoriy faylni jo‘natishingiz hamda qabul qilib olishingiz mumkin. Eng asosiysi, xat bir zumda manzilga etib boradi. Lekin undan foydalanish uchun siz maxsus pochta tarmog‘i yoki Internet tarmog‘iga bog‘langan bo‘lishingiz va elektron adresatga ega bo‘lishingiz kerak.

Internetda bepul elektron pochta xizmatlari mavjud. Ular yordamida o‘zingizga elektron adres ochishingiz mumkin.

Bu www.hotmail.com, www.yahoo.com, www.mail.ru, www.yandex.ru va hokazolar. O‘zbekistonda www.esizam.com. Bu sahifalarga kirib anketa savollariga javob berib, o‘zingizga elektron adres ochishingiz mumkin.

Elektron adres, odatda, “e-mail” deb ko‘rsatiladi. Elektron pochta yuborganda siz xuddi xatni yuborayotganday uning kimga, qayerga va kimdanligini yozishingiz shart.

Misol tariqasida quyidagi elektron adres tahlilini keltiramiz:

- ictber@uzpak.uz
- Ictber – adres egasi, ismi, tashkilot nomi.
- Uzpak – Internet provayder nomi.
- Uz – davlat.
- @ - elektron adresni belgilovchi maxsus belgi.

Elektron adres yozganda uni to‘liq yozishga harakat qiling. Adres egasi, tashkilot nomi ko‘rsatilishi maqsadga muvofiqdir.

Yangi elektron pochta ochish

Yangi elektron pochta ochish uchun avvalo Internet Explorer dasturi (yoki ixtiyoriy brouzer)ni ishga tushiring.


1. Brauzeringizda <http://www.mail.ru> veb sahifasiga o‘ting.



6.1-Rasm. Brauzerda pochta manzilini kiritish

Dastur ishga tushgandan so‘ng uning manzil qaroriga qaysi saytda EP ochmoqchi bo‘lsangiz sayt nomini kiriting. Masalan <http://www.mail.ru/> va “Enter” tugmachasini bosning. Natijada quyidagi ko‘rinish hosil bo‘ladi.

2. Pochta qutisi ochish uchun oynaning chap tarafida joylashgan «Регистрация в почте» (Pochtada ro‘yxatdan o‘tish) tugmasini bosamiz.



6.2-Rasm. Brauzerda pochta xizmati ko‘rinishi

3. «Регистрация нового почтового ящика» (Yangi pochta qutisini ochish) sahifasi ochiladi. Bu sahifada yangi ochilayotgan qutining egasi haqidagi ma’lumotlar kiritiladi.

Mail.Ru Почта Мой Мир Одноклассники Игры Знакомства Новости Поиск Все проекты ▾

@mail.ru

Регистрация нового почтового ящика

Вы сможете пользоваться бесплатной электронной почтой и другими прод найти друзей и общаться без ограничений как на компьютере, так и на моф

Имя Пожалуйста, укаж

Фамилия

День рождения

Город не обязательно

Пол Мужской Женский

Почтовый ящик @bk.ru ▾

Пароль

Повторите пароль

Если Вы забудете пароль

С помощью мобильного телефона Вы сможете восстановить пароль. Укажите номер и в течение минуты Вам придет сообщение с кодом подтве

Мобильный телефон

[У меня нет мобильного телефона](#)

Зарегистрироваться

Нажимая кнопку «Зарегистрироваться», Вы принимаете условия [Пользовательской](#)

6.3-Rasm. Elektron pochta da ro‘yxatdan o‘tish sohasi.

Bunda quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

Имя – Ismingiz

Фамилия – Familiyangiz

День рождения – tug‘ilgan kun, oy va yilingiz

Город – siz yashaydigan shahar (to‘ldirish shart emas). Shahar nomining dastlabki harflarini kiritishingiz bilan mayl.ru xizmati bazasiga kiritilgan shaharni va davlatlarning to‘liq nomi taklif qilib turiladi. Taklif qilingan shaharni tanlasangiz, matn bloki avtomatik tarzda to‘ldiriladi.

Регистрация нового почтового ящика

Вы сможете пользоваться бесплатной электронной почтой и др...
найти друзей и общаться без ограничений как на компьютере, т

Имя ✓

Фамилия ✓

День рождения ✓

Город

Пол

6.4-Rasm. Elektron pochta da ro‘yxatdan o‘tish sohasi.

Пол – jinsingiz (Erkak yoki Ayol)

Почтовый ящик – elektron pochta manzilingiz. Bu yerga ismingizni yoki eslab qolish uchun oson bo‘lgan, tushunarli so‘z kiritish tavsiya etiladi. Misol uchun, ismingiz *Ibrohim* bo‘lsa, I ibrohimjon@mail.ru yoki ibrohim82@bk.ru kabi manzillarni tanlashingiz mumkin. Xullas, pochta qutisining nomi avvalo yozish uchun qulay (ayniqsa, qo‘l telefoni klaviaturasida), esingizdan chiqib qolmaydigan, tushunarli, ma‘no-mazmunga ega bo‘lgan so‘z yoki jumla bo‘lishi kerak

Пароль – elektron pochtagiz uchun kalit so‘z. Parol imkon qadar esingizdan chiqmaydigan, birov topa olmaydigan, har qanday klaviaturada (ayniqsa, qo‘l telefoni klaviaturasida) ham tersa bo‘ladigan harf va raqamlar to‘plami bo‘lishi kerak.

Повторите пароль – parolni takroran yozing (aniqlik uchun).

Мобильный телефон – qo‘l telefonigizning raqami. Bu narsa parol esingizdan chiqib qolsa, uni SMS xabar yordamida tiklash uchun kerak. Biroq, telefon raqamingizni oshkor qilgingiz kelmasa, «У меня нет мобильного телефона» (menda qo‘l telefoni yo‘q) degan linkni bosishingiz mumkin.

Barcha ma'lumotlar to'ldirilgach, «Зарегистрироваться» (Ro'uxatdan o'tilsin) tugmasi bosiladi.

Регистрация нового почтового ящика

Вы сможете пользоваться бесплатной электронной почтой и другими продуктами Mail.Ru, найти друзей и общаться без ограничений как на компьютере, так и на мобильном.

Имя ✓

Фамилия ✓

День рождения ✓

Город ✓

Пол Мужской Женский ✓

Почтовый ящик ✓

Пароль Уровень сложности: **сильный**

Повторите пароль ✓

Если Вы забудете пароль

С помощью мобильного телефона Вы сможете восстановить пароль.
Укажите номер и в течение минуты Вам придет сообщение с кодом подтверждения.


Мобильный телефон ✓

[У меня нет мобильного телефона](#)

Зарегистрироваться

6.5-Rasm. Elektron pochtda ro'uxatdan o'tish sohasi.


Agar telefon raqamingizni kiritgan bo'lsangiz, «Зарегистрироваться» tugmasi bosilgach, shu raqamga SMS-xabar yuboriladi. SMS-xabarda kelgan tasdiqlash kodini endi ochilgan v (SMS-xabardagi kodni kiriting) oynasiga yozib, «Готово» (Tayyor) tugmasi bosiladi.



6.6-Rasm. Elektron pochta da ro‘yxatdan o‘tish sohasi.

SMS-xabardagi kod tasdiqlangan zahoti yangi ochilgan pochta qutingiz ochilib, undan foydalana boshlaysiz.


Pochta qutingizning bosh sahifasida «Входящие» («Kelgan xatlar») bo‘limi ochiladi. Unda Mayl.Ru pochta xizmatidan kelgan «Maylr.ru’ga xush kelibsiz» hamda «Mayl.ru’ning mobil versiyasi» deb nomlangan ikkita xat turgan bo‘ladi. Ularni o‘qib, Mayl.ru pochta qutisi va uning eng yangi imkoniyatlari haqida to‘liq ma’lumot olishingiz mumkin.



6.7-Rasm. Elektron pochta oynasi.


Pochta bilan ishlash sahifasi bir nechta bo‘limdan iborat. Chap tarafda **Входящие** (Kelgan xatlar), **Отправленные** (Yuborilgan xatlar), **Черновики** (Xomaki nusxalar), **Спам** (keraksiz reklama), **Корзина** (Savatcha) bo‘limlari keltirilgan. Sahifaning o‘rtasida chap tomondan tanlangan bo‘limning nomi ko‘rinib turadi. U sizning hozir qaysi bo‘limda turganingizni ko‘rsatib turadi. Yuqorida **Написать** (yangi xat yozish), **Проверить** (Tekshirish, ya’ni yangi xatlar kelganligini yana bir bora tekshirish), **Адреса** (Manzillar) va **Ещё** (yana) tugmalari bor.

Входящие bo‘limida pochta qutisiga kelgan xatlar turadi. Kerakli xatni o‘qish uchun uning linkiga, ya’ni havolasiga bosiladi. Shunda xatning matni ochiladi. Misol uchun, «Mayl.ru’ning mobil versiyasi» degan xatni ochish uchun uning linkini bosamiz.




6.8-Rasm. Elektron pochta oynasi ish sohasi.

Ko‘rib turganingizdek, elektron pochta maktubida xatning nomi, uning qaysi manzildan (**От кого**), qaysi manzilga (**Кому**) va qachon kelganligi yozib qo‘yilgan bo‘ladi. Ochiq turgan xatga javob yozish uchun **Ответить** (Javob yozish) tugmasi bosiladi. Uni bossak, odatdagi yangi xat yozish sahifasi ochiladi. Lekin **Кому** va **От кого** katakchalari avtomatik tarzda to‘ldirib qo‘yilgan bo‘ladi.




6.9-Rasm. Elektron pochta kiruvchi xatlar oynasi

Кому katakchasiga yuboruvchining manzili, *Тема* katakchasiga esa kelgan xatning mavzusi qo‘yilib, undan oldidan **Re:** deb yozib qo‘yilgan bo‘ladi. Bu **Reply to**, ya‘ni «..ga javoban» degan so‘zning qisqartmasidir. Javob matnini yozib, so‘ng **Отправить** (Yuborilsin) tugmasi bosiladi.




6.10-Rasm. Elektron pochta kiruvchi xatlarga javob berish oynasi

Входящие bo‘limida kelgan xatlar odatda qisqa shaklda ko‘rsatilib, faqat kimdan kelganligi va nomi ko‘rinib turadi. Bu rejim **Кратко** (qisqa) deb ataladi. Xatlar haqida to‘liqroq ma‘lumotga ega bo‘lish uchun **Подробнее** tugmasi bosiladi. Bunda xatning kimdanligi, nomi va matnning dastlabki qatori hamda qachon kelganligi ko‘rinadi. Shuningdek, xatni to‘liq ochib o‘qish uchun yordamchi **Прочитать** (O‘qib chiqish) va **Ответить** (Javob yozish) linklari ko‘rinadi.




6.11-Rasm. Elektron pochta kiruvchi xatni o‘chirish oynasi
 Xatni o‘chirib tashlash uchun satrning boshidagi katakchani belgilab, so‘ng *Удалить* (O‘chirish) tugmasi bosiladi.



6.12-Rasm. Elektron pochta kiruvchi xatni o‘chirish oynasi

Yangi xat yozish yuqoridagi *Написать* (Yangi xat yozish) tugmasi bosiladi.



6.13-Rasm. Elektron pochta yangi xat yaratish oynasi Ochilgan sahifada quyidagi kataklar to'ldiriladi:


Кому (Kimga) – yangi xat yuborilayotgan elektron pochta qutisining manzili. Agar xat bir nechta joyga yuboriladigan bo'lsa, manzillar bir – biri bilan vergul yordamida ajratiladi.

Тема (Mavzu) – xatning mavzusi, sarlavha. Elektron pochta tizimining oddiy pochtdan farqli joylarida biri xatning mavzusi degan tushunchadir. Elektron maktubga sarlavha qo'yish shart emas, bu katakchani bo'sh qoldirsangiz ham bo'ladi (odatda, pochta dasturlari «Siz maktubga sarlavha qo'ymabsiz, nomsiz ketaversinmi?» deb birrov so'rab qo'yishadi). Lekin, xatga sarlavha qo'yish juda qulay va ma'qul narsa. Masalan, «12/212-shartnoma bo'yicha savollar» degan xat yozsangiz, uning javobi «Re: 12/212-shartnoma bo'yicha savollar» deb kelsa, yuzlab xatlarning ichidan aynan shu shartnoma bo'yicha yuborgan savollaringizga qanday javob kelganligini topishingiz oson bo'ladi.

Mavzuning tagidagi katakka xatning matni kiritiladi.


Elektron pochta yangi bir muhim imkoniyati – fayl yuborishdir. Biroq, pochta qutilarida faylning yuborish mumkin bo'lgan o'lchamlari cheklangan bo'ladi. Pochta xizmatlari odatda xatga qo'shib yuboriladigan fayllarning soni va o'lchami qanchadan oshmasligi kerakligini ko'rsatib turishadi. *Mail.ru* pochta xizmatidan odatda 20 mb gacha bo'lgan hajmdagi fayl yuborish mumkin. Biroq, bu o'lchamni sozlash ham mumkin. Buning uchun *Отправить файл* >

20 mb degan havolani va uning yonidagi “**Настроить**” havolasini bosiladi. Xatga fayl qo‘shib yuborish uchun **Прикрепить файл** (Fayl birlashtirish) tugmasi bosiladi, kerakli faylni ko‘rsatish oynasi ochiladi. Bu erdan yubormoqchi bo‘lgan faylingizni ko‘rsatib, **Открыть** (Ochish) tugmasini bosasiz. Faylning katta-kichikligi va internetga ulanish tezligiga qarab, fayl birlashtirishga bir necha soniya yoki daqiqa ketadi. Fayl birlashtirilgach, uning yonida yashil belgi paydo bo‘ladi. Endi xatni yuborish mumkin. Xatni yuborish uchun **Отправить** (Yuborilsin) tugmasi bosiladi. Agar xatni keyinroq yubormoqchi bo‘lsangiz, uni saqlab qo‘yish mumkin. Buning uchun **Сохранить** (Saqlab qo‘yilsin) tugmasini bosasiz. Yozayotgan xatni bekor qilish uchun **Отмена** (Inkor) tugmasi bosiladi.




6.14-Rasm. Elektron pochta yangi xatni yuborish oynasi

Xat jo‘nab ketgach, **Ваше письмо отправлено!** (Xatingiz yuborildi!) yozuvi paydo bo‘ladi.



6.15-Rasm. Elektron pochta yuborilgan xat oynasi

Yuborilgan xatlar ro‘yxati **Отправленные** (Yuborilganlar) bo‘limida turadi. Bu bo‘limga ham chap tomondagi menyudan kiriladi.



6.16-Rasm. Elektron pochta kiruvchi xatnilar oynasi

Черновики (Xomaki nusxalar) bo‘limida saqlab qo‘yilgan xatlar ro‘yxati turadi.

Спам bo‘limida elektron pochtagizga kelgan va spam deb hisoblangan xatlar saqlanadi. Ularning spam yoki spam emasligini elektron pochta tizimiyu o‘zi ham maxsus algoritmlar yordamida baholiqudrat aniqlaydi. Lekin biror xatni o‘zingiz ham spam yoki spam emas deb belgilashingiz, spanga oid tartib-qoidalarni o‘zingiz sozlashingiz ham mumkin.

Корзина (Savatcha) bo‘limida o‘chirib tashlangan xatlar turadi. Ularni tiklash, butunlay o‘chirib tashlash kabi ishlar shu bo‘limda bajariladi.

Oyna ostidagi *Настройки* (Sozlashlar) bo‘limida elektron pochta qutisiga oid barcha sozlash ishlari amalga oshiriladi.




6.17-Rasm. Elektron pochtni sozlash oynasi.

Masalan, bu yerda pochta qutisining tashqi ko‘rinishi, parollar, xavfsizlik, SMS-xabarlar va boshqa sozlashlarni boshqarish mumkin.



6.18-Rasm. Elektron pochta sozlash oynasi.

Pochtangizni parolini o'zgartirmoqchi bo'lsangiz, Sozlashlar bo'limdagi **Пароль** havolasini bossangiz, kalit so'zni o'zgartirish sahifasi ochiladi. Bu erda **Текущий пароль** (Joriy parol) katagiga hozirgi parolni, **Новый пароль** (Yangi parol) va **Повтор нового пароля** (Yangi parolni takrorlash) kataklariga esa yangi parolni yozasiz. **Укажите код, размещенный на картинке** degan joyga suratdagi raqam va harflarni kiritasiz. Yangi parolni saqlab qo'yish uchun **Сохранить** (Saqlab qo'yish) tugmasi bosiladi.




6.19-Rasm. Elektron pochta parolni almashtirish oynasi.

Elektron pochta qutisi – Sizing shaxsiy mulkingiz, o'zingizgagina tegishli ma'lumotlar, yozishmalar, hatto tijoriy sirlar saqlanishi mumkin bo'lgan joydir. Shuning uchun uni begona ko'zlardan, g'arazli kimsalardan himoya qilish zarur. Shuning uchun ham elektron pochta bilan ishlashning eng muhim qoidalaridan biri

qutidan chiqib ketishdir. Agar parolni yozib, qutiga kirgandan keyin brovzerni o‘chirib ketsangiz, Sizdan keyin uni ochgan odam pochta qutingizga kirishi, undan foydalanishi va hatto parolni almashtirib, Sizni pochta qutingizdan mahrum qilib qo‘yishi ham mumkin. Shuning uchun parolni yozib kirganingizda brovzer bu parolni eslab qolishni taklif qilsa, hech qachon rozi bo‘lmang.

Pochta qutisi bilan ishni yakunlash uchun yuqorida, o‘ng tarafdagi **Выход** (Chiqish) havolasi bosiladi.



6.19-Rasm. Elektron pochtdan chiqish oynasi.

Nazorat savollari:

1. Elektron pochta nima?
2. Elektron pochtaning qanday imkoniyatlari mavjud?
3. Internet orqali so‘zlashuv deganda nimani tushunasiz?
4. Elektron pochta tizimlari deganda nimani tushunasiz?
5. Elektron pochta orqali ma’lumotlar uzatish va qabul qilish qanday amalga oshiriladi?
6. Yangi elektron pochta ochish qanday amalga oshiriladi?
7. Elektron pochtaga kirish va xat yozish tartibini ayting?

7- MAVZU. MS POWER POINT DASTURINING ASOSLARI.

Reja

1. Power Point bilan tanishish.
2. Power Point interfeysi bilan ishlash asoslari.
3. Power Point ma'lumot beruvchi tizimi.

Tayanch iboralar: *Prezentatsiya, Microsoft office, Power Point, slayd, , giperssilka, animatsiya, interfeys, taqdimot, ufabr vexarrir, kompyuter, dastur.*

O'quv mashg'lot maqsadi: *Talabalarga Microsoft office dasturi haqida tushuncha berish, dasturning yaratilish tarixi ularning modifikatsiyalari va dasturda qayta ishlanadigan ma'lumotlar to'grisida bilim va malakalarini shakllantirish.*

1. Power Point bilan tanishish.

MS PowerPoint (to'liq nomi — **Microsoft Office PowerPoint**, inglizcha: power pointpower point — ishonarli hisobot) — taqdimotlar yaratish va ularni tomosha qilishga mo'ljallangan dastur bo'lib, **Microsoft Officening** bir qismi hisoblanadi va **Microsoft Windows, macOS** tizimlarida ishlash imkoniyatiga ega. PowerPointda yaratilgan taqdimotlar **projektor** yordamida katta ekranlarda yoki katta o'lchamli televizion ekranlarda ko'rishga mo'ljallangan.

PowerPoint yaratish fikri **Berkli** oliygohi talabasi **Bob Gaskins** (Bob Gaskins)da paydo bo'ladi. **1984-yil Gaskins Forethought** firmasiga qo'shildi va **Dennis Ostin** (Dennis Austin) ismli dasturchini ishga yollaydi. Bob va Dennis harakatlarini birlashtirishadi va Presenter dasturini yaratishadi. Dennis dasturning original versiyasini **Tom Rudkin** bilan yaratadi. Keyinchalik Bob dastur nomini PowerPoint deb o'zgartirishga qaror qiladi.

1987-yil Power Point 1.0 Apple Macintosh tizimi uchun namoyish etiladi. U oq-qora formatda ishlagan. Keyinchalik Macintoshning rangli ko'rinishlari paydo bo'lgan va dasturning ham rangli versiyasi yaratilgan. Power Pointning ilk versiyalarida dastur tarkibiga ko'k jildli kitob shaklidagi yo'riqnoma kiritilgan, ammo bu biroz qimmatga tushishi munosabati bilan Forethought elektron yo'riqnoma o'tishga qaror qiladi.

1987-yil Forethought va Power Point Microsoft tomonidan \$ 14 mln.ga sotib olinadi. 1990-yil Microsoft Office paketi to'plamidagi Windows uchun versiyasi namoyish qilindi. 2002-yildan boshlab Office XP PowerPointning paydo bo'lishi bilan u Office paketidan alohida ham tarqatilishi mumkin edi. Albatta Q.M.T

Microsoft Power Point modifikatsiyalari (versiyalari) quyidagi jadvalda aks ettirilgan

Yil	Versiya	Nomi	Izoh
<u>1990</u>	2.0	PowerPoint 2.0 Windows 3.0 uchun	MS Office 1.x tarkibida
<u>1992</u>	3.0	PowerPoint 3.0 Windows 3.1 uchun	MS Office 3.0 tarkibida
<u>1993</u>	4.0	PowerPoint 4.0	MS Office 4.x tarkibida
<u>1995</u>	7.0	PowerPoint Windows 95 uchun	Office 95 tarkibida
<u>1997</u>	8.0	PowerPoint 97	Office 97 tarkibida
<u>1999</u>	9.0	PowerPoint 2000	Office 2000 tarkibida
<u>2001</u>	10	PowerPoint 2002	Office XP tarkibida
<u>2003</u>	11	PowerPoint 2003	Office 2003 tarkibida
<u>2007</u>	12	PowerPoint 2007	Office 2007 tarkibida
<u>2010</u>	14	PowerPoint 2010	Office 2010 tarkibida
<u>2013</u>	15	PowerPoint 2013	Office 2013 tarkibida
<u>2016</u>	16	PowerPoint 2016	Office 2016 tarkibida
<u>2018</u>	17	PowerPoint 2019	Office 2019 tarkibida

Microsoft Power Point Formatlari.

Taqdimotlar quyidagi (prefiks yordamida) ko'rinishlarda saqlanishi mumkin:

- .ppt — PowerPoint taqdimoti
- .pps — faqatgina PowerPoint taqdimoti
- .pot — PowerPoint modeli

Power Point 2007 o'zining macOS uchun versiyasida (2008) Office Open XML formatini taqdim etdi. Shundan so'ng taqdimotlar .pptx, .ppsx, .potx ko'rinishiga ega bo'ldi. Taqdimotga audio fayl qo'shish uchun **MPEG LAYER 3 18HB 11025 Hz** stereo formatini ishlatish zarur.

Power Point Microsoft Office qismi hisoblanadi. Bu esa Power Pointga taqdimot yaratuvchi dastur sifatida dunyoga keng tarqalishiga yordam berdi. Tez-tez Power Point taqdimotlari foydalanuvchilar tomonidan boshqa kompyuterlarga jo'natilib turiladi. Bu esa raqobatchi dasturlar bilan muvofiqlikni ta'minlash zaruriyatini bildiradi. Power Pointning ba'zi taqdimotlari Windows tizimiga o'rganganligi bois uni macOS Power Point versiyasida ochishning iloji yo'q. Shu sababli Microsoft ochiq standartlarga o'tishga qaror qildi.

Prezentatsiyalar tayyorlashda eng effektiv va universal vositalardan biri – bu Microsoft Office ilovasidagi Power Point dasturi. Ushbu dastur grafik axborotlar, slaydlar, ovoz, video kliplar, animatsiyalardan foydalanib sifatli prezentatsiyalar yaratish imkonini beradi.

Prezentatsiyalarni tayyorlash natijasida:

- qatnashuvchilarga tarqatish uchun chop qilingan hujjat;
- kadoskopda foydalanish uchun kalkalar;
- slaydoskoplarda foydalanish uchun 35 millimetrlil slaydlar;
- cho'ntak daftarchasi;
- elektron prezentatsiyalarni olish mumkin.

Microsoft Power Point dasturi 1987 - yilda chiqilgan bo'lsa ham, prezentatsion grafik ishlarida yetakchi o'rin tutadi. Bu dasturning keyingi versiyalarida esa shu dasturga yangi qo'shimcha fikrlar va prezentatsiyalarni qo'llashning yangi usullari ishlab chiqildi. Microsoft Power Point dan foydalanayotgan har bir foydalanuvchi xoh u yangi ish boshlovchi bo'lsin, xoh tajribali bo'lishidan qat'iy nazar, ushbu dasturga kiritilgan yangi usullarni yuqori darajada baholaydi.

Microsoft Power Point taqdimotlarni tayyorlash va hosil qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, unda yaratilgan taqdimotlarda oddiy animatsiyalar hosil qilish mumkin.

Ma'ruza, biznes reja va hokazolar taqdimoti bo'lib, har bir taqdimot bir necha slayddan tashkil topgan bo'lishi mumkin.

Microsoft Power Point universal, imkoniyatlari keng, ko'rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kirib, matn, rasm, chizma, grafiklar,

animatsiya effektlari, ovoz, videorolik va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi.

Prezentatsiya – ma’ruza, biznes reja va hokazolar bo‘lishi mumkin. Har bir prezentatsiya bir nechta slayddan tashkil topgan bo‘ladi.

Microsoft Power Point yaratgan hujjatlarini Office ning boshqa muharrirlariga, Web sahifa ko‘rinishida, rasm ko‘rinishida va boshqa ko‘rinishlarda eksport qilish imkoni berilgan.

Prezentatsiyalar tayyorlashda qulayliklari juda katta bo‘lgan zamonaviy dasturlardan biri – Microsoft Power Pointda tayyorlanadigan prezentatsiya slaydlarida rasm, formula, grafiklar, ovoz yozilgan fayllar, video-klipplar va hokazolarni joylashtirish imkoni berilgan. Microsoft Power Point dasturi yordamida son va matn ko‘rinishidagi axborot osonlik bilan chiroyli bezatilgan slayd va diagramma ko‘rinishiga aylantiriladi.

Odatda Microsoft Power Point dasturini ishga tushirish uchun Windowsning «Пуск» tugmasi bosiladi, menyuning «ПРОГРАММЫ» bandidan Microsoft Power Point nomli bandi ishga tushiriladi. Yuqorida ko‘rsatilgan joyda Microsoft Power Point bandi bo‘lmasa, C:/Program Files/Microsoft Office/Office katalogiga kirib POWERPNT.EXE ishga tushiriladi. Microsoft Power Point ishga tushganda ekranda uning ishchi stoli namoyon bo‘ladi.

Slayd — ma’lum bir o‘lchamga ega bo‘lgan muloqot varaqlari hisoblanadi. Unda biror maqsad bilan yaratilayotgan namoyish elementlari joylanadi.

Slaydlar ketma-ketligidan iborat tayyor ko‘rgazmani kompyuter ekranida, videomonitorida, katta ekranda namoyish qilish mumkin. Ko‘rgazmani tashkil qilish — slaydlar ketma-ketligini loyixalash va jixozlash demakdir.

Taqdim etish axborot texnologiyasining samaradorligi ko‘p jixatdan taqdim etuvchi shaxsga, uning umumiy madaniyati, nutq madaniyati va x.k.larga bog‘liq ekanligini ham unutmash lozim.

2. Power Point interfeysi bilan ishlash asoslari.

Kundalik hayotimizda biz ko‘pchilik hodisalar bilan tanishamiz bular inson ongida turlicha aks etishi bilan farqlanadi. Butun borliq atrofimizni o‘rab turgan olamning ongimizdagi aksi bu axborot sanaladi. Inson hamisha ko‘rganlarini eslab qolishga va yoddan

chiqarmaslikka harakat qiladi. Buning uchun esa u turli hil yo‘llarni o‘ylab topdi va rivojlantirdi. Hozirgi elektron hisoblash texnikalari rivojlangan davirda buning yo‘li juda osonlashib qolga. Elektron qurilmalar va shu maqsadga yo‘naltirilgan vositalar bunda kata yordam beradi. Aynan shunday maqsaddagi ishlar uchun ham Microsoft Office kompaniyasi Microsoft Power Point dadasturini ishlab chiqargan. Bu dastur yuqorida aytib o‘tganimizdek turli hil grafik ko‘rinishdagi axborotlar bilan, video multimediya fayllari bilan ishlash imkoniyatini beradi. Aynan shu dastur orqali biz ofis dasturlarining boshqalarida uchramaydigan imkoniyatlarga ega bo‘lamiz. Microsoft Power Point dadasturi rasm va multimediya fayllari bilan ishlash imkoniyatidan tashqari ularni namoyish etishda ham katta imkoniyatlarga ega. Power Point 2013 dadasturini ishga tushirish uchun huddi boshqa ofis dasturlari singari Windows 8 muhitida ham «Пуск» menyusidan foydalaniladi. Bundan tashqari ish stolining bo‘sh joyida sichqoncha o‘ng tugmasi bir marta bosiladi. Hosil bo‘lgan menyudan «Создат» bo‘limi tanlanadi (qarang: 7.1.-rasm.).



7.1.-rasm. Power Point 2013 dadasturini ishga tushirish.




7.2.-rasm. Microsoft Power Point 2013 ning sarlovha eskisini tanlash.

Natijada Microsoft Power Point 2013 ning sarlovha eskisini tanlash oynasi hosil bo‘ladi. U boshqa oldingi ofis dasturlaridan farqli ravishda quydagicha ko‘rinishda bo‘ladi (qarang: 7.2.-rasm.).

Hosil bo‘lgan oynaning chap tomoniga e‘tibor berib bu yerda dastlab yuqorida dastur nomi va foydalanuvchi joriy holatgacha foydalangan hujjatlar ro‘yhati joylashadi. Oynaning asosiy qismida esa Power Point dasturining foydalanuvchiga takil etayotgan hujjat yaratiladigan dizaynlar eskizlari namoyon bo‘lgan. Bulardan

foydalanuvchi o‘ziga maqul bo‘lgan dizaynni tanlaydi va natijada Microsoft Power Point dasturining quydagi ishchi sohasi namoyon bo‘ladi (qarang: 7.3.-rasm.).



5.3.-rasm. Microsoft Power Point dasturining quydagi ishchi sohasi.



5.3.-rasm. Microsoft Power Point dasturining quydagi ishchi sohasi.

Endi asosiy oynadagi elementlar bilan tanishamiz. Oynaning eng yuqori qismida dasturning nomi, joriy oyna raqami va oynani tartibga solib turish elementlari joylashadi. Asosiy menyu bu 9ta funktsiyadan iborat menyulardan iborat (qarang: 5.4.-rasm.).



5.4.-rasm. Asosiy menyu bu 9 ta menyulari.

Asosiy manyuning yordamida foydalanuvchi menyu yordamida bajariladigan barcha funktsiyalarni amalga oshirish mumkin. Ishch


oynasi asosan ikki qisimdan iborat bo‘ladi. Oynaning chap tomoni bu ishlanayotgan taqdimot strukturalarining nomayon bo‘lishini ko‘rish mumkin. O‘ng tomonida esa yaratilayotgan taqdimotning joriy slaydi joylashadi. Taqdimot sozlamalarini foydalanuvchi o‘ziga moslash uchun turli imkoniyatlarga ega buning uchun foydalanuvchi buyruqlar bo‘limidan bo‘limi tanlanadi. Hosil bo‘lgan menyudan (qarang: 5.5.-rasm.).



Настройка

7.5.-rasm. Taqdimotni namoyish etish.

Slaydlar sozlamalari bo‘limi tanlanadi. Natijada показа слайдов quydagi oyna hosil bo‘ladi :



7.6.-rasm. Taqdimotni namoyish etish oynasining ko‘lirinishi.

Endi esa dasturning asosiy imkoniyati bo‘lmish taqdimot yaratish bilan tanishsak. Taqdimot yaratishning asosida albatta slaydlardan foydalaniladi. Ular tekst, grafik, ovozli va video malumot ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Yangi taqdimot yaratish uchun quyidagi amallar ketma ketligi bajariladi (qarang: 7.7. (a, b)-rasm.).



7.7. (a, b)-rasm. Yangi taqdimot yaratish uchun quyidagi amallar ketma ketligi bajariladi.

Menyuda dasturning kerakli eskisi tanlanadi va natijada uning maketini tanlash muloqot oynasi ochiladi. Bu oynaning chetlaridagi o‘tkazish tugmalari yordamida keyingi yoki oldingi maketlarni ko‘rish imkoniyati bor. Maketning pastki qismi strelkalari esa maket holatini tanlaydi va o‘zgartiradi. Misol uchun yuqoridagi maketning bir nechta shakli ham mavjud. Maketning rasimli ko‘rinishlari ham mavjud bo‘lib ular foydalanuvchi hoxishiga ko‘ra almashtirilishi mumkin.



7.8.-rasm. Menyuda dasturning kerakli eskisi tanlanadi va natijada uning maketini tanlash muloqot oynasi ochiladi.

Natijada ishchi sohada tanlangan maket hosil bo‘ladi. Foydalanuvchi bu buyruqni klaviaturadan «Ctrl+N» kombinatsiyasi orqali ham hosil qilishi mumkin. Slaydlar bilan turli amallarni bajarish mumkin. Yaratilayotgan taqdimot strukturalarini o‘zgartirish unga yangi slayd qo‘shish va mavjud slaydlarni olib tahlash imkoniyatlari ham mavjud. Bu amallarni quydagicha bajaramiz. Taqdimot strukturasini o‘zgartirish uchun uning joylashuv o‘rniga sichqoncha

ko'rsatgichi olib boriladi va chap tugmasi bir marta bosilib turgan holda struktura ichidagi o'zgartirishimiz kerak bo'lgan joyga olib boriladi, kerakli joyga olib kelgach tugmacha qo'yib yuboriladi, natijada ushbu slayd o'zni tanlangan joyga almashib joylashadi.

Menyular satri quyidagilardan iborat:

«Файл», «Главная», «Вставка», «Дизайн», «Переходы», «Анимация», «Показ слайдов», «Рецензирование», «Вид».

«Файл» menyusida quyidagi bandlar mavjud:

«Сохранить» - saqlamoq

«Сохранить как» - biror nom bilan saqlash

«Открыть» - ochmoq yoki xotirada saqlangan fayllarni ochish uchun ishlatiladi.


«Закреть» - oynani yopish

«Сведения» - shu fayl haqidagi ma'lumotlar

«Последние» - oxirgi ochilgan 15 ta fayl va papka nomlarini o'z ichiga oladi.

«Создать» - yangi fayl yoki boshqa turdagi hujjatlarni yaratish uchun ishlatiladi.

«Печать» - bosmaga chiqaradi (qarang: 5.9.-rasm.).




7.9.-rasm. «Файл» menyusining umumiy ko'rinishi.

«Сохранить и отправить» -nom bilan xotirada saqlaydi va jo'natadi.

«Справка» – Microsoft Office haqida ma’lumot beradi.


«Параметры» - Microsoft Power Point parametrlari haqida ma’lumot beradi (qarang: 7.10.-rasm.).

«Выход»- dasturdan chiqis yoki oynani yopish uchun ishlatiladi.



7.10.-rasm. Microsoft Power Point parametrlari haqida ma’lumot beradi.

«Главная» menyusi quyidagi bandlardan tashkil topgan.



7.11.-rasm. «Главная» menyusi.



Вставить - Bu belgi yordamida nusxa ko‘chirilgan belgini joylashtirish vazifasini bajaradi.



Вырезать – qirqib olish vazifasini bajaradi.



Копировать - Nusxa ko‘chirish vazifasini bajaradi.



Создать слайд - «Создать слайд»- taqdimotga yangi slayd qo‘yish uchun ishlatiladi.



Макет - «Макет» - berilgan slaydning maketini o‘zgartirish uchun ishlatiladi.



Восстановить - «Восстановить»-Berilgan slaydlarni o‘rnini almashtirishda qayta tiklash uchun ishlatiladi.



Раздел - bo‘limlarga ajratish.



Шрифт - Shrift ko‘rinidhi va o‘lchamini o‘zgartirish uchun qo‘llaniladi.

Ж К Ч S «Ж» –Yozuvni nimqalin ko‘rinishda, «K» – Harflarni qiya ko‘rinishda, «Ч» - harflarni tagini chizilgan holatda yozadi. «C»- yozilgan matnni soyasini berish vazifasini bajaradi.

A A - Shrift o‘lchamini kattalashtirish va kichiklashtirish uchun ishlatiladi.


 - Berilgan barcha tahrirlashlarni bekor qiladi.


 - Matn rangini o‘zgartiradi.

 - Royxatga marker belgisini qo‘yish uchun ishlatiladi.


 -Ro‘yxatga tartib raqamlarini qo‘yish uchun ishlatiladi.

 - Matnlarni o‘ngga, chapga siljitish uchun ishlatiladi.

 Satrlar orasidagi intervalni o‘zgartiradi.

 -Matnni chap tomondan, o‘rtadan, ong tomondan va ikkala tomondan tekislash vazifasini bajaradi.


 -Matnni kolonkalariga sjratadi.


 -Matn yo‘nalishini to‘g‘rilash uchun ishlatiladi.

 - Matn yozuvini tekislash uchun ishlatiladi.

 - **Smartart** grafik elementlarini qo‘yish uchun ishlatiladi.

 **Фигуры** -Turli xil figuralarni hosil qilish uchun ishlatiladi.

 **Упорядочить** - Figuralarni slaydga tartib bilan joylashtirish.

 **Экспресс-стили** -Figura va chiziqlarni bezash uchun ishlatiladi.


 -Figuralar rangini o‘zgartiradi.

 -Figuralar konturini o‘zgartiradi.


 -Figuralarga effektlar berish uchun ishlatiladi.

 **Найти** -Hujjatlardan matnni qidirish uchun ishlatiladi

 **Заменить** -Hujjatdagi matn yoki harflarni o‘zgartiradi.

 **Выделить** -Hujjatdagi matn yoki obyektlarni belgilaydi.

«**Вставка**» menyusi quyidagi bandlardan tashkil topgan (qarang: 5.12.-rasm.).



7.12.-rasm. «Вставка» menyusi.



Таблица - Hujjatga jadval joylashtirish uchun ishlatiladi.



Рисунок - Hujjatga rasmlarni joylashtiradi.



Картинка - Hujjatlarga kliplar, rasmlar, turli xil tovushlarni joylashtiradi.



Снимок - Turli rasmlarni joylashtiradi.



Фотоальбом - Rasmlar to'plamidan taqdimot yaratish uchun ishlatiladi.



Фигуры - Turli xil figuralarni hosil qilish uchun ishlatiladi.



SmartArt - **Smartart** grafik elementlarini qo'yish uchun ishlatiladi.



Диаграмма - Taqdimotga diagrammalar qo'yish uchun ishlatiladi.



Гиперссылка - Elektron pochtaga, web sahifaga gipermurojaat qilish uchun ishlatiladi.



Действие - Obyektga sichqoncha yordamida ta'sir qilish vazifasini bajaradi.



Надпись - Hujjatga matn qo'yish uchun ishlatiladi.



Колонтитулы - Varaqning yuqori va quyi qismida kolontitul ajratadi.



WordArt - Hujjatga namoyishkorona matn kiritadi.



Слайд-шоу - Hujjatga vaqtni va slayd nomerini joylashtiradi.



Формула - Matematik formulalar bilan ishlaydi.



Символ -Matnga turli xil belgilarni kiritadi.




Видео -Slaydga video lavha joylashtiradi.



Звук -Slaydga tovush effektlarini joylashtiradi.

Dizayn menyusi quyidagi bandlardan tashkil topgan (qarang: 5.13.-rasm.).



7.13.-rasm. Dizayn menyusi.



Параметры страницы -Varaq o'Ichamlari muloqot oynasi bilan ishlaydi.




Ориентация слайда -Slaydni kitob va albom varaq'I ko'rinishiga o'tkazadi.




-Slaydning dizayn ko'rinishini o'zgartiradi.




Цвета -Berilgan tema rangini o'zgartiradi.




Шрифты -Berilgan temaning shriftini o'zgartiradi.



Эффекты -Berilgan temaning effektini o'zgartiradi.




Стили фона -Berilgan temaning fon ko'rinishini o'zgartiradi.



Скрыть фоновые рисунки -Fon rangini bekor qiladi.

«Переходу» menyusi quyidagi bandlardan tashkil topgan.



7.13.-rasm. «Переходу» menyusi.




Просмотр - Berilgan slaydga o'tishni oldindan ko'rish.





Панорама -Panorama ko'rinishida shu slaydga o'tish.




Параметры эффектов - Effekt parametrlarini o'zgartirish.

 -Slaydlar almashinuvida qo'yilgan tovush effektlarini berish.

 -Slaydlar almashinuvida qo'yilgan tovush effektlarining davomiyligini berish.


 Применить ко всем - Barcha slaydlar uchun qo'llash.

 Смена слайда -Slaydlar almashinuvini qayday bajarilishini ko'rsatadi.

По щелчку -Sichqoncha yordamida yoki avtomatik o'zgartiradi.

После: 00:00,0 -Slaydlar almashinuvi qayday vaqt dam etishini ko'rsatadi.

Strukturalar qatoriga yangi slayd qo'shish va mavjudlarini olib tashlash quydagi tartibda amalga oshiriladi. Slayd qo'shish- sichqoncha kursori aynan slayd qo'shish kerak bo'lgan joyga olib boriladi va kerakli slayd ustida bir marta bosiladi natijada slayd joriylashadi. So'ngra sichqoncha o'ng tugmasi bir marta bosiladi va slayd hosil qilish buyrug'i tanlanadi. Bundan tashqari slaydni «Вставка» bo'limi yordamida ham qo'shish mumkin. Kerakli eskiz tanlangach ekranda quydagi ko'rinish hosil bo'ladi (qarang: 5.14.-rasm.).




7.14.-rasm. «Вставка» munyusi.

Kerakli tekst tanlanadi. So'ngra u slaydda aks etadi. «Макеты текста»– matn ko'rinishidagi axborotni slaydda joylashtirishning turli variantlarini tavsiya etadi. Masalan:

 - qatorli matndan iborat bo'lgan slayd.


 - sarlavha va matn.

 - sarlavha va ikki ustunda joylashgan matn.

«Макеты содержимого» - grafikaviy obyektlar (rasm, jadval, diagramma)ni slaydda joylashtirishning turli variantlarini tavsiya etadi.



7.15.-rasm. «Макеты текста и содержимого» va «Другие макеты» bandlari.

Agar biz bo'sh slayd hosil qilmoqchi bo'lsak,  bandi tanlanib, «OK» tugmasi bosiladi. «Макеты текста и содержимого» va «Другие макеты» bandlari ham matnli, ham grafik obyektlarni slaydda joylashtirishning turli variantlarini tavsiya etadi.



MS Power Point dasturida rasm chizish. Power Pointda rasm chizish uchun «Рисование» panelidan foydalaniladi.



5.16.-rasm. «Рисование» panelining ko'rinishi.


Bu panel yordamida slaydda tayyor rasmlarni, diagramma va Word Art obyektini joylashtirishdan tashqari, turli geometrik figuralarni chizish va hosil qilish mumkin. Hosil qilingan obyektlarning bosganda hosil bo'lgan menyudan «Формат автофигуры» qismini tanlaganda chiqadi va u orqali biz shu avtofigura uchun hamma xossalarini o'zgartirish imkoniga ega bo'lamiz. Huddi shunday tarzda slaydlarga diagrammalar joylashtirish ha amalga oshiriladi. Endi esa e'tiboringizni taqdimot ko'rinish va chiqishlari, animasiyalar joylashtirishga qaratsak. Buning uchun joriy slayd tanlanadi va menyular satridan «Анимация» bo'limi tanlanadi. Natijada oynada ushbu bo'limning menyulari paydo bo'ladi. Slayddagi effekt berilishi kerak bo'lgan sahifa tanlanadi va belgilab olinadi, natijada «animatsiya» bo'limi faollashadi. Siz undan kerakli animatsiyani tanlab joylashtirish mumkin.



7.17.-rasm. «animatsiya» bo‘limi faollashtirish oynasi.

Bularga qo‘shimcha ravishda har bir effekt turiga qo‘shimcha effektlar kiritish ham mumkin.

«Анимация» menyusi quyidagi bandlardan tashkil topgan.




7.18.-rasm. «Анимация» menyusi.

- Просмотр** - Animatsion harakatlarni ko‘rish vazifasini bajaradi.
- Выцветание** - Animatsion effekt ko‘rinishi.
- Добавить анимацию** - Animatsiya turlarini joylashtirish vazifasini bajaradi.
- Область анимации** - Qoyilgan animatsiyani to‘laligicha talqin qiladi.
- Триггер** - Animatsiyani qanday holatda ishga tushishini o‘zgartiradi.
- Начало: По щелчку** - Animatsiya qanday vaqtda ko‘rinishini o‘zgartiradi.
- Длительность: 00,50** - Animatsiyani ko‘rinish davomiyligi.
- Задержка: 00,00** - Animatsiyani qanday vaqt oraligida ushlab turishni anglatadi.


Изменить порядок анимации. Animatsion ko‘rinishlarning ketma-ketligini o‘zgartiradi.

Belgilangan obyektlarni guruhlarga birlashtirish. Belgilangan bir nechta obyektни bir guruhga birlashtirish uchun «Рисование» panelidan «Действие» bandi tanlanadi va menyudan «Группировать» bandi tanlanadi. Obyektlar guruhlangan bo‘lsa, uning karakteristikalarini o‘zgartirish, guruhga kirgan hamma obyektlarni karakteristikalarini o‘zgartirish mumkin. Bir guruhga biriktirilgan obyektlarni bitta obyekt sifatida ishlatish va yana boshqa obyektlar, guruhlar bilan guruhlash mumkin.



7.19.-rasm. «Рисование» panelidagi «Группировать» bandi.

«Разгруппировать» bandi yordamida bir guruhga birlashtirilgan obyektlarni, aksincha alohida obyektlarga ajratish mumkin. **«Показ слайдов» menyusi quyidagi bandlardan tashkil topgan.**




7.20.-rasm. «Показ слайдов» menyusi.




«С начала» -Slaydlar ko‘rinishini boshidan ko‘rsatadi. Bu vazigani «F5» tugmasi yordamida ham bajarish mumkin.



«С текущего слайда» -Slaydlar ko‘rinishini joriy sлайddan boshqarishni bildiradi, ya‘ni «Shift+F5»- bilan ham bajarish mumkin.



«Широковещательный показ слайдов» -Slaydlarni web-brouzerda keng miqiyosda ko‘rishni anglatadi.




- Tanlangan salydlarni ixtiyoriy tartibda ko'rishni anglatadi.




Настройка демонстрации

- Taqdimotni ko'rish jarayonini tahrirlash uchun quyidagi muloqot oynasining parametrlari o'zgartiriladi.


Bunda slayd ko'rinishini ma'ruzachi tomonidan to'liq ekranda, foydalanuvchi tomonidan muloqot oynasi shaklida yoki avtomatik tarzda to'liq ekranda ko'rsatish mumkin. Slaydlar bo'limidan qaysi slaydlarni ko'rsatish tartibi o'rnatiladi. Slaydlar almashinuvida qo'l harakati yordamida yoki ma'lum vaqt oralig'ida ko'rinishini o'zgartiradi.




7.21.-rasm. Slaydlar almashinuvida qo'l harakati yordamida yoki ma'lum vaqt oralig'ida ko'rinishini o'zgartiradi.




-Joriy slaydning ko'rinishini berkitish vazifasini bajaradi.




-To'liq ekran rejimida slaydni qancha vaqt davomiyligida ko'rinishini vaqt orqali belgilab beradi.




Matn orqali slaydlar ko'rinishini hamoyish qilishni yozib olish vazifasini bajaradi.




Matn orqali slaydlar ko'rinishini lazer tayoqchasi yordamida hamoyish qilishni yozib olish vazifasini bajaradi.




Vaqt oralig'ida slayd ko'rinishini namoyish qilish uchun ishlatiladi.




-Animatsion effektlarni elementlarini boshqarish vazifasini bajaradi.



slaydlarni to'liq ekran rejimida ko'rish vazifasini bajaradi.

 slaydlarni to'liq ekran rejimida ma'ruzachi yordamida namoiyish etishni bildiradi.

«Рецензирование» menyusi quyidagi bandlardan tashkil topgan.



7.22.-rasm. «Рецензирование» menyusi.



Орфография

- Matning orfografik xatoliklarini tekshiradi.




Справочники

- Ma'lumotlarni qidirib topish uchun ishlatiladi.




Тезаурус

-Ajratilgan so'zlarning sinonimini topishda ishlatiladi.




Перевод

So'z va matnlarni boshqa tillarga tarjima qilish vazifasini bajaradi.




Язык

- Tillarga oid barcha parametrlarni o'zgartiradi.



Создать примечание


-Ajratilgan qismga tushuntirish belgisini qo'yish uchun ishlatiladi.




Сравнить

-Taqdimotlarni joriy taqdimot bilan solishtirish vazifasini bajaradi.

«Вид» menyusi quyidagi bandlardan tashkil topgan.



7.23.-rasm. «Вид» menyusi.



Обычный

- Taqdimotni oddiy ko'rinishda ko'rish vazifasini bajaradi.



Сортировщик слайдов

- Slaydlar ko'rinishini ajratilgan rejimda ko'rsatadi. Bu slaydlar o'rnini almashtirishga xizmat qiladi.



Страницы заметок

- Ma'ruzachi ko'rdatmalarini o'zgartirish maqsadida varaqlarni ko'rish.



Режим чтения

bajaradi.

- Slaydlar ko‘rinishi taqsimot paytida ko‘rish vazifasini



Образец слайдов

- Slaydlar turini ko‘rsatish rejimiga o‘tish.



Образец выдач

- Sladlarning dizayn va maketlarini tanlash uchun ishlatiladi.

Линейка

Сетка

Направляющие

- Slaydlarga chizgish, to‘r va harakat yo‘nalishlarini berish vazifasini bajaradi.



Масштаб

- Slaydning ko‘rinish masshtabini o‘zgartiradi.



Вписать в окно

- Slayd oyna o‘lchamini to‘liq egallashi uchun masshtabni o‘zgartiradi.



Цвет

Оттенки серого

Черно-белый

- Slaydlarni to‘liq ranglar rejimida, kulrang ko‘rinishda va oq-qora ko‘rinishda ko‘rsatadi.



Новое окно

- Joriy hujjat uchun yangi oyna ochadi.



Перейти в другое окно


- Boshqa ochilgan oynaga o‘tish vazifasini bajaradi.



Макросы

- Makroslarni qo‘yish vazifasini bajaradi.

«Формат» menyusi quyidagi bandlardan tashkil topgan.




7.24.-rasm. «Формат» menyusi.






- Tayyot shakl va blok sxemalarni o‘rnatadi.



 - Shakllarni o'zgartirish va shaklga matn kiritish vazifasini bajaradi.






- Shakl va chiziqlarga bezak beradi.




- Shakllarning rangini, shaklning kontur chiziqlarini, effektlarini o'zgartiradi.



- Matnni wordart ko'rinishida bezaydi.



- Tasvirni oldingi formatda joylashtirish
- Tasvirni orqa formatda joylashtirish
- Alohida shakllarni belgilab olish uchun ishlatiladi.



- Shaklni bo'yi va eni o'lchamlarini o'zgartirish vazifasini bajaradi.

Barcha berilgan menyularning tarkibini to'liq o'rganib chiqish bajarayotgan ishning osonlashishiga va tez o'zlashtirilishiga olib keladi.

3. Power Point ma'lumot beruvchi tizimi.


Prezentatsiyalar tayyorlashda eng effektiv va universal vositalardan biri – bu Microsoft Office ilovasidagi Power Point dasturi. Ushbu dastur grafik axborotlar, slaydlar, ovoz, video kliplar, animatsiyalardan foydalanib sifatli prezentatsiyalar yaratish imkonini beradi.

Power Point dasturi Microsoft firmasining prezentatsiyalar (taqdimot qilish, ya'ni tanishtirish) bilan ishlash uchun eng qulay bo'lgan dasturiy vositalardan biridir. Bu dastur orqali barcha ko'rgazmali qurollarni yaratish, ba'zi joylarda esa undan ma'lumotlar bazasi sifatida foydalanish mumkin. Ayrim hollarda bu dasturda multimedia vositalarini boshqarish va ularni qo'llab, namoyish etuvchi qurilmalarga yuborish vazifalari ham bajariladi. Dasturdagi asosiy tushunchalar bu slayd va prezentatsiya tushunchalaridir.

Prezentatsiyalarni tayyorlash natijasida:

- qatnashuvchilarga tarqatish uchun chop qilingan hujjat;
- kadoskopda foydalanish uchun kalkalar;

- slaydoskoplarda foydalanish uchun 35 millimetrli slaydlar;
- choʻntak daftarchasi;
- elektron prezentatsiyalarni olish mumkin.



PowerPoint muhiti foydalanuvchilarga bugungi axborot mahsulotlarining talablariga javob beradigan prezentatsiyalar yaratish imkoniyatini beradi.

PowerPoint muhiti keng imkoniyatlarga ega va ulardan ba'zilari quyida keltirilgan:

- Taqqimotga tezkorlik bilan o'zgartirish kiritishingiz mumkin;
- Power Point matn terish paytida matndagi imloviy xatolarni tekshiradi;
- Taqqimot tezligi slayd-shou intervallarini sozlash orqali tartibga solinadi;
- Slaydlarni almashtirishda samarali o'tishlar(переход) va audiokuzatmalardan foydalanishingiz mumkin;
- Taqqimot ham rangli, ham kulrang shkalada ham qora-oq rangda taqdim etilishi mumkin;
- Taqqimot kadrlarini oldindan ko'rishorqali chop etish , ularning ko'rinishini qora va oq rangda va agar kerak bo'lsa o'zgartirishlar kiritish mumkin;
- Taqqimot Internet uchun maxsus ishlab chiqilishi mumkin, so'ngra Internetga mos keladigan WEB - formatlardan birida saqlanishi mumkin, masalan HTML;
- Taqqimotlarni jonlantirish maqsadida animatsion GIF-rasmlarni ishlatish qo'llab-quvvatlanadi;

- Yaratilgan taqdimot matnini barcha Evropa tillarida, shuningdek yapon, xitoy, koreys, ibroniy va arab tillarida kiritilishi, ko'rilishi va o'zgartirilishi mumkin;
- Power Point muhitda taqdimotlar ustida ishlayotganda kichik oynada ochiq qoldirilishi mumkin bo'lgan keng kliplar to'plami mavjud. Siz unga o'zingizning rasmingizni, ovozingizni yoki filmingizni qo'shishingiz mumkin;
- Taqdimotni Microsoft Outlook elektron pochta orqali boshqa foydalanuvchiga yuborish mumkin;
- Taqdimotni oflayn rejimda boshqarish mumkin.

PowerPointning asosiy ob'ekti - slayd. Slaydga PowerPoint muhitida yaratilgan ob'ekt va boshqa muhitdan taqdimotga kiritilgan ob'ektlarni kiritish mumkin. Slaydlardan taqdimot shakllantiriladi - fayllar har xil turdagi o'rinishidagi xotira vositalarida saqlanishi mumkin.

Elektron taqdimot uchun yaratilgan slaydlarda matnlar, diagrammalar, har xil formatdagi rasm ob'ektlari va avtoshakllar bo'lishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. MS Power Point dasturi qachon va kim tomonidan yaratilgan?
2. MS Power Point dasturining necha xil modifikatsiyasi mavjud?
3. MS Power Point dasturi qanday ma'lumotlar bilan ishlaydi?
4. MS Power Point dasturi menyusini sanab o'ting?
5. MS Power Point dasturida animatsiyani sozlash tartibini tavsiflang
6. Prezentatsiya so'ziga izoh bering
7. Oddiy taqdimot bilan murakkab taqdimotlar o'rtasidagi farqni tushuntiring.

8- MAVZU
MS POWER POINT DASTURIDA CHAKIRIKKACHA
BOSHLANGICH TAYYORGARLIK MAVZULARIDA
PREZENTATTSIYALAR YARATISH ASOSLARI.

Reja:

- 1. PowerPointda ishlash tartibi.**
- 2. Engil va murakkab PowerPoint tavidimotlarini yaratish.**

Tayanch iboralar: *Microsoft Office Power Point, taqdimot, slayd, menyu, ko'rgazma, uskunalar paneli, gippersilka, gipperbog'lanish, animatsiya.*

O'quv mashg'ulot maqsadi: *talabalarga Power Pointda ishlash tartibinitushuntirish, oddiy va murakkab animatsiya yaratish ko'nikmalarini shakllantirish.*

1. PowerPointda ishlash tartibi.

Power Point dasturi Microsoft firmasining prezentatsiyalar (taqdimot qilish, ya'ni tanishtirish) bilan ishlash uchun eng qulay bo'lgan dasturiy vositalardan biridir. Bu dastur orqali barcha ko'rgazmali qurollarni yaratish, ba'zi joylarda esa undan ma'lumotlar bazasi sifatida foydalanish mumkin. Ayrim hollarda bu dasturda multimedia vositalarini boshqarish va ularni qo'llab, namoyish etuvchi qurilmalarga yuborish vazifalari ham bajariladi. Dasturdagi asosiy tushunchalar bu slayd va prezentatsiya tushunchalaridir.


Prezentatsiya (taqdimot) – yaratilayotgan slaydlar turkumi va uni namoyish etish uchun beriladigan fayl nomi. Masalan: Prezentatsiya - Power Point dasturi ochilganda, sarlavhalar qatorida paydo bo'lib, yaratilgan yoki yaratilayotgan taqdimotning ayni vaqtdagi nomi hisoblanadi. Bu nomni keyinchalik o'z xohishingizga ko'ra almashtirishingiz mumkin.

Slayd ma'lum bir o'lchamga ega bo'lgan muloqot varaqlaridir. Unda biror maqsadda yaratilayotgan namoyish elementlari joylanadi.

Slaydlar ketma-ketligidan iborat tayyor ko'rgazma kompyuter ekranida, videomanitorda, katta ekranda namoyish qilinadi. Ko'rgazmani tashkil qilish – slaydlar ketma-ketligini loyixalash va jihozlar demakdir.

Taqdim etish axborot texnologiyasining samaradorligi ko‘p jihatdan taqdim etuvchi shaxsga, uning umumiy madaniyati, nutq madaniyati va h.k.larga bog‘liq ekanligini ham unutmaslik lozim.

Power Point dasturini ishga tushurish uchun “Пуск” → “Все программы” → «Microsoft Office» → “Microsoft Office Power Point” va natijada Power Point dasturi yuklanadi (8.1-rasm).



8.1-rasm. Power Point dasturini ishga tushurish.

Agar e‘tibor beradigan bo‘lsak, Power Point dasturining interfeysi ham MS Word dasturi bilan deyarli bir xil. Faqat ishchi varag‘i slaydlar yaratish uchun mo‘ljallangan. Power Point dasturining standart uskunalar panelidagi uskunalarining barchasi MS Word dasturining standart uskunalar panelidagi kabi bir xil bo‘lib, bir xil amalni bajaradi. Formatlash uskunalar panelida esa MS Word dasturida yo‘q bo‘lgan ba‘zi bir uskunalar joylashgan. Quyida ana shu uskunalar va ularning bajaradigan amali to‘g‘risida to‘xtalib o‘tamiz.


Belgilangan sohada so‘zlarning o‘lchamini kattalashtirish.

Belgilangan sohadagi so‘zlarning o‘lchamini kichiklashtirish.

Slaydlar quruvchisi.

Slayd yaratish.

Power Point dasturida yangi taqdimot yaratish uchun fayl menyusiga kiramiz va u yerdan buyrug‘ini yoki standart uskunalar panelidagi uskunani sichqonchanning chap tugmachasi yordamida tanlaymiz yoki bo‘lmasa klaviaturadagi [Ctrl+N] tugmalari kombinatsiyasidan foydalanamiz.




8.2-rasm. “Файл” menyusi.

Мавjud faylni ochish

Oldin saqlangan faylni ochish uchun

“Файл” menyusiga kiramiz va u yerdan “Ochish” – [Ctrl+O] buyrug‘ini yoki standart uskunalar panelidagi uskunani sichqonchanning chap tugmachasi bilan bir marta bosamiz(2-rasm). Natijada faylni ochish muloqot oynasi paydo bo‘ladi. Ushbu oynadan kerakli manzildan (disk yoki papkadan) faylni qidirib topamiz.




8.3-rasm. Saqlab qo`yilgan faylni ochish.


Shuni ham aytib o`tish mumkinki, biror bir prezentatsiyani tanlashimiz bilan uning strukturasi qo`shni oynada ko`rinib turadi. Demak, biror bir faylni tanlab “Открит” – ochish tugmachasini sichqonchanning chap tugmachasi bilan bir marta bosamiz. Natijada tanlagan faylimiz ochiladi.

Saqlash Power Point dasturida ham qilingan ishlarni saqlashning bir necha usullari mavjud bo`lib, foydalanuvchi ulardan o`ziga ma`qul kelganidan foydalanishi mumkin.

1.Fayl menyusiga kirib, u yerdan saqlash buyrug`ini tanlash yoki [Ctrl+S] tugmalarini bosish. Agar ushbu holatda faylga oldin nom berilgan bo`lsa, kiritilgan o`zgartirishlarni fayl ustiga saqlab qo`yadi. Agar faylga oldin nom berilmagan bo`lsa, faylni saqlashga nom kiritish va saqlash joyini ko`rsatish muloqot oynasi paydo bo`ladi. Ushbu muloqot oynasining “Имя файла” – fayl nomi bo`limining taklif qatoriga faylga nom kiritiladi va “Сохранит” – saqlash tugmachasi bosiladi. Aksariyat holda saqlash uchun joy “Мои документи” papkasida ko`rsatiladi. Chunki oldingi darslarimizda “Мои документи” papkasi hujjatlarni saqlash uchun maxsus papka ekanligini aytib o`tdik. Ushbu oynaning “Тип файла” bo`limidan fayl tipini belgilashimiz mumkin. Fayl tipi avtomatik tarzda “Prezentatsiya” holatida turadi. Agar biz yaratgan taqdimotimizni Power Point dasturi o`rnatilmagan kompyuterda ham ko`rishni xohlasak fayl tipini “Demonstratsiya Power Point” ko`rinishda belgilaymiz. Fayl kengaytmasi PPS bo`ladi.




8.4-rasim. “Сохранить” menyusi.



8.5-rasm. “Сохранить” menyusi bosqichi.

2. Standart uskunalar panelidagi “Сохранить” uskunasi sichqonchani chap tugmachasi yordamida bir marta bosish. Ushbu xolatdagi saqlash ham xuddi avvalgisi kabi bir xil bo‘ladi.




8.6-rasm. “Сохранить” menyusi bosqichi.

3. Klaviatura orqali [Ctrl+S] yoki [Shift+F12] tugmalarini bosish. Ushbu vaziyatlar ham avvalgilari kabi fayl oldin nom bilan saqlangan bo‘lsa, o‘zgarishlarni fayl ustiga saqlab qo‘yadi. Agar xali nomlanmagan bo‘lsa, saqlash muloqot oynasi chiqadi.

4. Boshqa nom bila saqlash. Boshqa nom bilan saqlash uchun ya’ni oldin saqlangan bo‘lsa unga yangi nom kiritish uchun fayl menyusiga kiramiz va u yerdan soxarnit kak buyrug‘ini tanlaymiz. Klavyaturada esa F12 tugmachasini bosish kerak bo‘ladi. Natijada faylga yangi nom kiritish muloqot oynasi paydo bo‘ladi. Ushbu oynaning ko‘rinishi ham xuddi oldingi saqlash oynasi bilan bir xil bo‘ladi.

5. Avto saqlash. Dasturning yana bir imkoniyati bu kiritilgan o‘zgartirishlarni avtomatik saqlab borishdir. Avto saqlash vaqtini sozlash uchun “Сервис” menyusiga kiramiz va u yerdan “Параметры” – xossalar buyrug‘ini tanlaymiz. Natijada dastur xususiyatlarini o‘zgartirish muloqot oynasi paydo bo‘ladi. Ushbu oynaning “Сохранение” bo‘limini tanlaymiz va “Автосохранение каждые” qismidan vaqtning o‘zimiz uchun ma’qul bo‘lgan variantini tanlab qo‘yamiz. Bu vaqt avtomatik tarzda 10 minutda turadi. Biz esa uni bir oz kamaytirishimiz mumkin. Masalan: 2 min. Bu vaqtni qanchalik


darajada kam yoki ko‘pligi kiritilgan o‘zgartirishlarni tezroq vaqt oralig‘ida saqlab borishni belgilaydi.




8.7-рasm. “Сведения” menyusi

Slaydlarga rasm va boshqa ob’ektlarini qo‘yish

Power Point dasturida ham MS Word dasturidagi kabi rasmlar bilan ishlash paneli mavjud. Ushbu panelda rasmlar bilan ishlash oynasini chiqarish, fayldan rasm qo‘yish, shakllar chizish va turli xil avtofiguralarda foydalanish kabi bo‘limlari bor. “Автофигури” bo‘limida MS Word dasturidan farqli ravishda “Управляющие кнопки”, ya’ni boshqaruvchi tugmalar qismi ham joylashgan. Ushbu bo‘limdan biz o‘zimizga kerakli bo‘lgan boshqarish tugmalarini o‘rnatishimiz mumkin. Boshqarish tugmalari deganda bir slayddan navbatdaxisiga o‘tkazish yoki oxirgi slaydga o‘tkazish kabi ishlarni bajarish tugmalari tushuniladi. Bundan tashqari bu dasturda ham “Вставка” menyusida “Рисунок” bo‘limi joylashgan. Рисунокmenyusini tganlashimiz bilan bizga yaratayotgan slaydimizga suratlarni joylashtirish uchun yordamchi oyna hosil bo‘ladi va hosil bo‘lgan oynadan kerakli bo‘lgan rasm faylini tanlaymiz(8.8-rasm).



8.8-rasm. “Вставка” menyusi.




8.9-rasm. Rasm fayllarni o`rnatish.

Ovoz yoki filmlar o`rnatish. Power Point dasturining imkoniyatlaridan biri unda prezentatsiyalarga ovoz va filmlarni biriktirishdir. Buning uchun “Вставка” menyusiga kiramiz va bu menyudan

ФИЛЬМ И ЗВУК → bo‘limini tanlaymiz. Natijada o‘ng tomonida yangi menyuu ochiladi. Bu menyuda quyidagi bo‘lim va buyruqlar joylashgan:

- Rasmlar kolleksiyasidan film o‘rnatish;
- Fayldan film o‘rnatish;
- Rasmlar kolleksiyasidan ovoz o‘rnatish;
- Fayldan ovoz o‘rnatish;
- Kompakt diskka ovoz yozish;
- Ovoz yozish.


Misol tariqasida fayldan ovoz o‘rnatishni ko‘rib chiqaylik. Buning uchun ФИЛЬМ И ЗВУК bo‘limini tanlaymiz. Natijada ovozli fayllarni qidirib topish muloqot oynasi paydo bo‘ladi. Ushbu oynadan biror bir ovozli faylni tanlab “OK” tugmasini bosamiz. Natijada so‘rov muloqot oynasi paydo bo‘ladi. Agar ushbu so‘rov oynasidan “АВТОМАТИЧЕСКИ” tugmachasini tanlasak qo‘yayotgan ovozli faylimiz namoyish boshlanishi bilan avtomatik tarzda ishlaydi. Agar “По щелчку” tugmachasini tanlasa qo‘ygan ovoz faylimiz sichqoncha yordamida ishga tushirilmaguncha ishlamaydi. Sichqoncha yordamida ishga tushirish degani ovoz znachogi ustida sichqonchanning chap tugmachasini bir marta bosishdir.



8.10-rasm. “Вставка” menyusida ovoz qo‘shish bandi Giperssilkalar o‘rnatish

Giperssilka (Giperbog‘lanish) o‘rnatish mumkinligi Power Point dasturi imkoniyati yanada oshiradi. Giperbog‘lanishni oddiy matnga yoki ixtiyoriy shakllarga bog‘lashimiz mumkin. Misol sifatida oddiy

matnga “Giperssilka” oʻrnatishni koʻrib chiqamiz. Buning uchun biror-bir soʻzni blokka olamiz va sichqonchani oʻng tugmachasini bir marta bosamiz. Natijada kontekst menyusi ochiladi. Bu kontekst menyudan buyrugʻini tanlaymiz yoki “Вставка” menyusiga kirib xuddi shunday buyruq yoki standart uskunalar panelida joylashgan uskunani tanlashimiz, CTRL+K tugmalar birikmasini bosish orqali giperbogʻlanishni oʻrnatishimiz mumkin(8.10-rasm).




8.11-rasm. Giperbogʻlanishni oʻrnatish.

Giperssilka. Ushbu tugmachani tanlaganimizdan soʻng giperbogʻlanish muloqot oynasi paydo boʻladi. Ushbu muloqot oynasida bogʻlanish uchun faylni koʻrsatamiz.

Agar joriy faylni oʻzidan biror-bir slaydga bogʻlamoqchi boʻlsak, slayd nomi va joyini belgilaymiz. Buning uchun “Закладка...” boʻlimini tanlaymiz. Natijada slayd nomini tanlash imkoniyatini beruvchi yangi muloqot oynasi paydo boʻladi. Ushbu muloqot oynasidan bogʻlanishi kerak boʻlgan slaydni sichqonchani chap tugmachasi yordamida aktivlashtiramiz va OK tugmachasini tanlaymiz. Natijada muloqot oynasi yoʻqoladi va oldingi oynaga qaytib qoladi. Boshqa hech narsani oʻzgartirmoqchi boʻlmasak, bu yerda ham OK tugmachasini tanlaymiz.

Animatsiyalar kiritish Power Point dasturida prezentatsiyalarga sodda animatsiyalar biriktirish mumkin. Animatsiya kiritish uchun dastlab animatsiyalar panelini ochib olish kerak. Buning uchun “Показ слайдов” menyusidan buyrugʻini tanlash kerak. Ushbu buyruqni tanlashimiz bilan Power Point dasturining topshiriqlar paneli boʻlimining koʻrinishi oʻzgaradi. Yaʼni u yerda animatsiyali effektlar roʻyxati paydo boʻladi. Bu roʻyxatdan istagan koʻrinishdagi animatsion effektlarni tanlashimiz mumkin. Eslatma sifatida shuni taʼkidlab oʻtish mumkinki, biror-bir effektini tanlashimiz bilan uning qanday koʻrinishdagi animatsiya ekanligi darrov namoyish etiladi va

belgilangan yoki aktiv slaydlar uchun qo‘llaniladi. Animatsiyalar ro‘yxatining pastki qismida joylashgan “Применит ко всем слайдам” tugmachasini bosish bilan tanlagan animatsiyamizni hamma slaydlar uchun qo‘llashimiz mumkin. “Просмотр” tugmachasini bosish bilan yana bir bora slaydimizga kiritgan animatsiyani ko‘rishimiz mumkin. “Показ слайдов” tugmachasining vazifasi esa qilingan ishlarni namoyish etish, ya’ni katta ekranda ko‘rsatishdir. Ushbu amalni klaviaturada [Shift+F5] tugmachasi bajaradi. E’tibor beradigan bo‘lsak, oynaning pastki qismida joylashgan “Автопросмотр” bo‘limiga belgi qo‘yilgan holatda turibdi. Agar biz ushbu belgini olib qo‘yadigan bo‘lsak, animatsiyani tanlashimiz bilan uning qanday animatsiya ekanligi bizga namoyish etilmaydi.



8.12-rasm. “Анимация” menyusi

Animatsiyalarni sozlash

Animatsiyalarni sozlash uchun “Показ слайдов” menyusidan “Настройка анимации” buyrug‘ini tanlaymiz. Ushbu “Настройка анимации” buyrug‘ini tanlashimiz bilan yana topshiriqlar paneli oynasining ko‘rinishi o‘zgarib qoladi. Ushbu panelning “Добавит эффект” – effekt qo‘shish tugmasi orqali tanlagan slaydimizga yoki ob’ektimizga yangi animatsiyali effekt biriktirishimiz mumkin bo‘ladi. Ushbu tugmachani tanlashimiz bilan kontekst menyusi paydo bo‘ladi. Ushbu kontekst menyusidan animatsiyalarni kirishda (Вход) yoki chiqishda qanday ko‘rinishda bo‘lishini belgilashimiz mumkin. Misol tariqasida kirishga animatsiya qo‘yishni ko‘radigan bo‘lsak, “Вход”

tugmachasini tanlashimiz bilan yana yonida yangi kontekst menyu ochiladi.

Ushbu kontekst menyuning yuqori qismidan animatsiyalarni tanlashimiz mumkin. Bu yerdagilardan tashqari boshqa animatsiya qo‘yimoqchi bo‘lsa, “Другие эффекты” bo‘limini tanlashimiz kerak bo‘ladi. “Другие эффекты” bo‘limini tanlashimiz bilan yangi effektlarni tanlash – “Добавление эффекта входа” muloqot oynasi paydo bo‘ladi. Paydo bo‘lgan muloqot oynasidan qo‘shimcha effektlardan o‘zimizga yoqqanini tanlab “ОК” tugmachasini bosish bilan ishni yakunlaymiz. “Выход” bo‘limidan ham chiqish uchun animatsiyalarni shu tartibda bajarishimiz mumkin. “Удалит” – o‘chirish bo‘limidan esa qo‘yilgan animatsiyalarni o‘chirib tashlashimiz mumkin.

“Начало” – boshlash bo‘limidan qo‘yilgan effektlarni namoyish vaqtida qay vaziyatdan boshlanishini belgilashimiz mumkin. Ya’ni agar xohlasak har bir effektni boshlash uchun klaviaturadagi yo‘naltiruvchi tugmachalar yoki sichqonchanning tugmachasini bosib turib o‘tkazishga sozlashimiz mumkin. Buning uchun “Начало” bo‘limidan kerakli xolatni tanlashimiz lozim bo‘ladi. Agar effektlarning birin-ketin avtomatik tarzda namoyish etilishini yoki ma’lum vaqt oralig‘ida chiqishini ta’minlamoqchi bo‘lsak, ularning lozim bo‘lgan holatini tanlashimiz kerak. Effektlarning boshqa xossalarini (oralig‘ vaqt va boshq.) o‘rnatish uchun sichqonchanning o‘ng tugmachasini bir marta bosamiz. Natijada kontekst menyu hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan kontekst menyudan “*Параметры эффектов*” bo‘limini tanlaymiz. Natijada effektlarning qo‘shimcha xossalarini o‘rnatish muloqot oynasi paydo bo‘ladi. Muloqot oynasi uchta zakladkadan iborat bo‘lib, ular “эффект”, “время” va “анимация текстов” deb ataladi. “Эффект” zakladkasidan animatsiyalarni qo‘shimcha parametrlari o‘rganiladi. Masalan ovoz qo‘shish yoki animatsiyadan keyingi holat. “Время” zakladkasidan esa animatsiyalar oralig‘idagi vaqtlarni sozlash imkoniyatiga ega bo‘lamiz. “Анимация текста” zakladkasidan matnlarning effektlarini belgilashimiz mumkin. Masalan, hamma matnlarni bitta ob’ekt ko‘rinishida belgilash yoki alohida abzaslar ko‘rinishida belgilash kabi.


“Порядок” – tartiblash bo‘limidan ob’ektlarni animatsiya paytidagi navbatini o‘zgartirishimiz mumkin.

“Просмотр” tugmachasini tanlash orqali slaydga qo‘yilgan effektlarni yana bir bora ko‘rish tekshirish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

“Показ слайдов” tugmachasini bosish bilan aktiv slaydni namoyish etib ko‘rish mumkin. Bu ishni klaviatura orqali [Shift+F5] tugmachalari kombinatsiyalaridan foydalanib ham amalga oshirsak bo‘ladi.

Фон qo‘yish

Tayyormoqchi bo‘lgan prezentatsiyamizning qanchalik darajada kishi e‘tiborini jalb qilishi uning foniga bog‘liqdir. Fon o‘rnatishda Power Point dasturning tayyor shablonlaridan yoki o‘zimiz tayyorlagan ixtiyoriy rasmdan fon sifatida foydalanishimiz mumkin. Power Point dasturining tayyor shablonlaridan foydalanish uchun formatlash uskunalari panelida joylashgan “Конструктор” “slaydlar quruvchisi” uskunasi tanlaymiz. Natijada topshiriqlar panelida “Слайд дизайнера” paydo bo‘ladi. “Слайд дизайнера” panelidan “Шаблон оформления” bo‘limini tanlaymiz. Ko‘p holda avtomatik tarzda shu bo‘limning o‘zi tanlangan holatda bo‘ladi. Shablon o‘rnatilgan bo‘limning pastki qismida turli xil ko‘rinishdagi shablonlar joylashgan. Slayd uchun ulardan o‘zimizga yoqqanini sichqoncha yordamida tanlab qo‘llashimiz mumkin. Bundan tashqari “Световые схемы” bo‘limidagi rangli sxemalardan fon sifatida foydalanishimiz mumkin.



8.12-rasm. “Дизайн” menyusi.

Taqdimotni tayyorlash bosqichlari

1. Kerakli materiallar yig‘iladi (foto, video, musiqa, matnlar).
2. Papkani ochib materiallar ushbu papkada saqlanadi.
3. “Fayl” menyusida “Создат” [ctrl+N] orqali prezentatsiya yaratish. Bunda “Создат презентацию” muloqot oynasi paydo bo‘ladi.
4. “Дизайн презентации” vkladkasi orqali ixtiyoriy prezentatsiya turi tanlanadi va OK yoki Enter bosiladi.

5. Keyin “Создат слайд” muloqot oynasi paydo bo‘ladi, bunda slayd qanday turda yaratilishi tanlanadi va OK bosiladi.

6. Sichqonchani bir marta turtish orqali kerakli matn kiritiladi.

7. “Вставка” menyusidagi “рисунок” menyusidan “картинки” yoki “стандарт” instrumentlar panelidagi “Добавит картинку” tugmachasi orqali “Microsoft Clip Gallery 3.0” dan kerakli rasm tanlanadi va “Вставит” orqali slaydga qo‘yiladi. Ob‘ekt o‘lchamlarini vizual o‘zgartirish mumkin.

8. “Вставка” menyusidagi “Создат слайд” yoki “Стандарт” instrumental panelidagi “Sozdat slayd” orqali ikkinchi slayd yaratiladi.

9. Kerakli ob‘ektlar, rasmlar, matnlar kiritiladi va bir nechta slayd yaratiladi. “Показ слайдов” menyusida slaydlar almashinish effekti tanlanadi. Bunda sekin “открывание вправо-вверх”, tertish orqali yoki avtomatik 2 sekunddan keyin slayd almashinishini tanlaymiz va “применит ко всем” orqali barcha slaydlarga tatbiq etamiz.

10. “Pokaz slaydov” menyusidagi “Nastroyka animatsii” bo‘limi orqali slaydlardagi ob‘ektlar, so‘zlarning ekranda paydo bo‘lish turlarini tanlaymiz. Misol uchun, O‘zbek tili darsi so‘zlarining effekt vkladkasi orqasida “Вращение” effektining – “Poyavlenie teskta po slovam” turini tanlaymiz. “Vremya” vkladkasi orqali “Vklyuchit” yoki “Viklyuchit” orqali ob‘ekt yoki tekstlar animatsiyaga kiritiladi yoki olib tashlanadi.


11. “Pokaz slaydov” menyusidagi “Pokaz” qism menyusini orqali prezentatsiya namoyish qilinadi.

2. Engil va murakkab PowerPoint tavidimotlarini yaratish.

Taqdimot tayyorlash bosqichlari.


▲ 1. «Пуск» – «Все программы» – Microsoft Office – Microsoft Office PowerPoint 2010 amallar ketma –ketligini bajarib Taqdimotlar tayyorlash dasturi PowerPoint ni ishga tushuring. Ekranda dasturning quyidagi ishchi oynasi hosil bo‘ladi. «Главная» menyusidan «Слайды» bo‘limining «Создать слайд» bandiga murojaat qilinib sichqonchani chap tug‘masi bosilganda quyidagi oyna hosil bo‘ladi.

2. «Дизайн» menyusining «Темы» bandi orqali tayyorlamoqchi bo‘lgan taqdimotingiz uchun umumiy ko‘rinish tanlang. Buning uchun oynaning yuqori qismida ko‘rsatilgan temalardan birini tanlab, sichqoncha chap tug‘masini 1 marta bosing (qarang: 8.13.-rasm.).



8.13.-rasm. «Дизайн» menyusi.

▲3. «Заголовок слайда» yozuvi ustiga sichqoncha chap tugmasini bosib «Murakkab animatsiyalar yaratish» yozuvini kiriting. Yozuvlar ko‘rinishini «Форматирование» paneli tugmalari yordamida o‘zgartirishingiz mumkin (qarang: 8.14.-rasm.).




8.14.-rasm. «Форматирование» paneli tugmalari.

Oynada yozuv quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi (qarang: 8.15.-rasm.).




8.15.-rasm. Microsoft Power Point oynasining ko‘rinishi.

▲4. «Murakkab animatsiyalar yaratish» yozuvi ustida sichqoncha tugmasini bir marta bosning. Menyular satridan «АНИМАЦИЯ» bo‘limini tanlang va yozuvni ekranga chiqish holatini belgilash uchun rasmda yordamida ko‘rsatilgan belgi ustiga sichqonchani keltirib chap tugmasini bir marta bosning (qarang: 8.16.-rasm.).



8.16.-rasm. «Murakkab animatsiyalar yaratish»


Экранда quyudagi ko‘rinishda oyna hosil bo‘ladi (qarang: 8.17.-rasm.).




8.17.-rasm. Effektlarning umumiy ko‘rinishi.

▲5. Bu oynadan yozuvning ekranga paydo bo‘lish holatini tanlash mumkin. Buning uchun oynadagi ko‘rinishlarning birini ustiga sichqonchani keltirib chap tugmadi bosiladi. Yozuv qanday ko‘rinishda ekranda paydo bo‘lishi ko‘rinadi. So‘ng «Анимация» menyusining «Расширенная анимация» bo‘limidan «область анимация» bandi tanlanadi.

▲6. Ekrannig o‘ng qismida «област анимация» oynasi hosil bo‘ladi (rasmga qarang).

 - yozuvini o‘ng tomonidagi qizil rangli tugmani bosganda rasmdagidek maxsus buyruqlar ketma- ketligi hosil bo‘ladi.

Bundan «Параметры эффектов» bandini tanlab quyidagi «Вращение» oynasi hosil qilinadi (qarang: 8.18.(a, b)-rasm.).




8.18. (a, b)-rasm. Effektlarni ishga tushirish ketma- ketligi.

▲7. Bu oynadan «Время» bo‘limi ustida sichqoncha chap tugmasini keltirib bir marta bosiladi. Ushbu oynadagi «Начало»: ro‘yxatini ochib, shu ro‘yxatdagi 3 ta holatga e‘tibor bering. Bunda har bir obektni animatsiya orqali ekranda ko‘rinishi ketma – ketligi keltirilgan: «По щелчку» holati tanlansa obyekt ekranda siz sichqoncha chap tugmasini bir marta bossangiz yoki klaviaturadagi «Пробел» klavishasini bir marta bossangiz paydo bo‘ladi. «С предыдущим» holati tanlansa oldingi obyekt bilan parallel va «После предыдущего» holati tanlansa oldingi obyekt paydo bo‘lgandan so‘ng navbat bilan ekranga chiqariladi. iz «После предыдущего» holati tanlanadi. «Задержка» bandida animatsiyaning ekranda ushlab turish vaqti berilgan. «Продолжительность» bandida obyektning paydo bo‘lish tezligi tanlanadi. Siz «Медленно» («Секин») holatini tanlang. Har bir amalni bajarganda ishchi sohada bo‘layotgan jarayonga e‘tibor bering.

Oddiy shakllarga animatsion effektlar qo‘yish usullari.

▲1. Oddiy geometrik figuralarning animatsion effektlar yordamida hosil bo‘lishini ko‘rib o‘tamiz. Buning uchun Dizayn menyusidan rasmda ko‘rsatilgan bandni tanlab olinadi. So‘ng


yuqoridagi holat kabi «Uchburchaklar» yozuvi yoziladi va animatsion effektlar beriladi (qarang: 8.19.-rasm.).



8..19.-rasm. Dizayn menyusi.


▲2. «Вставка» menyusining «Иллюстрация» bo‘limidan «Фигуры» bandi ochiladi va uchburchak yasash uchun vektorlar tanlab olinadi, keyin bu vektorlar orqali ixtiyoriy uchburchak yasaladi.

▲3. Bu uchburchakka animatsion effect berish uchun «Анимация» menyusining «анимация» bo‘limi ochiladi (rasmdagiga asosan) va «Дополнительные эффекты входа» bandi tanlanadi (qarang: 8.20.-rasm.).




8.20.-rasm. «Дополнительные эффекты входа» bandi.

Ekranida quyidagi «Изменение эффекта входа» muloqot oynasi ochiladi (qarang: 8.21.-rasm.).



8.21.-rasm. «Изменение эффекта входа»

▲4. «Изменение эффекта входа» yozuvi joylashgan sarlavha satriga sichqoncha ko'rsatkichini olib borib, chap tugmani bosib harakatlantirish orqali muloqot oynasini ishchi sohaning o'ng tomoniga o'tkazib, ishchi soha yozuvlarining qisman ko'rinishiga erishing.




8.22.-rasm. Ushbu muloqot oynasida mavjud effektlar ro'yxati.

▲5. Ushbu muloqot oynasida mavjud effektlar ro'yxatidan ixtiyoriy birini tanlang va ishchi sohada yozuv holatiga e'tibor bering.

Ushbu ro‘yxatdan boshqa effektlarni ham tanlab ko‘ring va yozuvning harakatlanishiga e‘tibor bering. Misol sifatida effektlar xususiyatlari va parametrlarini o‘rganish maqsadida «Круговой» effektini tanlang va «ОК» tugmasini bosing. Barcha berilgan animatsion effektlar oynaning o‘ng qismiga ko‘rsatib turiladi (qarang: 8.22.-rasm.).

▲6. «Анимация» menyusining «Время показа слайдов» bo‘limidagi «Начало» bandini tanlab «По щелчку» so‘zi tanlanadi, «Длительность» bandiga 02,00 sonini va «Задержка» bandiga ixtiyoriy sonlarni qo‘yib, hosil bo‘lgan ozgarishlarni kuzatamiz. Berilgan snimatsion effektlarning mos ravishda tanlanganligini oynaning o‘ng qismida joylashgan «Область анимации» muloqot oynasining «Просмотр» buyrug‘i yordamida ko‘rib boriladi. Taqdimot yaratish jarayonida ixtiyoriy shakllarga animatsion effektlar berish yuqorida olib borilgan tartibda amallar bajariladi.

Prezentatsiyani kompyuter xotirasiga yozib qo‘yish va xotiradagi faylni ochish. Bir nechta slayddan iborat, animatsiyalar o‘rnatilgan prezentatsiya hosil qilganimizdan keyin uni kompyuter xotirasiga yozib qo‘yish kerak bo‘lsa, «Стандартная» panelidan «Сохранить»  tugmasidan foydalanishimiz mumkin. «Сохранение документа» oynasining «Имя файла» sohasida yaratilgan prezentatsiyaga mos nom yoziladi va «Сохранить» tugmasi bosiladi.

Nazorat savollari.

1. MS Power Point dasturi nima maqsadlarda ishlatiladi?
2. MS Power Point dasturi yordamida slaydlar ustida qanday amallarni bajarish mumkin?
3. Slaydda qaysi turdagi obyektlarni va qanday joylashtirish mumkin?
4. Prezentatsiyani kompyuter doimiy xotirasiga qanday yozish mumkin?
5. «Стандартная» paneli tugmalarini tavsiflab bering?
6. MS Power Point dasturida obyektlarni guruhlash qanday amalga oshiriladi?
7. MS PowerPoint dasturi qanday qilib yuklanadi?

9-MAVZU. PREZI.COM DASTURINING ASOSLARI

Reja:

1. **PREZI.COM-ning xususiyatlari.**
2. **PREZI.COM imkoniyatlarini namoyish etish.**
3. **PREZI.COM xizmatlaridan foydalanish shartlari.**
4. **PREZI.COM da ishlash uchun kompyuter konfiguratsiyasi.**

Tayanch iboralar: *PREZI.COM dasturi, taqdimot, multimediya, xususiyat, konfiguratsiya, kompyuter, funktsiyalar, onlayn servis, slyd, dastur, dasturiy vosita, brauzer, dasturiy ta'minot.*

O'quv mashg'ulot maqsadi: *talabalarni PREZI.COM dasturi bilan tanishtirish, PREZI.COM dasturida ishlash uchun zarur bo'lgan konfiguratsiyalarini tushuntirish va uning imkoniyatlari bilan tanishtirish.*

1. PREZI.COM-ning xususiyatlari.

Kompyuter texnologiyalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi ma'ruza darslarining xam shaklini o'zgartirishni talab etmoqda. Ma'ruzachi cheklangan xajmdagi vaqt orlig'ida belgilangan mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni o'rganishga yo'naltiruvchi ko'rsatma va izoxlar beradi. Bunday sharoitda o'qitish sifati va samarasini oshirish uchun o'quv materialini vizuallashtirish muxim o'rin tutadi.

Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia ma'ruzalarda o'quv materialining grafik, tasvir va animatsiyalar bilan keng qamrab olinishi o'qituvchiga mavzu bo'yicha ko'proq axborot berish va tushuntirish uchun chegaralangan vaqtdan unumli foydalanish imkonini beradi. Taqdim etilayotgan materiallarning vizualligi talabalarning esda saqlab qolish darajasini xam oshiradi.

Ta'lim muassasalarida dars mashg'ulotlarini tashkil etishda samaradorlikni hamda mavzu mazmundorligini oshirish maqsadida didaktik vosita hamda elektron manba sifatida qo'llaniluvchi taqdimotlarni yaratish dasturlari imkoniyatlarini o'rganish o'qituvchilarning kompyuter savoxonligini oshirish hamda ularning kasbiy faoliyatlarida unumdorlikni oshirishga imkon beradi. Prezi dasturi imkoniyatlarini o'rgatuvchi multimediali qo'llanma yaratish

fani o‘qituvchilarini dars mashg‘uloti mazmunini boyitish hamda mavzuda berilishi lozim bo‘ligan bilimlarning to‘liq qamrab olinishi uchun amaliy yordam beruvchi taqdimot yaratish dasturiy vositalaridan biri sifatida o‘qitiladi. Ushbu mavzuda talabalarga mavzu mazmunini boyitish orqali namoyishlar ishlab chiqish, turli xil maqsadlar uchun video ishlanmalar, audio-video namoyishlar hamda ularning formalarni o‘zgartirish yoki yangi yaratish o‘rgatiladi. Bitiruv malakaviy ishida keltirib o‘tilgan Prezi dasturi imkoniyatlarini o‘rgatuvchi multimediali qo‘llanma yaratish mavzusi ham aynan manashu yo‘nalishda foydalaniladigan videoma’lumotlarni, taqdimotlarni hamda o‘rgatuvchi mahsulotlarni yaratishga mo‘ljallangan dasturiy ta’minot imkoniyatlarini o‘rganish nazarda tutiladi.

Ushbu yo‘nalishda juda ko‘plab dasturiy vositalar ishlab chiqilgan, lekin ushbu o‘nalish bo‘yicha yangi dasturiy instrumentlar ham yaratilmoqdaki, ularni imkoniyatlari yanada kengroq va ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda. Shunday dasturiy vositalradan biri Prezi dasturi hisoblanadi. Bu dasturiy vosita ham o‘quvchiga turli tipdagi taqdimotlarni yaratish uchun mo‘ljallangan dasturiy vosita hisoblanadi.

Prezi — onlayn rejimida interaktiv taqdimotlarni ishlab chiqish dasturiy vositasi hisoblanadi.

Yaratiladigan taqdimot o‘zida kuchli instrumentlarni ifoda etib, yanada qulay va keng imkoniyatli namoyishlarni tashkil etish imkonini beradi. Odatda biz taqdimotlarni yaratish uchun Microsoft Office dasturiy mahsulotlar to‘plamidagi PowerPoint dasturiy ta’minoti imkoniyatlaridan foydalanamiz. Lekin oxirgi vaqtlarda taqdimot yaratishga mo‘ljallangan dasturiy majmualar o‘zining imkoniyati bilan PowerPoint dasturidan qolishmaydigan ko‘plab turlari ishlab chiqarilmoqda. Mana shunday dasturiy ta’minotlardan biri Prezi dasturi hisoblanadi

Prezi — bu masofali xizmat ko‘rsatuvchi interaktiv taqdimot yaratuvchi dasturiy vosita hisoblanadi. Bu dasturiy ta’minotni qo‘llash uchun internet tarmog‘idan //prezi.com adresi bo‘yicha o‘tiladi va shu saytda ro‘yxatdan o‘tiladi. Ro‘yxatdan o‘tish jarayonida foydalanuvchi



o'zi tashkil etgan elektron pochta nomidan foydalangan holda registratsiyadan o'tishi mumkin bo'ladi.

Prezi.com-ning xususiyatlari

- Rivojlangan funksionallikka ega zamonaviy taqdimot dizayneri.
- Intuitiv interfeys.
- Ajam foydalanuvchilar uchun ham ajoyib infografika yarating.
- Tayyor taqdimot shablonlarining katta kutubxonasi.
- Turli xil effektlarning keng doirasi.

Kamchiliklari orasida rus tilida Prezi versiyasining yo'qligi va bepul foydalanishning cheklangan muddati (30 kun) mavjud. Aks holda bu ajoyib taqdimot dasturi.

Prezi.com-ning funktsiyalari

- Taqdimotlarni yaratish (har qanday qulay joyda hamkasblar bilan birgalikda).
- Sizning fikrlaringiz bir-biriga qanday bog'liqligini ko'rsatadi.
- Tayyor slaydlar (shablonlar va blanklar) yaratish.
- Taqdimotingizni boyitish va esda qolarli qilish uchun tasvirlardan va hatto videodan foydalaning!
- Qaerdan boshlashni bilmasangiz, shablonlarning keng kutubxonasini ko'rib chiqing.
- Taqdimotingizni istalgan qurilmada tahrir qiling - keyinroq barcha qurilmalarda bir xil ma'lumotlarni olish uchun uni sinxronlashtirishingiz kerak.
- Xizmat ingliz tilida bo'lishiga qaramay, taqdimotlar rus tilida ham bo'lishi mumkin.

Evropada millionlab foydalanuvchilarning ishonchini qozongan oddiy, zamonaviy vosita. Moslashuvchan variantlar va foydalanuvchilarga qulay interfeys bilan Prezi taqdimotni yangi sifat darajasiga ko'taradi. Endi har bir kishi ushbu ajoyib dasturning keng imkoniyatlaridan foydalangan holda ajoyib infografikani osongina yaratishi mumkin.

Ajoyib o'tish, hajmini o'zgartirish, musiqiy fon va boshqa narsalar bilan haqiqatan ham yuqori sifatli taqdimotlarni yarating. Sizning ixtiyoringizda shablonlarning ulkan kutubxonasi mavjud bo'lib, ularni doimiy ravishda dastur foydalanuvchilari to'ldirib turishadi. Har bir shablonni fon, shriftlar, slaydlar tartibi, o'tish tezligi va boshqalarni o'zgartirish orqali to'liq tahrirlash mumkin. Siz tartibni tanib

bo'lmaydigan darajada o'zgartirishingiz yoki o'zingizning loyihangizni noldan yaratishingiz mumkin, bu esa, juda oddiy.


Dastur zamonaviy uslubda do'stona interfeysga ega. Barcha asboblar yuqori panelda chiroyli tarzda guruhlangan, chap tomonda slaydlar qo'llanmasi va o'ng tomonda juda qiziqarli sozlash paneli mavjud. Barcha elementlar joyida va umumiy interfeys bilan to'liq mos keladi.

2. PREZI.COM imkoniyatlarini namoyish etish.

Multimedia texnologiyalari – bu multimediali maxsulot yaratish jaraènidagi texnik va dasturiy vositalarni tanlash va qo'llash jaraèniga aytiladi. Multimedia texnologiyalarining asosiy maqsadi – axborotni qabul qilishda sodda va qulay bo'lgan multimedia maxsulotini yaratishdan iborat. Bugungi kunda multimedia texnologiyalari inson faoliyatida, ya'ni biznes, ta'lim, tibbièt, xarbiy va boshqa sohalarda keng qo'llanilib kelinmoqda. Bu faoliyat yo'nalishlarida multimedia maxsulotlarini yaratish uchun keng ko'lamdagi dasturiy vositalar mavjud. Ularning ayrimlari multimedaning alohida komponentalari bilan ishlashga mo'ljallangan. Multimedia ta'rifiga kura oddiy tuyulsa xam, u bilan ishlash jaraèni murakkab xisoblanadi. Multimediani bilish bilan bir katorada multimedaning texnik va dasturiy vositalarini xam bilish lozim. Multimediali axborotlardan birgalikda ilovalarini yaratuvchilar mutaxassislarni multimedia yaratuvchilar deb ataymiz.

Multimedia texnologiyalari (multi – ko'p, media – muhit) – bir vaqtning o'zida ma'lumot taqdim etishning bir nechta usullaridan foydalanishga imkon beradi : matn, tasvir, audio va video. Multimediali texnologiyaning eng muhim xususiyati interfaollik – axborot muhiti ishlashida foydalanuvchi ta'sir o'tkaza olishga qodirligi xisoblanadi. So'nggi yillar davomida ko'plab multimediali dasturiy maxsulotlar yaratildi va yaratilmoqda: ensiklopediyalar, o'rgatuvchi dasturlar, kompyuter taqdimotlari va boshq. Multimediali elektron ta'lim resurslarini yaratish muallifning mahorati, tajribasi va fantaziyasiga bog'liq. Multimediali elektron ta'lim resurslarini yaratishning usullarini shartli ravishda ikki qismga ajratish mumkin - Dasturlash tillaridan foydalangan holda (ko'p mehnat talab qilinadi) - Instrumental tizimlardan foydalanish

Taqdimot yaratish uchun dastur oynasidan *New Prezi* tugmasini bosiladi. Shundan so‘ng brauzer oynasida yangi oyna ochiladi va bu yerda ko‘plab shablonlar taklif etiladi. Agar shablonlardan foydalanishni istamasangiz, yangi bo‘sh listdan ish boshlashni xoxlasangiz *Start blank prez* variantini tanlaymiz.



9.1-Rasm. Taqdimot yaratishda shablon tanlash oynasi

Mavzuga mos keluvchi shablonni tanlash orqali o‘zimizga kerakli shaklni olamiz va uni ichidagi mazmunlarini o‘zgartirish hisobiga yangi taqdimot hosil qilamiz. Buning uchun taqdimot redaktoridan foydalaniladi. Ishchi sohani ixtiriy qismida sifqonchani tugmasini bosib ajratib olsak, shu qismini tahrirlash imkoniyati ochiladi. U holda shablondagi mavjud matn, tasvri, bosh sarlavhalarni qayta tahrirlash mumkin bo‘ladi.



9.2-Rasm. prez taqdimotini tahrir qilish oynasi

Taqdimot bilan ishlashda kerak bo‘ladigan asosiy instrumentlar ekranning yuqori qismida joylashgan bo‘lib, ular uchta menyular shaklida guruhlariga ajratilgan.

- **Frames and Arrows:** turli formadagi maydon qismlarini ajratish va ularni taqdimotda yangi slaydlar shaklida qo‘shish imkonini beradi.

- **Insert:** o‘zimizga kerakli ma’lumotlar sifatida tasvirlar, videolar va boshqa fayllarni qo‘shish imkonini beradi. Shu yerda foydalanish uchun juda katta bibliotekaga ega bo‘lgan klipartga ahamiyat berish lozim. Bu yerda taqdimotni nazorat qilishda foydalaniluvchi musiqalarni ham berish imkoniyati mavjud.

- **Theme:** bu menyu vizual jihozlashga javob beradi. Bu menyu yordamida taqdimot uchun ixtiyoriy vaqtda boshqa temani tanlash hamda alohida elementlarni o‘zgartirish imkoniyatlariga ega bo‘lish mumkin.

Ish jarayonining ixtiyoriy bosqichida taqdimotni nitajasini ko‘rish mumkin. Buning uchun ekranning yuqori qismida *Present* nomli tugma mavjud. Bu tugmaning yonida esa, bekor qilish hamda saqlash tugmalari ham mavjud. Prezi dasturining servis xizmatida jarayonda bajarilgan ishlarni avtomatik saqlash rejimi ham mavjud bo‘lib, dasturdan chiqishdan avval albatta shu tugmani bosish tavsiya etiladi.



9.3-Rasm Taqdimotni saqlash oynasi.


Tayyorlangan taqdimot ishini saqlash bo‘yicha chuqurroq to‘xtalib o‘tamiz. Birinchidan, yaratilgan taqdimotga shunday ishorat ko‘rsatiladiki, u bajarilgan ishni reklama qilish, tarqatishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, on-layn taqdimot o‘tkazish

imkoniyatiga ega bo‘linadi. Buning uchun maxsus sahifa mavjud bo‘lib, unda taqdimotdan foydalanuvchilar belgilangan vaqt oralig‘ida sizni yaratgan taqdimotingizni ko‘rishlari va foydalanishlari mumkin bo‘ladi.

Taqdimotni saqlashning yana bir usuli uchun PDF formatida saqlash imkoniyati ham mavjud.


Yana bir imkoniyatlaridan biri, yaratilgan taqdimotni agar internet tarmog‘iga ulanish bo‘lmasa, taqdimotni kompyuterga ko‘chirib olish va uni avtonom rejimida qo‘llash imkoniyati ham mavjud.

Prezi dasturini ishga tushiring. Sahifaning yuqori qismdagi «Create» tugmasini tanlang.
«Your Prezis» qatoridagi «+New Prezi» tugmasini tanlang.




9.4-Rasm Taqdimotni ish oynasi.

Taqdimot uchun eskiz tanlanadi. Ish sohasiga xohlagan kadrlarni joylashtirng. Prezi uchun dizayn tanlanadi. Taqdimot yaratishda yaxshi natijaga erishish uchun taqdimotni oldindan ko‘rish effektini tashkil etish lozim.



9.5-Rasm Taqdimotni ish sohasi.


Taqdimot asosi uchun tayanch nuqtalar tanlab joylashtiriladi. Bu nuqtalar – kordinatsion nuqtalar deb tasavvur qilinadi, har bir kadrni yaratganda shu nuqtalarga tayanib ish tutiladi.



9.6-Rasm Taqdimotni ish sohasi.


Prezi dasturida taqdimot yo'nalishli tarzda beriladi. Yo'nalishda taqdimot bir kadrda ikkinchi kadrda o'tishi ta'minlanadi.

Yo'nalish chiziqli ketma–ket harakat qilish o'rniga, har xil tartibda harakatlanadi.



9.7-Rasm Taqdimotni ish sohasi.


Taqdimot rejalashtirilgan vaqtda kamera eskiz bo'ylab harakatlanadi. Prezi ob'yektlarni kattalashitirish, kichiklashtirish va aylanish imkoniyatiga ega.



9.8-Rasm Taqdimotni ish sohasi.

Bugungi kunda ko'plab dasturlar Internetga o'tdi va Prezi Desktop ham bundan mustasno emas. Dastur ish stoli sifatida ishlaydi, shuningdek Internet xizmati sifatida ishlaydi. Agar sizda doimiy tarmoq ulanishi bo'lsa, kompyuterda yaratilgan prezentatsiyalar avtomatik ravishda serverga o'tkaziladi, bu juda qulaydir. Agar boshqa kompyuterda Internet bo'lsa, taqdimotingizni USB flesh haydovchiga yozib qo'yishingiz shart emas. Albatta, agar siz o'zingizning ishingizni

tarmoqqa yuklashni xohlamasangiz, u holda avtomatik yuklashni o'chirib qo'yishingiz mumkin.



9.9-Rasm Taqdimot ko‘rinishini tanlash oynasi.

3. PREZI.COM xizmatlaridan foydalanish shartlari.

Prezi-ni qanday ishlatish kerak ham onlayn versiyada, ham shaxsiy kompyuterlarda, mobil telefonlarda va planshetlarda. Sizga mavjud bo'lgan ko'plab shablonlardan biri yordamida prezentatsiya qilishning batafsil tartibini va xususiylashtirish va animatsiyalarni qanday qo'llashni ko'rsataman. Shuningdek, men sizga mobil qurilmangizdan foydalanish tartibini ko'rsataman **masofadan boshqarish** Kompyuterda ishlashga hojat qoldirmasdan kurs davomida taqdimotda bemalol ilgarilash. Qiziq, to'g'rimi?

Agar siz ko'proq ma'lumot kuta olmasangiz, qulayroq bo'ling va shu mavzu bo'yicha darhol o'qing. Besh daqiqa bo'sh vaqtni oling, quyidagi bandlarni diqqat bilan o'qing va men sizga bermoqchi bo'lgan ko'rsatmalarga amal qilishga harakat qiling. Sizni ishontirib aytamanki, Prezi bilan taqdimot o'tkazish juda oson bo'ladi. Bularning barchasi sizga baxtli o'qish va barchangizga omad tilashdir!

Prezi narxlari

Prezi Bu bepul xizmat, ammo sizning hisobingizning funktsional imkoniyatlarini oshirish uchun obuna rejasiga obuna bo'lish imkoniyatini taqdim etadi. Pulli foydalanuvchilar uchun saqlab qo'yilgan qo'shimcha funktsiyalar telefonni qo'llab-quvvatlash,

taqdimot statistikasiga kirish va oflayn rejimda ishlash imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. To'rt qavat mavjud.

- **Baza (bepul):** Bu Prezi-ga birinchi marta kelgan foydalanuvchilarga bag'ishlangan rejadir. Qo'shimcha funktsiyasiz taqdimotlarni yaratishga imkon beradi.

- **Standart (oyiga 7 evro)-** Bu eng arzon obuna rejasi, bu sizga taqdimotlarni yaratishdan tashqari, shaxsiy ma'lumotlaringizni sozlash va ularni shaxsiy va bekor qilinadigan havolalar bilan bo'lishish imkonini beradi.

- **Plus (oyiga 19 evro):** standart rejaning funktsiyalaridan tashqari, kompyuter dasturlari va mobil ilovalarni yuklab olish orqali masofadan turib kirish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, u taqdimotga video, audio rivoyatlarni qo'shishga imkon beradi va yakuniy ishni formatga eksport qilishga imkon beradi **PDF**.

- **Premium (oyiga 59 evro):** bu barcha xususiyatlarning to'liq rejasi. Plus rejasi bilan taqqoslaganda, u taqdimot statistikasiga kirish, muammolar yuzaga kelgan taqdirda telefon orqali yordam olish va ehtiyojlaringizga moslashtirilgan zamonaviy onlayn treninglardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Barcha obuna rejalarida yillik hisob-kitoblar bor va ular bitta taklif qilishini bilishingiz kerak **14 kunlik bepul sinov**, hech qanday cheklovsiz faollashtirilishi mumkin.

Prezi-da qanday ro'yxatdan o'tish kerak

Prezi-da ro'yxatdan o'ting Xizmat qanday ishlashini tushunishning eng yaxshi usuli. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, asosiy rejaga qo'shimcha ravishda, yangi foydalanuvchilar 14 kunlik bepul sinovdan cheklovlarsiz va yangilanishsiz cheklovlarsiz foydalanishlari mumkin.

Prezi-dan foydalanishni boshlash uchun xizmatning asosiy sahifasiga ulangan va tugmani bosib **boshlang** yuqoridagi o'ng tomonda bo'lsa, keyin tugmani bosib **Sinov davrini faollashtiring** Obuna rejalaridan biriga nisbatan (barcha funktsiyalardan foydalanishni Premium-ga tavsiya qilaman), ma'lumotlarga maydonlarga kiriting **nombre, familiyasi, elektron pochta y parol** va tugmachani bosib **ergashdi**. Endi to'lov usulini tanlang **Kredit karta y PayPal**, ma'lumotlarni kiriting va tugmani bosib **Obuna bo'ling** bepul sinov jarayonini faollashtirish uchun.

Agar boshqa tomondan, siz bepul sinov imkoniyatlaridan foydalanmasdan bepul hisob yaratmoqchi bo'lsangiz, tugmachani bosib **boshlang**, maqolani tanlang **asos** tugmasini bosib **ergashdi** qutidagi mavjud **asos**. Shuning uchun, ma'lumotlaringizni maydonlarga kiritib **nombre, familiyasi, elektron pochta y parol**, maqola yoniga tasdiq belgisini qo'ying **Men robot emasman** va tugmachani bosib **Bepul asosiy hisobingizni yarating**.

Birinchi kirishda, mavjud variantlardan birini bosib **talaba, Kadrlar tayyorlash / o'qitish, Savdo / biznesni rivojlantirish, tarbiyachi, Marketing / aloqa o ko'proq** tugmasini bosib **Keyingi Hisob** qaydnomangizga kirish uchun.

Agar siz bepul rejani faollashtirgan bo'lsangiz, sariq tugmani bosib 14 kunlik sinovdan foydalanishingiz mumkin **Premium-ga o'tish** yuqori qismida taqdim eting va siz sinab ko'rmoqchi bo'lgan rejani tanlang **asos, ko'proq y premium**, agar siz bepul sinov versiyasini faollashtirgan bo'lsangiz va avtomatik yangilanishni o'chirib qo'ymoqchi bo'lsangiz, o'zingiznikiga cherting **nombre** yuqori o'ng burchagida va variantni tanlang **Hisob sozlamalari** paydo bo'lgan menyudan

Endi elementni bosib. **Litsenziyani boshqarish** va yangi sahifada ochilganda tugmani bosib **Obunani bekor qiling**, keyin bekor qilish sababini ko'rsating, tugmani bosib **ergashdi**, maydonga parolingizni kiritib **Parolni tasdiqlang** tugmasini bosib **Obunani bekor qiling** bepul sinov oxirida avtomatik yangilanishni oldini olish uchun.

Prezi qanday ishlaydi?

Hisob qaydnomangizni yaratgandan so'ng, siz buni topishga tayyormiz. **Prezi qanday ishlaydi**. Hisobingizning asosiy ekranida kelajakda siz yaratadigan barcha taqdimotlar va nomlangan taqdimot yig'iladi. **Prezi bilan boshlang**Xizmat qanday ishlashini tushunish uchun foydali: Qayta tinglashni boshlash va xizmatning asosiy xususiyatlarini aniqlash uchun ► tugmachasini bosib.

To'plash printsipti: yagona elektron komplekslarda va bibliotekalarda joylashtirish va ularga yangi bo'lim va temalar bilan kengaytirish formatida bajarilgan bo'lishi lozim.

Ketirilganlardan xulosa sifatida: elektron darslik kimga va nima uchun kerak? - degan savoliga javob beraylik. Elektron darslik kunduzgi, sirtqi va masofaviy tarzda o'quvchilarning mustaqil ishlash uchun zarur, chunki u quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

• o'qilayotgan materiallarni chop etilgan o'quv darsliklardan o'zga, boshqa usullar (qabul etish yo'llari oshishi) qo'llash munosabati bilan o'zlashtirishni yengillashtiriladi;

- o'quvchining talablari va tayyogarlik, intellektual darajasiga moslanadi;

- murakkab hisob-kitoblarda vaqtning tejalishi hisobiga fanni chuqurroq o'zlashtirishga sharoit tug'diriladi;

- ishning har bir bosqichida o'zini tekshirish uchun keng sharoitlar yaratiladi;

- bajarilgan ishni zamonaviy shaklda fayl yoki printerda chop qilishga sharoit tug'diradi;

- chegaralanmagan sonli tushuntirish, takrorlash va yordamchi materiallar taqdim etib, sabrli murabbiy vazifasini bajaradi.

Elektron darslik maxsus auditoriyadagi amaliyot darslarida yordam beradi, chunki:

- turli masalalarni yechishda kompyuter yordamini ishlatish va shuning uchun vaqtni tejash mumkin;

- o'qituvchilarga mashg'ulotlarni kompyuterlarda mustaqil ishlar shaklida o'tishi mumkin;

- o'qituvchilarga kompyuter yordamida o'quvchilar bilimini tez va samarali baholash, nazorat ishlarni murakkabligini boshqarishi mumkin;

Elektron darslik o'qituvchilar uchun ham qulay, chunki;

- ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda asosiy tushuncha va g'oyalarni tushuntirishga ko'proq vaqt ajratiladi;

- murakkab Hisobli nazorat ishlari kompyuter yordamida tekshiriladi;

- auditoriyada va uyda bajariluvchi tpoishiriqlar nisbatini aniqlaydi;

Elektron darsliklarning an'anaviy darslikdan asosiy farqlaridan yana biri - uni yaratishda kompleks va kollektiv yondashishdir. Haqiqatda, agar an'anaviy darslikni mallif (yoki mualliflar) tomonidan yaratish mumkin bo'lsa, zamonaviy elektron darslik mualliflardan tashqari, alohida ijodiy guruh-mutaxassislar bilan birgalikda yaratiladi.

Elektron darsliklarni yaratish etaplari:

1-etap. O'qituvchilarni shu sohada mavjud elektron darsliklar bilan tanishishi, ularga qo'yilgan talablar bilan tanitirish.

2-etap. Elektron darslik yaratish uchun ishchi (ijodiy) guruh shakllantirish;

- o'quv fani bo'yicha mutaxassis;

- dasturchi (yoki dasturchilar guruhi);
- badiiy dizayner;
- suratkash va ovoz kiritish mutaxassisleri.

3-etap. O'quv kursini (ma'ruza matnlar, materiallar) strukturalash;

Bu etapda o'quv materialini modullarga bo'linadi.

4-etap. Elektron darslikni reja va stenariysi asosida yaratish, retseziyalash va ekspertizadan o'tkazish;

5-etap. Elektron darslik Ilmiy Kengashda tasdiqlash va uni dastur sifatida tarqatish.

Elektron darslikni kategoriyalari. Elektron darsliklar quyidagi 4 kategoriyalarga bo'linadi:

I kategoriya. O'quv materiallari asosan verbal matn sifatida keltirilib, ular giperilova va glossariylarga, shuningdek, 2-o'lchovli grafiklar-diagrammalar, rasmlarga (o'quv materialining 25% gacha) ega.

II kategoriya. O'quv materiallari qisman giperilovalari va 2D grafikali matn shaklida va 3-o'lchovli grafikdan iborat (o'quv materialining 25% gacha).

III kategoriya. O'quv materiallari matn, 2D grafiklar, video va audio animatsiyalar va 3D effektlarga ega (o'quv materialining 50% gacha).

IV kategoriya. Elektron darslik virtual muhitda, zamonaviy tarmoq texnologiyalarini qo'llab, o'qituvchi bilan kompyuter tarmog'i (Internet) orqali bog'langan Holda masofaviy mashg'ulotlar olib borilishi darajasida yaratilgan.

Elektron darsliklarning har bir kategoriyasiga alohida o'z talablari mavjud. Lekin, bir qator talablar borki, ular barcha kategoriyalarga tegishlidir. Ular quyidagilar:

- modullarning (paragraf va temalarning) matni 4-5 monitor ekranidan oshmasligi kerak (2 bet, ma'qulroq);
- giperilovalar 3 bosqichdan oshmasligi ma'qul;
- dasturiy mahsulot sistemasi kompyuter texnologiyasi talablariga mos kelishi kerak;
- turli rangdagi sahifalarni yaratishda psixolog va ergonomika mutaxassisleri tavsiyalariga rioya qilish.

Elektron darslikning sifatini aniqlash oson masala emas. Hozirgi paytda Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligining Axborot

texnologiyalar va masofaviy o'qitishni rivojlantirish boshqarmasi tomonidan elektron darsliklar standartlari ishlab chiqilmoqda. Undan tashqari, elektron darsliklar baholash normativ xujjatlari va ijodiy guruh a'zolarini moddiy rag'batlantirish normalari ishlab chiqilgan.

2. Elektron darsliklarning maqsadi va vazifalari.

Zamonamiz jamiyatni axborotlashtirishning yuqori darajasi bilan ham o'ziga xosdir. Axborot texnologiyalari hayotimizning barcha sohalari qatorida ta'lim jarayoniga ham keng joriy etilib borilmoqda. Oliy ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarining joriy etilishi yangi innovatsion vositalardan foydalanish imkonini beradi. Bu esa yangi imkoniyat hamda jarayonlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish — bu ta'lim jarayonlarini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim sifatining oshishida namoyon bo'ladi hamda talabalarda ta'lim olishga intilishlarining kuchayishi va rivojlanishiga xizmat qiladi. Axborot texnologiyalari tushunchasi mazmun-mohiyati bilan: «Turli predmet, obyektlar va hodisalar haqida axborot to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish, saqlash, tarqatish hamda foydalanish uchun yangi zamonaviy usul va mexanizmdir».

Zamonaviy ta'lim yuqori darajada axborotga boyligi bilan ajralib turadi. Oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi aynan shu jihatga asoslangan. Ta'limda yangi o'qitish usullaridan foydalanish zarurati ajoyib imkoniyatlarni taqdim etuvchi elektron nashrlar yaratilishiga sabab bo'ldi. Elektron darslik o'zida nazariy axborot va amaliy topshiriqlarni, foto va audiomateriallarini jamlaydi. Elektron darslik — bu talabalarda o'zlashtirishi uchun hamda ko'nikma va malakalar orttirishida zarur bo'lgan bilimlar bayon etilgan o'quv nashrini elektron shaklda taqdim etuvchi, tuzilmaviy hamda tizimli materialga ega bo'lgan vositadir. Unda o'quv materiali mantiqiy bayon etilishi, yuqori darajada texnik jihozlanishi hamda badiiy jihatdan bezatilganligi bilan o'ziga xosdir.

O'quv adabiyotlari muayan ta'lim turi o'quv rejasida qayd etilgan fanlar bo'yicha tegishli o'quv dasturlari asosida zarur bilimlar majmuasi keltirilgan, o'zlashtirish uslublari va didaktikasi yoritilgan manba bo'lib, ikki shaklda tayyorlanadi: an'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlari va elektron o'quv adabiyotlari.

An'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlari – ta'lim oluvchilarning yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlari, ma'lumotlar hajmi, shriftlari, qog'oz sifati, muqova turi va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan qog'ozda chop etiladigan manbadir.

Elektron o'quv adabiyotlari – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan manbadir.

Uzluksiz ta'lim tizimi o'quv-tarbiyaviy jarayonida o'quv adabiyotlarining quyidagi turlari qo'llaniladi: darslik, o'quv qo'llanma, lug'at, izohli lug'at, ma'lumotlar to'plami, leksiyalar kursi, leksiyalar to'plami, metodik ko'rsatma, metodik qo'llanma, sharh, dayjest, elektron darslik, ma'lumotlar banki va boshqalar.

Elektron darslik qog'ozli darslikka nisbatan quyidagi qator afzalliklarga ega:

- foydalanishda oddiyligi va qulayligi;
- elektron darslik resurslarini yangilab borish imkoniyatining mavjudligi;
- ta'lim jarayonini avtomatlashtirish va ta'lim xizmatlarini taqdim etish tezligini oshirish;
- axborotlarning to'liqligidan iborat.

Elektron darslik yaratish o'quv materialini yanada chuqurlashtirib o'rganish va uni kelgusida amaliy faoliyatda qo'llash zarurati bilan bog'liq. Elektron darslik ustida o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlash talabalarga mustaqil ishlash va o'zini namoyon etish, tashkilotchilik qobiliyatini tarbiyalashga yordam beradi, talabaga bo'lajak mutaxassislik bo'yicha salohiyatli shaxs bo'lishiga imkon beradi. Bu talabalar shaxsini takomillashtirish, ijodiy tafakkuri va qobiliyatini shakllantirishni ta'minlovchi optimal sharoit yaratadi. Axborot jamiyati sharoitlarida ta'lim sohasida rivojlanishning zamonaviy odimlari, masalan, talabalar mustaqil ishlari sonining o'sib borishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalardan muntazam ravishda, bilimlari sifati va darajasini oshirishni talab etadi. Ta'lim jarayoni uchun o'quv materialini talabalar ishtirokida tayyorlash — talabalarning ilmiy faoliyatining boshlang'ich bosqichida ularning tashabbuskorligi va mustaqilligini, o'z bilimi doirasini kengaytirishda mas'uliyatlilikini oshirish, ilmiy izlanish ko'nikma hamda malakalarini shakllantirish yo'lidagi yordam beruvchi muhim bosqich bo'lib

hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, o‘z oldimizga talabalar ishtirokida namunaviy elektron darslik yaratish loyihasini amalga oshirish vazifasini qo‘ydik.

Elektron darslik ustida olib boriladigan ishlar bir necha bosqichdan iborat. Birinchi navbatda, uning rejasini tuzish masalasi turadi, unda talabalar mutaxassisligining o‘ziga xosligi nazarda tutiladi. Reja quyidagilardan iborat bo‘lishi shart:

- loyiha asosida maqsad va vazifalarni belgilash;
- axborot manbalarini aniqlash;
- amalga oshirish muddatlarini belgilash.

Loyihani amalga oshirishdan maqsad — talabalar seminar, sinov va imtihonlarga tayyorlanishida foydalanadigan qulay elektron ko‘rinishda o‘quv qo‘llanmasini yaratishdan iborat. Maqsad quyidagi vazifalar bilan yanada aniqlashtiriladi: talabalar lug‘at boyligini oshirish; dunyoqarashni kengaytirish; kommunikatsion malakalarni rivojlantirish; kasbiy-mutaxassislik bilimlari darajasini oshirish va boshqalar. Elektron darslikni ishlab chiqish va nashr etishda asosiy bosqich turli manbalardan axborotlarni yig‘ish va tahlil qilish bo‘lib hisoblanadi. Darslikni yaratishda uning bo‘limlariga chet el mualliflarining maqolalari, davriy matbuot va elektron resurslar materiallari ham kiritilishi zarur. Elektron darslikning asosiy tarkibiy qismi maxsus kompyuter dasturi yordamida talabalar tomonidan yaratilgan audioyozuvlar bo‘lib hisoblanadi.

3. Turbo Site platformasida Elektron darsliklar yaratish.

Elektron darslik nima? So'zma-so'z: o'quv qo'llanmalar to'plami umumiy qobiqqa va uyushtirilgan navigatsiya bilan birlashtirilgan material.

Idealda - talaba va o'qituvchi o'rtasidagi teskari aloqa bilan. Bunday darslik raqamli, elektron shaklda, ya'ni kompyuter ekranida, telefonda yoki boshqa qurilmada ishlaydi.

Ushbu turdagi ta'lim manbalarini yaratish uchun ko'plab maxsus dasturlar mavjud. Odatdagidek turli xil xususiyatlarga ega, murakkab va o'rganish oson, katta va kichik, pulli va bepul bo'ladi.

Ko'rib chiqilayotgan ba'zi dasturlar vizual veb-muharrirlar quyidagicha tasniflanadi. Ya'ni, bular talab qilinadigan muharrirlar natija minimal kuch bilan erishiladi, web dasturlash haqida hech qanday ma'lumot talab qilinmaydi. Bunday muharrir dasturlari oynasida biz

o'quvchi elektron darslik bilan ishlashda nimani ko'rishini darhol anglaymiz.

Turbo Site dasturiga murojaat qilamiz.


Dastur bepul emas, ya'ni bizga dastur manba fayllari taklif qilinmaydi. Ammo ular dastur uchun to'lovni so'ramaydilar, uy va ish kompyuterlarida foydalanishni cheklamaydilar.

Tanishamiz?

Xo'sh, nima uchun aynan Turbo Site dasturi ?

- 5 MB dan kam joy oladi
- rus tilidagi tarjimasi interfeys
- Dasturni o'rganish juda oson
- Juda yaxshi natija beradi
- Natija tezkor bo'lib, uni zudlik bilan tahrirlash mumkin
- ... juda foydali narsalarni o'rganish mumkin.

Qidiruv tizimlari yordamida <http://propline.net/open/TurboSite>-dan yuklab olish yoki qidirish mumkin:




11.1-rasm

Siz 12.1-rasmni yuklab oldingizmi? O'rnatishni boshlaymiz. Hech qanday muammo bo'lmaydi. Kelajakda Turbo Site o'z ishida qo'shimcha dasturlar yoki qo'shimchalarni talab qilmaydi, demak u hozir hech narsa talab qilmaydi.


Dasturni ishga tushirish.

Ustanovka qilindi. Ishga tushirish.



11.2-rasm


Иккита havola mavjud. **Создать проект** va **Открыть проект**. Bizda hali ochadigan narsa yo'q - Keling, yangi loyiha yarataylik. Har bir yangi darslik (vab-sahifalar to'plami yoki sayt) u uchun maxsus yaratilgan yangi papkada saqlanadi. Shuning uchun, ba'zi bir diskda (agar tizimda ularning bir nechtasi bo'lsa), ildiz ostida, lotin alifbosi deb nomlangan papka yarating, birinchi loyihamizga qisqa nom bering va **Сохранить** tugmachasini bosning.



11.3.rasm.

Ushbu papkada hali hech narsa yo'q. Dastur sizga kerak bo'lgan hamma narsani yaratadi. Bizga darhol ishlaydigan oyna ko'rsatiladi, unda hamma narsa oddiy va rus tilida. Dasturda hech qanday maxsus sozlamalar mavjud emas, agar biz o'z ishimiz natijasini darhol Internetga yuklamoqchi bo'lmasak, sharhlar va mulohazalar shaklidan foydalanmasak, ro'yxatdan o'tish talab qilinmaydi. Albatta, biz birinchi, sinov versiyasini yuklamaymiz va keyinroq qulay deb qaror qilsak, ro'yxatdan o'tishimiz mumkin. Buning uchun elektron pochta

manzilingizni maxsus maydonga kiritib, ro'yxatdan o'tish tugmachasini bosib.



11.4-rasm.

Keyinchalik biz ushbu nuqtaga murojaat qilamiz va endi taklif qilingan oynalarda biz ishlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni kiritamiz. Bu juda ko'p emas.

Birinchii ma'lumotlarni kiritish uchun.

Sayt nomi - yangi o'tiladigan darslik yoki sayt nomi.


Kalit so'zlar - qidiruv tizimlari foydalanadigan so'zlar Internetdagi tizimlar, agar bizning yaratilyotgan ishimiz Internetda joylashtirilgan bo'lsa, albatta. Bu ixtiyoriy parametr, ammo zarur va foydali bo'ladi.

Qisqacha tavsif - nima uchun va kim uchun bo'lganligi haqida bir necha so'z nima qilishimiz ko'zda tutilgan.

Agar darslik yoki veb-sayt Narod.ru xostingida joylashtirilsa, sizga kerak katakchani belgilang va CP1251 kodlashdan foydalaning. Bu odatda kerak emas.


Agar biz maxsus kodni nima ekanligini va nima uchun kerak ekanligini bilmasak, biz sahifalarga kiritmaymiz. Bu foydali, ammo talab qilinmaydigan qo'shimcha variant.

Oynaning o'ng qismidagi "Qiymat" maydoniga darslik yoki sayt subtitrini, sahifalar ro'yxatining sarlavhasini kiriting (Menyu, navigatsiya). Altbilgi, masalan, muallif ma'lumotlari yoki foydalanish shartlari bo'lishi mumkin bo'lgan har bir sahifaning pastki qismidir.



11.5-rasm

Sayt ramkasi tayyor! Siz nima olganimizni darhol ko'rishingiz mumkin, buning uchun siz sayt yaratish tugmachasini, so'ngra brauzerda saytni ko'rib chiqish tugmachasini bosishingiz kerak bo'ladi.




11.6-rasm.

Siz sahifani brauzerda yopishingiz va ishlashni davom ettirishingiz mumkin.

Sahifalarni to'ldirish

Biz standart shablondan foydalangan holda, saytni biz ko'rishni istagan narsaga aylantirish uchun uni qanday o'zgartirishni aniq bilib olamiz. Ayni paytda sahifalarni to'ldirishni boshlaymiz. Buning uchun dastur oynasida keyingi Страницы yorlig'iga o'ting.




11.7-rasm.

Chapda - sahifalar ro'yxati, katta - katta matn muharriri imkoniyatlar. Unda ikkita asboblari mavjud. Yuqori – *Вырезать, копировать*. (kesish, nusxa ko'chirish). Pastki - *Форматирование текста* (Matnni formatlash). Kursor yoniq bo'lsa tugmasi bo'lsa, ko'rsatma paydo bo'ladi: ushbu tugma qanday buyruqni bajarmoqda. Hammasi oddiy.

Matnni to'g'ridan-to'g'ri vizual tahrirlovchining ushbu oynasida yozishingiz yoki tayyor nusxa ko'chirishingiz mumkin.


Rasmlarni qo'shish

Вставки (Rasm)ni kiritish uchun yuqori panelda maxsus tugma va vositalar mavjud. Yoki o'ng tugmasini bosib, kontekst menyusidan rasm qo'shishni tanlashingiz mumkin



11.8-rasm.

Chizma kursor joylashgan joyda, uning joylashuvi va hajmi sahifaning o'zida o'zgartirilishi mumkin. Rasm qo'shish oynasi oddiy. MS Word kabi protsessorlarida bo'lgani kabi odatdagi matn kiritiladi.




11.9-рasm.

Biz pastki chapdagi **Добавить** (Qo'shish) tugmachasini bosamiz va kerakli rasmni tanlaymiz. Shu bilan birga, kerakli rasm kompyuterimizning istalgan joyida joylashgan bo'lishi mumkin, hatto rus harflari deb ham atash mumkin. Dastur uni nusxa ko'chiradi, ishlash uchun zarur bo'lgan katalog va uning nomini transliteratsiya qiladi.




11.10-рasm.

Kerakli rasmni tanlash uchun LMB tugmachasini bosib, muqobil matnni kiriting (yaxshi ohang: agar foydalanuvchi uchun rasmlarni ko'rsatish o'chirilgan bo'lsa, bu yozuv ko'rinadigan bo'ladi), qo'shish tugmachasini bosib, darhol natijani ko'ring, siz o'lchamni o'zgartirsangiz mumkin.



11.11-rasm.

Chizma kursor joylashgan sahifada paydo bo'ldi. siz buni har doim ham tartibga sololmaysiz. Agar rasm matndan chiqib ketishi kerak bo'lsa, siz sahifa kodini biroz to'g'rilashingiz kerak, aksincha, rasm qo'shish kodiga bir nechta so'zlarni qo'shishingiz kerak bo'ladi.



11.12-rasm.


Agar sahifa kodida harakat qilish qiyin bo'lsa, muqobil matn kerakli joyni topishda yordam beradi. Ushbu so'zdan so'ng darhol ("Pushkin" rasmidagi misolda) rasmni matnning chap tomoniga

joylashtiradigan kodni kiriting va matndan 10 pikselgacha chiziq qo'ying.

```
<P><FONT face=Verdana><IMG style="WIDTH: 150px; HEIGHT: 218px"
class=image alt=Пушкин align="left" vspace="10" hspace="10"
src="file:///F:/proba/public_html/user-images/pushkin.jpg" width=
=277
```

11.13-rasm.

Matnga nisbatan rasmning holatiga ta'sir ko'rsatadigan kodlar, biriktirilgan matnli faylda topish mumkin. Agar kerak bo'lsa, ular indent qiymatini o'zgartirib, ularni nusxalash va joylashtirish mumkin. Endi natija shunday bo'ladi.



6 июня — день рождения Александра Сергеевича Пушкина.

К этому празднику мы подготовили новый генератор текстов. На этот раз — зарифмованных.

Генератор стихов им. А.С.Пушкина поможет новичкам сделать первые шаги, а людям, хорошо знакомым с творчеством поэта — проверить себя, угадав, из каких произведений взяты те или иные строки.

Вы спросите, почему генератор стихов носит имя Пушкина?

По той же причине, что и музей изобразительных искусств, и детская библиотека, и паромод.

11.14-rasm.

```
hspace=10 alt=Пушкин vspace=10 align=right
src="file:///F:/proba/public_html/user-images/pushkin.jpg" width=
=277
```

11.15-rasm.

Qatorda buyruq so'zlarining (teglarning) tartibi o'zgartirishga e'tibor bering dastur aqlli, hamma narsani o'zi to'g'ri deb tuzatdi.

6 июня — день рождения Александра Сергеевича Пушкина.

К этому празднику мы подготовили новый генератор текстов. На этот раз — зарифмованных.

Генератор стихов им. А.С.Пушкина поможет новичкам сделать первые шаги, а людям, хорошо знакомым с творчеством поэта — проверить себя, угадав, из каких произведений взяты те или иные строки.

Вы спросите, почему генератор стихов носит имя Пушкина?




По той же причине, что и музей изобразительных искусств, и детская библиотека, и паромод.

11.16-rasm.

Albatta, kerak bo'lganda matnda istalgancha rasm bo'lishi mumkin va ularni xohlaganingizcha tartibga solishingiz mumkin.

Главная (Bosh) sahifa

Asosiy bosh sahifa tayyor. U Главная nomlanadi (agar xohlasangiz, uni xohlagan narsangizga qo'ng'iroq qilishingiz mumkin: Ishga tushirish, Boshlash indeks), bu nom barcha sahifalar va sahifalar ro'yxatida asosiy menyuda havola sifatida ko'rsatiladi va tasdiq belgilarini olib tashlamang.



11.17-rasm.

Agar xohlasangiz, havola sarlavhasining rangini o'zgartirishingiz mumkin, shriftni qalin qilib qo'yishingiz mumkin. Buning uchun derazaning o'ng tomonida sarlavhali yana ikkita tugma mavjud.

Asosiy sahifaning parametrlarini o'zgartirishingiz shart emas, biz boshqa sahifalar bilan ishlashda ushbu yorliqqa murojaat qilamiz.

Добавление (Yangi sahifalar) qo'shish

Oynamizga quyidagi sahifani qo'shaylik, buning uchun LMB tugmachasini ish oynasining chap pastki qismidagi tegishli tugmachani bosish kifoya qiladi.



11.18-rasm.


Sahifaning nomi qisqa va tushunarli bo'lishi kerak, chunki u menyuda havola bo'ladi. Agar biz ushbu sahifaning sarlavhasini yuqori menyuda (Asosiy) ko'rsatilishini xohlasak, belgini qo'ying. Agar bizga bu kerak bo'lmasa, biz bu oynani bo'sh qoldiramiz.

Sahifaning tarkibi hanuzgacha bir xil. Agar kerak bo'lsa, matn, rasmlar o'zgartiramiz.

Sahifalarga video qo'shish


Keling, videoni sahifaga qanday kiritish kerakligini aniqlaymiz.

Video qo'shish belgisida LMB tugmachasini bosamiz, bizga yangi ish oynasi taklif etiladi.




11.19-rasm.

Добавить (Qo'shish)ni bosning, videoni toping (afzal .flv yoki .mp4 formatida), **Открыть** (Ochish)ni bosning. Shunga qaramay, videoning qaerda joylashganligi va qanday nomlanishi muhim emas. Dastur barcha muhim manipulyatsiyalarni o'zi bajaradi. U videofaylni ishchi papkaga ko'chiradi va rus tilida berilgan bo'lsa, sarlavhani translyatsiya qiladi. Yuklangan fayl nomini tanlang, qo'shish tugmachasini bosning, qarang va natija qarang.



11.20-rasm.

Muharrir oynasida biz faqat pleyer oynasini ko'ramiz. Ushbu oynani bosing, rasmlardagi kabi chegara ramkasi paydo bo'ladi. Endi sahifadagi moslamalarni tekislash tugmasi yordamida siz pleerni markazga qo'yishingiz mumkin, burchakni sudrab, oynaning o'lchamini o'zgartirishingiz mumkin. Hech narsa muharrirda o'ynamaydi. Ammo sayt yaratilgandan so'ng standart pleyer sahifada bo'ladi.



11.21-rasm.


Afsuski, flesh va audio fayllarni kiritish juda oddiy emas. Siz uchinchi tomon pleyeridan foydalanishingiz va sahifa kodlarini yozishingiz kerak bo'ladi.

Shunday qilib, biz kerakli miqdordagi sahifalarni qo'shamiz.

Test qo'shish

Turbo Site tez va oson sinovlarni yaratishi mumkin. Ular alohida sahifalarda yoki biz kerakli joyda joylashgan bo'lishi mumkin.


Buning uchun yangi sahifa yarating, tarkib-matn qo'shing va Sahifa sozlamalari yorlig'iga o'ting.



11.22-rasm.


Hozircha bizga faqat Yaratish tugmasi kerak va darhol ikkita yorliqli yangi ish oynasiga o'ting.

Dastlabki, parametrlar.



11.23-rasm.

Minimal sozlamalar. Biz Ism va Muallif maydonlarini to'ldiramiz, test tugagandan so'ng talaba ko'radigan matnни kiritamiz.




11.24-rasm.

Oynani belgilang: agar barcha savollarga javob berilmagan bo'lsa, testni tugatishga ruxsat berish kerakmi, natijalarni tugatgandan keyin ko'rsatish kerakmi, test tugagandan so'ng sahifani yopish kerakmi. Juda qulay va foydali sozlama sinov boshlanganda sinovni boshlash tugmachasini yashirishga imkon beradi. Talaba testni yangi oynada qayta ochib, xatolarini tezda tuzatolmaydi. Oddiy, ammo baribir himoya! Bu har doim ham ishlamasligi mumkin shuning uchun testga havolani menyuda (в Верхнем и в списке страниц (Top menyusida va sahifalar ro'yxatida)) ko'rsatmaslik yaxshi emas, balki ba'zi bir sahifadan yaratilgan testga havola qilish kifoya. Birinchidan, test yarataylik, so'ngra ushbu dasturga havolalar qanday kiritilganligini aniqlaymiz.

Hamma vazifalar yorlig'iga o'tishingiz mumkin.

Birinchi marta kirganingizda, u bo'sh; chap pastki qismdagi plyus belgisini bosib, oynaning chap qismida savolning shartli nomi paydo bo'ladi, o'ng tomonda siz savol matni va javob variantlarini kiritishingiz kerak bo'ladi.



11.25-rasm.

Ushbu dasturda siz faqat bitta turdagi savollarni yaratishingiz mumkin bir nechta tanlov va faqat bitta to'g'ri javob. Javob variantlarini ustunga yozamiz, to'g'ri javobni yulduzcha bilan belgilaymiz (biz u bilan boshlaymiz).

Plyus belgisini yana bir marta bosib, ikkinchi, uchinchi savollarni qo'shing. Qancha javob kerak bo'lsa qoshing.

Barcha savollar yaratilganda, test saqlanib qolishi mumkin (va kerak!). Xatolarni tuzatish kerak bo'lishi mumkin, ehtimol boshqa test yoki saytga qo'shilish uchun bizga bu sinov kerak bo'ladi. Fayllar kichik, ular ko'p joy egallamaydi!

Файл menyusiga o'ting, **Сохранить** (Saqlash)ni tanlang (yoki **Сохранить как** (qayirda saqlash)ni bosib va testni biz uchun qulay nom berib, bo'sh holda turgan faylga saqlaymiz. Barcha bo'sh joylarni diskdagi alohida papkada saqlash yaxshidir.


Намма ойна yopilishi mumkin.

Biz dasturning ishchi oynasiga qaytamiz.

Bizda allaqachon bir nechta sahifalar bor, bizda test bor. Siz nima bo'lishini ko'rishingiz mumkin.

Ekraning pastki qismida "Sayt va brauzer ko'rinishini yaratish" ni bosing.

Mana bizning natijamiz.



11.26-rasm.


Sinovni o'tkazgan sahifadan Генерировать tugmasini bosdik. Shuning uchun ko'rish oynasi darhol ushbu oyna so'nggi sahifasidan boshlanadi. Siz darhol ish joyidagi testni sinab ko'rishingiz va shu bilan birga menyudagi havolalarning qanday ishlashini baholashingiz, sahifalarni varaqlashingiz mumkin.

Shablonlar

Keling, darhol saytning umumiy ko'rinishidagi ba'zi kamchiliklarga e'tibor qarataylik.

O'ng tomonda menyu varaqlari ro'yxati bilan blok mavjud. Uy sahifasi bor va "Asosiy" havolasi "Top" menyusida. Bundan tashqari, ushbu Uy havolasidan tashqari, u erda boshqa hech narsa yo'q. Ushbu navigatsiya havolalarini qanday qilib takrorlamaslik haqida o'ylashimiz kerak. Ya'ni, Top Menyuda yoki Sahifalar ro'yxatida havolani qoldiring va yo'lda bunday mayda-chuyda narsalarni tuzatish mumkinligi juda yaxshi. Biz faqat oldindan ko'rishni yopamiz, darhol dasturning ishchi oynasiga o'ting, yorliq sahifalarini ko'rib chiqing, keraksiz belgilarni olib tashlang, keraklilarini qo'ying.


Ish jarayonida siz sayt shablonini va uning ko'rinishini o'zgartirishingiz mumkin. Buning uchun "Shablonlar" yorlig'i kerak.



11.27-rasm.

Bizga ko'plab tayyor shablonlar taklif etiladi, siz sahifalar ro'yxati chap yoki o'ng tomonda joylashgan birini tanlashingiz mumkin. Bu ochiq yoki quyuc ranglarda bo'lishi mumkin, ko'p variantlar mavjud. Agar mos kelmasa, siz boshqalarni ishlab chiquvchi saytidan yuklab olishingiz va ularni ishlatish uchun import qilishingiz mumkin. Buning uchun **Скачать** (Yuklash) va **Импортировать** (Import) tugmalari mavjud.

Kerakli shablonni tanlaganingizdan so'ng, sayt yaratish tugmasini yana bir marta bosib va Ko'rish tugmachasini bosib. Mana natija, masalan, bitta LMB tugmachasini bosishingiz mumkin.




11.28-rasm.

Наволаларни joylashtiring

Sinov havolasini menyudan olib tashlaylikmi? Ehtimol, biz uni tozalab tashlaymiz!

Buning uchun Sinov sahifasidagi dasturning ishchi oynasida katakchalarni olib tashlang **Показывать страницу** (Sahifani ko'rsatish) ... Qaerda esingizdami?


Endi testga bog'lanishni istagan sahifaga o'tamiz, Keling, havola bo'lgan matnni yozamiz va uni qo'shish uchun tugmani bosamiz.



11.29-rasm.

Bundan tashqari, yuklab olish uchun faylga havola qo'shishingiz mumkin (xuddi rasm va videoni kiritishda bo'lgani kabi, kerakli faylni ko'rsatishimiz kerak, dastur uni tayyorlagan joyiga ko'chiradi va agar kerak bo'lsa, uni translyatsiya qiladi).

Agar boshqa saytga havola bersak, uning manzilini maxsus maydonga kiritishingizni so'rashadi.



11.30-rasm.


Albatta, tashqi havolalar faqat o'quv qo'llanmasi yoki sayt Internetda joylashtirilgan taqdirda kiritilishi kerak.

Shuning uchun, biz darhol bu holda yana nimadan foydalanish mumkinligini aniqlaymiz.

Qo'shimcha funktsiyalar. Interaktivlik.

Keling, dasturning ishchi oynasidagi **Параметры сайта** (Sayt sozlamalari) yorlig'iga o'ting va ro'yxatdan o'ting. Faqat elektron pochta

manzilingizni kiriting va **Регистрации** (Ro'yxatdan) o'tish tugmachasini bosning.



11.31-rasm.


Axborot oynasi ma'muriy parol belgilangan manzilga yuborilganligi to'g'risida sizga xabar beradi. Biz pochtni tekshiramiz, xatni ko'ramiz (u bir necha soniya ichida keladi). Endi oynaning chap qismida Администрирование (Ma'muriyat) tugmasi paydo bo'ladi. Biz uni bosamiz.

Brauzerda avtorizatsiya oynasi ochiladi, u erda pochta orqali olingan parolni kiritishingiz kerak. Kirish - kiritish. Sizga qo'shimcha o'zgarishlar kiritishni taklif qiladigan yangi sahifa ochiladi. To'liq nima va nima uchun - ular bizga kelgan maktubda hammasi tushuntiradi.

Teskari aloqa shakllari

Endi siz fikr-mulohazali sahifani qo'shishingiz mumkin, masalan bizning o'quvchimiz yoki saytning har qanday mehmoni bizga xabar yozish, savol berish imkoniga ega bo'ladi va biz uni ro'yxatdan o'tish paytida ko'rsatilgan elektron pochta manziliga etkazamiz.


Keling, yangi sahifa yaratamiz, unga sarlavha beramiz va ushbu sahifani qaysi menyuda ko'rsatishni belgilaymiz. Sahifani sozlash yorlig'iga o'ting va katakchani belgilang Kontakt shaklini sahifada joylashtiring.



11.32-rasm.

Yana - Sayt yaratish va saytni ko'rib chiqamiz.

Mana, sahifa.



11.33-rasm.

Ushbu formani alohida sahifaga joylashtirish shart emas. Masalan, test bilan sahifada mumkin. Siz qandaydir yozma topshiriq berishingiz mumkin.

Boshqa variant - har qanday sharh sahifasida shakl qo'shish va natijasini ko'ramiz.



11.34-rasm.


Biz savol beramiz, talaba yoki foydalanuvchi barcha maydonlarni to'ldiradi, tasdiqlash kodini kiritadi, saytga yuboradi. Bunday sharhlar bizga nafaqat pochta orqali keladi, balki saytda ham ko'rsatiladi.

Блоklar. Виджеты.

Bizda hali ham saytni (tarkibni) to'ldirish uchun yana bitta yorliq bor, u bilan tanishishimiz kerak, bu bloklar.

Ayrim ma'lumotlarga ega bo'lgan alohida plakatlarni qo'shish oson va sodda. Ko'pincha bunday bloklarda vidjetlar mavjud: kalkulyator, taqvim, soat, ob-havo ma'lumoti kiritiladi.

Dasturning ishchi oynasida Bloklar yorlig'iga o'ting, yangisini qo'shing.




11.34-rasm.

Tavsiya etilgan oynada bizga kerak bo'lgan vidjetning kodini kiriting (ularning ko'pchiligi Internetda, biz buni Gramota.ru saytidan oldik. manabu Pushkin rasmi).

Qayta **Генерировать сайт**, **Просмотр сайта** (sayt yarating, saytni ko'rib chiqing).

Natija: 11.35-rasmda aks ettirilgan.

Shuningdek, siz kalkulyator, orqaga hisoblash taymeri, globus faqat ba'zi saytlardan banner yoki ba'zi bir matnli ma'lumotlarni kiritishingiz mumkin nima bo'lishidan qat'iy nazar shuni yodda tutingki, ushbu bloklar barcha sahifalarda bir joyda namoyish etiladi.



11.35-rasm.

Yakuniy xulosalar

Hammasi bajarildi. Biz yana o'quv qo'llanmasidan o'tamiz, havolalarni tekshiramiz, qayta tekshirilgan xatolar. Agar biz biror

narsani tuzatgan bo'lsak, saytni qayta yaratishni va ko'rishni qayta yoqishni unutmang.


Natija bizni qoniqtirgandan so'ng, biz tayyor darslikni maxsus yaratilgan papkada saqlaymiz yoki Internetga joylashtiramiz.

Biz Internetda xosting haqida alohida gaplashamiz, ammo mahalliy ish uchun hamma narsa allaqachon tayyor bo'ldi o'quv qo'llanmasi nomi bilan papka yarating (rasmlarda называется Ни о чём (Hech narsa haqida) deb nomlangan) endi sayt bilan papkani ochish tugmachasini bosning. Biz uning barcha tarkibini ushbu yangi papkaga ko'chiramiz.

Biz allaqachon yangi papkani boshqa kompyuterlarga uzatish uchun USB flesh-diskda saqlaymiz, biz uni to'liq arxivlaymiz va hamkasblarga namoyish qilish uchun SkyDrive-ga joylashtiramiz.

Ushbu darslikni qanday qilib "o'qish" mumkin? Yana TurboSite-ga o'ting. Hech qanday zarur emas: u o'z ishi tayyorlab olsin, va brauzer ishlaydi!


Shunday qilib, agar siz bizning papkamizni ochsangiz, biz yaratilganlarni ko'rasiz dastur papkalar va fayllarni - html sahifalarini sanab beradi. Biri fayllar indeks deb ataladi - bu erda kod "yashiringan" Brauzerda paydo bo'lishi kerak bo'lgan asosiy sahifa, bizning o'quv qo'llanmamizni (yoki biron bir saytni) ochganimizda ko'rinadi.



11.36-rasm.

Tekshirish uchun ushbu faylni oching va sahifalarga barcha havolalar-o'tishlarning to'g'ri ishlashiga yana bir bor ishonch hosil qiling. Ammo darslik bilan ishlaydiganlar haqida nima deyish mumkin? Ushbu faylni ochish kerakligini ular hatto bilmasligi ham mumkin.

Keling, ushbu daqiqani "aylanib o'tishga" harakat qilaylik! Biz va generatorni yaratgan papkani joylashtirib, boshqa papka (masalan, elbook) yarataylik. Keling, uni ochamiz. Indeks fayliga yorliq yarating (sichqonchanning o'ng tugmachasini eslaysizmi?), Uni kesib oling va so'nggi elbook papkasiga joylashtiring (endi u manba papkasini va yorliqni o'z ichiga oladi). Yorliqni ikki marta bosning - barchasi ishlashi kerak! (Agar xohlasangiz, yorliqning nomini o'zgartiring, masalan, boring yoki boshlang yoki boshlang).



11.37-rasm.

Endi ushbu yakuniy papkani (ushbu misolda - elbook) o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etish mumkin (u ham arxivlangan).


Izoh: To'g'ri, bitta BUT Ushbu "texnologiya" bilan bunday "kompozitsiya" bizda, bizning kompyuterimizda ishlaydi, chunki faylga havola mutlaqo (indeks fayliga yo'l barcha papkalarni bosib o'tadi) u joylashgan, diskdan boshlab). Fayldan uzoqlashishga harakat qilishimiz kerak. Keling, kerakli faylga nisbatan havola yaratishga harakat qilaylik.

Buning uchun yorliqning Xususiyatlari (RMB - Xususiyatlar) bo'limiga o'ting, Ob'ekt satrida tarkibni% windir% \ system32 \ cmd.exe / C start pushkin \ index.html bilan almashtiring, Ishchi papka qatorini tozalang, OK tugmasini bosning - deyarli to'liq qora yorliq paydo bo'ladi. Tekshirilmoqda. Ishlashi kerak (miltillashi mumkin, Bosh sahifa biroz kechiktiriladi). Endi siz bunday arxivni muhtoj bo'lganlarga yoki biz o'zimiz zarur deb bilganlarga tarqatishingiz mumkin.


Yana bitta kichik eslatma.

Agar yorliq belgisi (qorong'i to'rtburchak) sizga yoqmasa, uni kutubxonadagi piktogrammalardan biri bilan almashtirishingiz yoki o'zingiz yaratishingiz mumkin (lekin bu mutlaqo "boshqacha hikoya") - buning uchun sizga yana kerak bo'ladi Tizim ichida "olish".


Taklif qilingan papkadan yorliqni o'zingiznikiga ko'chirishingiz mumkin va unda Ob'ekt satrida ma'lumotni (index.html fayli joylashgan papkani) o'zingiznikiga almashtiring. Quyidagi rasmlar yuqoridagilarni aks ettiradi.



11.38-rasm.



11.39-rasm.



11.40-rasm.

Afsuski, ushbu dasturda vizual muharrir shrift hajmini o'zgartirishga imkon bermaydi va tavsiya etilgani juda kichik, ayniqsa, ko'rish qobiliyati past bolalar uchun. Keling, HTML teglari uchun kirish imkoniyatlaridan foydalanib, ushbu kamchilikni biroz tuzatishga harakat qilaylik. (Yangi so'zdan qo'rqmang - ularning nechtasida biz bor edi - yana bittasi qo'rqinchli bo'lmasligi kerak).

Bir nechta dastlabki eslatmalar: boshidan <Enter> tugmachasini bosishgacha bo'lgan belgilar ketma-ketligi paragraf, html kodlarida u <P> ... </P> bilan belgilanadi.


Paragraf ma'lumotlari bilan bog'liq barcha o'zgarishlar ushbu teg buyruqlari ichida bo'lishi kerak (masalan, "konteyner ichida"). Matn uchun "konteyner" ham mavjud, u teglar bilan boshlanadi va tugaydi: . va unga qo'shimcha ravishda shriftni o'zgartirish uchun atributlarni kiritishingiz kerak: hajmi, ko'rinishi, rangi (biz shrift hajmini o'zgartirishimiz kerak, qolganini muharrir bizga taklif qiladi). Har xil uslubdagi harflar uchun (qalin va kursiv, yuqori belgi, bo'sh joy va defis, maxsus belgilar va boshqa narsalar uchun teglardan foydalanishingiz mumkin. Master-klass).

Shunday qilib, biz buyruqni ishlatishimiz kerak:


 bu erga matn qo'shing , bu erda N 7 (katta matn) dan 1 gacha (eng kichik matn), bu paragraf konteynerining ichida (quyidagi 1-rasmda bo'lgani kabi) yoki undan tashqarida joylashgan. u (ikkinchi taklif qilingan raqamlar to'plamidagi kabi). Sahifadagi turli xil shriftlar qabul qilinmasligini eslaysizmi? :)

Maxsus yaratilgan soddalashtirilgan sahifalarni 3 burchakdan ko'rib chiqing: brauzerdagi sahifa (uning bir qismi), vizual muharrirdan ko'rinish va HTML kodning ko'rinishi.

2 ta variant taklif etiladi - biz buni aniqlay olamiz deb o'ylaymiz.




11.41-rasm.



11.42-rasm.

Quyida tavsiya etilgan usul, ehtimol keng tarqalgan



11.43-rasm.

Xulosa qilib aytganda, elektron darslik shunchaki yozma materiallar jamlanmasigina emas, balki audio-qo‘llanma bo‘lib ham hisoblanadi, eshitish va vizual foydalanish uchun taqdim etishga mo‘ljallangan axborot majmuasidir. Elektron darslikdan mustaqil foydalanish yoki ta‘lim jarayonida talabalarga axborot muhitida yo‘nalishni, qandaydir muammolar yechimini aniq topish imkonini beradi. Talabalarni zamonaviy ta‘lim metodlaridan, aynan — elektron darslikdan foydalanib o‘qitish ta‘lim sifatini oshiradi, axborot olish jarayonini qisqartiradi hamda ularni ijodiy kamolotga yetaklaydi.

Nazorat savollari:

1. Elektron darslik nima?
2. Elektron darslik maqsadi va vazifalari nimadan iborat?
3. Turbo Site platformasi nima uchun ishlatiladi?
4. Darslik bilan Elektron darslik farqini tushuntirib bering?
5. Elektron darslik yaratish etaplarini sanab o‘ting?
6. Turbo Site platformasida test yaratish jarayonini ayting?
7. Elektron darslikning ta‘limda tutgan o‘rni haqida so‘zlab bering?

12- MAVZU.
O‘QUV KURSI: CHAQIRIQQACHA BOSHLANG‘ICH
TAYYORGARLIK MAVZULARIDA ISPRING SUITE
PLATFORMASIDA YARATISH.

Reja:

- 1. iSpring dasturining maqsadi va imkoniyatlari.**
- 2. O‘quv kursini yaratish va iSpring dasturida taqdimot o‘tkazish tartibi.**

Tayanch iboralar: *Elektron axborot, iSpring Suite, iSpring Pro, iSpring QuizMaker va iSpring Kinetics, Elektron test, Testologiya, anketa so‘rovnomalari, o‘quv kurs, taqdimot, interaktiv, texnologiyalar, testlar.*

O‘quv mashg‘ulot maqsadi: *Talabalarga iSpring dasturi maqsadi, vazifalarini tushuntirish, uning imkoniyatlari bilan tanishtirish, iSpring dasturida test, anketa so‘rovnomasi, taqdimot hamda o‘quv kursi yaratishni o‘rgatish.*

1. iSpring dasturining maqsadi va imkoniyatlari.

Elektron axborot ta‘lim resurslarini yaratishda keng ishlatilib kelinayotgan dasturiy ta‘minotlardan biri Ispring dasturi hisoblanadi. Odatda, taqdimotni o‘tkazishga tayyorlanish jarayonida aksariyat hollarda Microsoft PowerPoint dasturiy ta‘minotidan foydalaniladi. Ammo bunday taqdimotlar faqat mazkur mahsulot formatidagina bo‘lishi mumkin (ppt, pptx). Hozirgi vaqtda internet texnologiyalarining rivojlanishi va o‘z navbatida, masofali ta‘lim turining paydo bo‘lishi natijasida taqdimot fayllarini internet brauzerining o‘zida onlayn ravishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rish uchun flash (swf) formatida yoki HTML 5 texnologiyasi asosida yaratilgan fayl bo‘lishi kerak. Hozirga kelib, PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotdan flash-rolik shakllantirish imkoniyatini beruvchi dasturlar yaratilgan. Mahsulot iSpring deb nomlanadi va iSpring QuizMarker, iSpring PRO va iSpring Kinetics kabi variantlarga ega. Mustaqil ekspertlarning fikriga ko‘ra, bugungi kunda mazkur mahsulot tezligi, bir formatdan boshqa formatga konvertatsiyalash sifati va opsiyalar soniga ko‘ra eng yaxshilaridan biri hisoblanadi. iSpring nafaqat flash-

taqdimotlarni yaratishga, balki ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan roliklar tayyorlashda, xususan, ularga turli shakldagi so'rovlar, elektron testlarni ham kiritgan holda o'zaro interaktiv bog'lanish imkoniyatini ham beradi.

iSpring Suite – bu PowerPoint dasturida elektron o'quv kurslarini yaratuvchi professional vosita hisoblanadi. iSpring dasturi yordamida foydalanuvchi bir nechta bosqichdagi o'quv kurslarini yaratishi va nashr qildirishi mumkin:

- a) Power Point- taqdimotlar bazasida o'quv kurslarini yaratish;
- b) Audio va video fayllarni birlashritish;
- c) Interaktiv testlar yaratish;
- d) Interaktiv bloklar yaratish;
- e) Masofaviy ta'lim tizimi uchun ma'lumotlar tayyorlash.

iSpring Suite dasturi o'zida iSpring Pro, iSpring QuizMaker va iSpring Kinetics dasturlarini jamlagan. iSpring dasturini uskunalari PowerPoint dasturining menyular satriga sozlanadi. iSpringning o'rnatilishi muvofaqiyatli bajarilgandan so'ng, PowerPointga iSpring instrumental qatori qo'shiladi. iSpringning funksiyalaridan tayyorlangan fayli Flash formatga o'ziga xos playback (boshqarilish)ni yuzaga keltiradi. Audio va videolar bilan Flashda tayyorlangan fayl yaxshiroq bo'ladi. Eslatma, aytish kerakki iSpring Proga qo'shiladigan xar bir ma'lumot Windows uchun o'ziga xos ahamiyatga ega.

iSpring Pro yordamida:

- Windowsda Flashni muomilaga chiqarish;
- Prezentatsiyani tadqiq etish;
- Window bilan bog'lanish;
- Windowni taqdim etish;
- Windowda audio yozish;
- Windowda video yozish;
- Windowda sinxron qilish;
- Windowga so'rovlar qo'yish;
- Windowni Flashga kiritish mumkin.

tugmasini bir marta bosish orqali yuqori darajadagi Flash movie o'rnatiladi. iSpring Quick Publishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri taqdim etiladigan prezentatsiyada ortiqcha o'zgarishlarga yo'l qo'ymaydi. iSpring Pro 180 dan ortiq effektlarga ega. Bu ko'rsatkich PowerPoint 2007 dagi barcha effektlar kombinatsiyasidan iboratligi,

ko'plab harakatlarni o'z ichiga olganligi hamda shu ko'rsatkich bo'yicha harakatlarni mukammallashtirganligi bilan tasvirlanadi.

iSpring quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- taqdimot fayllarini bir necha (exe, swf, html) formatlarda konvertatsiyalash imkoniyati;
- taqdimot kontentiga tashqi resurslarni (audio, video yoki flash fayllarni) kiritish imkoniyati;
- taqdimot kontentini muhofaza qilish: parol yordamida ko'ra olish, taqdimotga «himoya belgi»si qo'yish, taqdimotni faqat ruxsat etilgan domenlardagina «aylantirilishi»;
- video qo'shish va uni animatsiyalar bilan sinxronlashtirish;
- elektron test(nazorat)larini yaratish va natijalarini elektron pochtaga yoki masofaviy o'qitish tizimiga (LMS) uzatib berish imkoniyatini beradigan interaktiv matnlar yaratish uchun vosita o'rnatilgan (Quiz tugmachasi);
- masofaviy o'qitish tizimida foydalanish uchun SCORM/AICC — mos keluvchi kurslarini yaratish;
- taqdimot dastur darajasida aylantirish uchun ActionScript API;
- videotasvirni yozish va uni taqdimot bilan sinxronlashtirish;
- YouTube'ga joylashtirilgan roliklarni taqdimot tarkibiga kiritish imkoniyati.

Elektron axborot ta'lim resurslari ichida kiruvchi ma'lumotnomalar va lug'atlarni yaratish uchun iSpring Kinetics dasturini keltirish mumkin.

iSpring Kineticsning quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

- biror-bir fan bo'yicha elektron ko'rinishdagi qulay bo'lgan glossariy,
- ma'lumotnoma yoki lug'at yaratish;
- vaqt shkalasini yaratish;
- 3 o'lchovli kitob yaratish;
- FAQ yaratish mumkin.

Elektron axborot ta'lim resurslari ichida kiruvchi elektron nazorat turlarini yaratish uchun iSpring QuizMaker dasturini keltirish mumkin.

iSpring QuizMaker quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

- tarmoqlangan testlar yaratish imkoniyati (adaptatsiyalashtirilgan testlarni yaratish) imkoniyati;

- ikki, uch, to‘rt yoki besh javobli yopiq test topshiriqlari, ulardan biri to‘g‘ri,
- ikkitasi haqiqatga yaqinroq turidagi topshiriqlari;
- bir necha to‘g‘ri javobli yopiq test topshiriqlari;
- ochiq test topshiriqlari;
- o‘xshashlikni aniqlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar;
- to‘g‘ri ketma-ketlikni aniqlashga mo‘ljallangan topshiriqlarni yaratish imkoniyati

ЧҚБТ fanidan ishlab chiqiladigan test topshiriqlariga qo‘yiladigan asosiy talablar. O‘qituvchilar pedagogik faoliyatida vujudga kelayotgan mazkur qiyinchiliklar o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni aniqlash va ularni baholash uchun foydalaniladigan nazorat topshiriqlarini xilma-xillashtirish jarayonida vujudga kelayotganligi sababli, shu muammoni malaka ishida yoritish lozim deb topildi.

Testologiya – (inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, test - sinov), yunoncha logos - bilim) so‘zlari birikmasidan iborat. Testologiya fanlararo fan bo‘lib, ilmiy asoslangan va sifatli diagnostik o‘lchov metodikasi haqidagi fan sanaladi.

Psixologiyada testologiyaning mazmuni asosan tabaqalashtirilgan psixometriyaning mazmuniga mos keladi. Testologiyaning prinsiplari va metodlari psixologiyaning chegarasidan chiqib, hozirgi kunda pedagogika, tibbiyot, texnika, menedjment sohalarida ham muvaffaqiyatli qo‘llanib kelinmoqda.

Testologiyani qo‘llashda umumiy xususiyatlar: test topshiriqlarini tuzish metodikasi, samaradorlik, ishonchlilik bilan bir qatorda har bir fan sohasining o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, fanning ta‘lim mazmuni, testlarning mantiqiy tuzilishi, test sinovining o‘tkazilish maqsadi, kasbiy va umumta‘lim bilimlarni nazorat qilish va baholash tartibi va o‘lchovi ham e‘tiborga olinishi lozim. Hozirgi zamon testologiya fani amaliy fan bo‘lib, tadqiqotchilar oldiga nazariy muammolar, matematik yondoshuvlar, model va metodlarni tavsiya etmoqda.

Test topshiriqlariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- Test topshirig‘i mazmunining to‘g‘riligi;
- Savolning mantiqiy jihatdan to‘g‘ri tanlanishi;
- Test topshirig‘i shaklining to‘g‘riligi;
- Test topshirig‘ining savol va javobning qisqaligi;

- Test topshirig‘i elementlarining to‘g‘ri joylashganligi;
- Test topshirig‘ining to‘g‘ri javoblari bir xil baholanishi;
- Tahsil oluvchilarga test topshirig‘ining bajarish bo‘yicha bir xil ko‘rsatma berilishi;

- Ko‘rsatmalarning test topshirig‘i va mazmuniga mosligi.

Bundan tashqari test topshiriqlari Davlat test markazi tomonidan belgilangan talablarga javob berishi lozim. Test topshiriqlarini tuzishda mazmun asosiy o‘rinni egallaydi, shu sababli o‘quv kursi mazmunidagi bilimlarni aniqlash va ularga mos o‘quv maqsadlariga erishish darajasini belgilaydigan test topshiriqlarini tuzish maqsadga muvofiq.

Test metodining keng tarqalishi, rivojlanishi va takomillashuviga uning quyidagi afzalliklari:

- Test topshiriqlari tadqiqot maqsadiga muvofiq respondentlarning bilim, ko‘nikma va malakalariga aniq baholash imkonini beradi;

- Ijtimoiy so‘rovlarda ishtirok etgan ko‘psonli respondentlarning fikr va mulohazalarini aniqlash va umumlashtirish imkoniyati mavjud;

- Tahsil oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash va baholash jarayoni ob‘ektiv amalga oshiriladi, baholovchi tomonidan sub‘ektivizmga yo‘l qo‘yish oldini oladi.

- Turli guruh respondentlaridan olingan ma‘lumotlarni qiyosiy statistik tahlilini o‘tkazish imkon berishi kabilar zamin yaratgan.

Olingan natijalar va testlarning maqsadga muvofiqligi quyidagi mezonlar bo‘yicha tahlil qilinadi:

1. Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi mezoni. Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi mezoni o‘rganilayotgan ob‘ektning xususiyatlarini o‘zida to‘liq aks ettirib, u tahsil oluvchilar tomonidan mazkur xususiyatlarni aniqlash uchun bajaradigan aqliy operatsiyalariga ko‘ra:

- Reproduktiv daraja;
- Produktiv daraja;
- Qisman-izlanishli daraja;
- Ijodiy (kreativ) darajada bo‘lishi mumkin.

Reproduktiv darajadagi test topshiriqlari tahsil oluvchilarning tomonidan yodda saqlangan bilim, ko‘nikma va malakalarni tanish

odatiy vaziyatda axborotlarni qayta ishlamasdan javob qaytarishni talab etadi.

Produktiv darajada tuzilgan test topshiriqlari tahsil oluvchilar tomonidan o'rganilgan ob'ektlarni qiyoslash, o'xshashlik va farqlarni aniqlash, umumiy xulosa chiqarish orqali javob berishni talab etadi.

Qisman-izlanishli darajadagi test topshiriqlari tahsil oluvchilar tomonidan o'rganilgan ob'ektlarning xususiyatlarini boshqa ob'ektga ko'chirish, mazkur ob'ektlarni taqqoslab, keyingi ob'ektning o'ziga xos xususiyatlari haqida xulosa chiqarish, qisman izlanish olib borishni talab etadi.

Ijodiy (kreativ) darajada tuzilgan test topshiriqlari tahsil oluvchilar tomonidan ijodiy fikr yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish, mazkur test topshiriqlarini bajarish jarayonida tahsil oluvchilar tomonidan avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llashni talab etadi. Dastlabki reproduktiv va produktiv darajadagi test topshiriqlari o'quv fan bo'yicha tasdiqlangan DTSning minimal darajasiga, qismanizlanishli va ijodiy (kreativ) darajadagi test topshiriqlari DTSning maksimal darajasiga mos tuzilishi zarur.

2. Camtasia MenuMaker




13.12 Rasm. Camtasiya Menumaker ish oynasi.

1. Mavjud loyihani ochish - Mavjud loyihani ochish.
 2. Yangi loyiha yarating (Kengaytirilgan) - O'zingiz loyiha yarating. O'sha. Siz Camtasia sehrgarining yordamisiz o'zingiz menyuni yaratasisiz.
 3. Sehrgar yordamida yangi loyiha yarating. Usta sizga yordam beradi. Siz menyuni tanlashingiz mumkin (12 andozadan), uni o'zingizning xohishingizga ko'ra sozlashingiz va h.k.
 4. Siz uni o'zingiz yaratganingizda asosiy menyuni sozlamalari. U erda siz fayllarni tanlashingiz, havolalar ro'yxatining rangini belgilashingiz, kursor faylini tanlashingiz va h.k.
 5. Menyuni xaritasi.
 6. Olingan menyuni oldindan ko'rib chiqing.
 7. Menyuni tuzing.
- Camtasia MenuMaker-ni ko'rib chiqish tugadi.


3. Camtasia Audio Editor.

Ushbu yordam dasturi yaqinda TechSmith paketining bir qismi sifatida paydo bo'ldi. Bu audiofayllar, mini SoundForge-ning bir turi bilan ishlashga mo'ljallangan.



13.13 Rasm. (yangi audio fayl yaratish)

1. **Create a new audio file** - Yangi audio fayl yaratish.
 2. Mavjud faylni (audio, video, Rasm.) tahrirlash.
 3. So'nggi fayllarni tahrirlash.
- Masalan, 1-bandni tanlaymiz.



13.14 Rasm. yangi audio fayl yozish oynasi.

1. Fayl yozish.
2. Belgilangan maydonda ovoz balandligini oshiring.
3. Belgilangan maydonda ovoz balandligini kamaytiring.
4. Tanlangan sohada tovushni bosqichma-bosqich oshirish.
5. Tanlangan sohada tovushning bosqichma-bosqich pasayishi.
6. Tanlangan maydonni sukunat bilan almashtiring.
7. Tanlangan maydonni o'chirish.
8. Tanlangan maydonni kattalashtiring.

Shu bilan Camtasia Audio Editor dasturini ko'rib chiqishni yakunlaymiz.

3. Camtasia Theater.


DVD uslubidagi qulay navigatsiya paneli bilan flesh-fayllar uchun qulay pleyerni yaratish uchun yordamchi dastur. Ushbu menyulardan Jon Riz oylik foydalanadi. Bundan qanday foydalanishni, ko'rib chiqamiz.



13.15 Rasm. Fayl yozish oynasi

Bunday "Teatr" ni yaratish uchun Camtasia Theatre yordam dasturini boshqarishingiz kerak.

Вкладка Menu (Menyu yorlig'i).



13.16 Rasm. Menyu sozlamalari bo`limini

1. Menyu sozlamalari:


Sarlavha shrifti, menyu punktlari shrifti, menyu joylashuvi va "Filmlarni ketma-ketlikda ijro etish" katakchasi degani - Camtasiada yaratilgan videofayllarning ketma-ket ijro etilishi.

2. Menyu ranglarini moslashtiring.

3. Loyihaga swf fayllarini qo'shing. O'sha. bu menyuda ko'rsatiladigan fayllar.

4. Flash menyusini eksport qilish - menyu yaratish.

Вкладка Controls (Boshqaruv yorlig'i).



13.17 Rasm. Controls (Boshqaruv bo`limi).

Ushbu yorliqda siz boshqaruv elementlarini sozlashingiz mumkin.

1. **Paused at Start** - fayllar ishga tushirilganda avtomatik ravishda ijro etilmaydi.

2. **Show about box** - "nashriyotchi to'g'risida" blokni ko'rsatadi.

3. **Цвет контроллера** - Rang nazorat qiladi .

4. **Show elapsed time** - qolgan vaqtni ko'rsatish. Davomini ko'rsatish - umumiy davomiyligini ko'rsatish.

5. **Шрифт и его цвет**- Shrift va uning rangi.

6. **Show loading movie** - oldindan yuklash filmini ko'rsatish.

7. **Match movie size** - Kino hajmini hisoblang.

8. Oldindan yuklanadigan videoning manzili.

9. Film allaqachon ...% xotiraga yuklanganda boshlang.

10. Videoning soniyadagi xotiraga minimal yuklanishi.

11. Yaratgandan so'ng menyuni ishga tushiring.

Flash menyusini eksport qilish tugmasi - menyu yaratadi.

Shu bilan Camtasia teatri dasturini ko'rib chiqish yakunlandi.

4. Camtasia Player

Ushbu yordam dasturi AVI fayllarini ijro etish uchun mo'ljallangan.

Nazorat savollari:

1. Video dars nima?
2. Video dars yaratishning vazifalarini ayting.
3. Video dars yaratish tartibini tushuntirib bering.
4. Video darslar yaratuvchi dasturlarga misollar keltiring.
5. Video darslar nima maqsadlarda ishlatiladi?
6. O`quv video darslar turlarini ko`rsating.vodeo dars rejasi deganda nimani tusunasiz?
7. Video dars yaratuvchi Camtasia Studio dasturning afzalliklarini va kamchiliklarini sanab o`ting.

14 MAVZU.
MASOFAVIY TA'LIM TUSHUNCHASI, TA'LIMNING
MAXSUS SHAKLI, UNING PAYDO BO'LISHI VA
RIVOJLANISH TARIXI.

Reja:

- 1. Masofaviy ta'limning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi.**
- 2. Masofaviy ta'limning asosiy tushunchasi.**
- 3. Masofaviy o'qitish shakllari va usullari.**

Tayanch iboralar: *Masofaviy ta'lim, masofaviy o'qitish, electron ta'lim, axborot texnologiyalari, texnologiyalar, internet texnologiyalari, masofaviy ta'lim texnologiyalari, o'qitish, ta'lim, masofaviy o'qitish moslashuvchanlik, modullilik, parallellik, o'qituvchi.*

O'quv mashg'ulot maqsadi: *Talabalarga masofaviy ta'lim paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini yoritib berish, masofaviy ta'lim asosiy tushunchalari, uning o'qitish shakl va usullari haqida tushuncha berish.*

1. Masofaviy ta'limning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi.

Zamonaviy global axborot dunyosida an'anaviy ta'lim va masofaviy o'qitish o'rtasidagi chegaraning yo'q bo'lib ketishi tendentsiyasi mavjud, chunki aksariyat odamlar ta'lim jarayonida Internetdan foydalanadilar. Hozirda siz Internetda mutlaqo qiziqadigan har qanday mavzuni topishingiz mumkin, bu jarayon ma'lumot topishni osonlashtiradi va vaqtni qisqartiradi.

Zamonaviy talabalar axborot avlodidir, ya'ni. elektron ta'lim dasturlari, darsliklar, topshiriqlar mavjudligi odatiy hayotdan tashqariga chiqmaydi. Ba'zi hollarda, axborotni qo'llab-quvvatlash talabalarga bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga, shuningdek, martaba pog'onasida ko'tarilishga yordam beradi. Texnologiyalarning tez va jadal rivojlanishi bilan bog'liq holda, axborot ta'lim texnologiyalari, xususan, masofaviy yoki onlayn ta'lim ham bir xil sur'atda rivojlanishi kerak. Masofaviy ta'lim - bu bizning zamonamizning muammolarini hal qilishga imkon beradigan alternativa - tezkor axborotli rivojlanishidir.

Masofaviy ta'limning paydo bo'lishi tarixi 1700-yillardan boshlanadi. 1728 yilda Kaleb Flips Boston gazetasiga talabalarni

mamlakatning istalgan nuqtasida stenografiya bo'yicha o'qish uchun xatlarni almashish orqali jalb qilish to'g'risida reklama yubordi. Bu masofaviy ta'limning boshlanishi edi.

Isaak Pitman masofaviy ta'limni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi. 1840 yilda u har kimga darslari bilan pochta orqali xat yuborgan. Keyingi 1856 yilda Berlindagi sirtqi ta'lim institutiga asos solgan C.Tusen va G.Lanchenshteynlar edi. Trening shuningdek, o'quv materiallari, testlar va boshqalar bilan xatlarni pochta orqali yuborish orqali amalga oshirildi.

1873 yilda AQShda birinchi sirtqi maktablar tashkil etildi. Anna Eliot Ticknor ayollar uchun "Ticknor" jamiyatining kashshofi bo'lib, talabalar masofadan turib pochta orqali bilim olishgan deb ishoniladi. Bir yil o'tgach, 1874 yilda Isaak Pitman o'z o'quv dasturini pochta orqali yaratishni taklif qildi.

Ko'p o'tmay, 1892 yilda Chikago universiteti birinchi masofaviy ta'lim dasturini yaratdi va bu AQShdagi birinchi masofaviy ta'lim muassasasiga aylandi. 1899 yildan Kanadada Qirolicha universiteti talabalarga masofadan o'qitishni boshladi.

1906 yilda Baltimordagi Kalvert boshlang'ich maktablari ham masofadan o'qitishni o'rgatishni boshladi.

Yigirmanchi asrning birinchi yarmida, yangi texnologiyalar paydo bo'lishi bilan masofaviy ta'limning rivojlanishi jadallashdi, u turli formatlarda va ko'plab talabalar uchun taklif qilindi. Shunday qilib, radio ixtiro qilinishi bilan masofadan o'qitishni rivojlantirish jarayoni tezlashdi, talabalar bilan ishlashning yangi shakllari paydo bo'ldi. Radioni o'qitishga birinchi bo'lib kiritgan universitet 1922 yilda Pensilvaniya shtati universiteti bo'lgan deb hisoblashadi. Ko'p o'tmay, 1925 yilda Ayova shtati universiteti radioeshittirishning beshta kursi uchun o'qishga kreditlar berishni boshladi. Va 1934 yilda o'sha universitet dunyodagi birinchi ta'lim kanalini ochdi va shu kungacha davom etmoqda.

50-yillarda televizor paydo bo'lishi bilan televizion kurslar rivojlandi. Shunday qilib, 1953 yilga kelib, AQSh va Evropa universitetlari orasida kurslarni televizion eshittirish juda keng tarqalgan.

Viskonsis universiteti 1965 yilda telefon orqali o'qitish formatidan foydalangan holda shifokorlar uchun katta ta'lim dasturini joriy etdi. 1968 yilda Linkoln (Nebraska) universitetida masofaviy ta'lim bo'yicha akkreditatsiyadan o'tgan diplomni olish mumkin edi.

60-yillarda masofaviy ta'lim xalqaro miqyosda tan olingan va YuNESKO ko'magida faol rivojlana boshladi. 1963 yilda Angliya Bosh vaziri G. Uilson masofaviy ta'limdan foydalangan holda barcha ta'lim muassasalarini birlashtirishi kerak bo'lgan "efir universiteti" yaratilishini e'lon qildi. 1969 yilda Angliyada Ochiq Universitet tashkil etildi. Bugungi kunda ushbu universitet juda mashhur bo'lib, unda turli mamlakatlardan 200 mingdan ortiq talabalar turli sohalarda tahsil olishmoqda.

1970 yilda Kaliforniyada o'quv televizion kurslarini ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruh tuzildi. Keyinchalik kutubxonalarga va jamoat telekanallariga o'quv filmlarini taklif qiladigan butun Coastline Community College tashkil etildi. 1976 yilda Coastline dasturini o'qitadigan birinchi "virtual kollej" ochildi. Biroq, bitta texnologiya tezda ikkinchisini almashtirdi va tez orada sun'iy yo'ldosh stantsiyalari orqali onlayn kurslarni o'qitish taklif qilindi, keyin Internet poydevori yaratildi.

Vaqt o'tishi bilan kompyuterlar masofadan o'qitish uchun ishlatila boshlandi. 60-yillarda IBM kompaniyasi noyob Coursewriter masofaviy ta'lim dasturini ishlab chiqdi. U turli xil tadbirlar uchun moslashtirildi va 1968 yildan 1980 yillarga qadar Alberta universitetida 17 xil kurslarda ishlatilgan. .

Internet ixtiro qilinishi bilan insoniyat ta'lim texnologiyasida bir qadam oldinga qadam tashladi.

80-yillar davomida real vaqtda o'qitish texnologiyalari takomillashib, kompaniyalar va o'quv yurtlari orasida mashhurlikka erishdi. 1981 yilda AQSh strategiya va menejment instituti onlayn kurs dasturini ishlab chiqishni boshladi. 1985 yilda Janubi-Sharqiy Universitet o'zining onlayn kurslari tizimi orqali akkreditatsiyadan o'tgan darajalarni taqdim etdi. Feniks universiteti 1989 yilda real vaqtda o'qitish bilan boshlangan.

90-yillar davomida ta'lim muassasalari turli xil masofaviy ta'lim texnologiyalaridan sinxron va asinxron rejimlarda foydalanganlar.

1992 yilda Michigan shtati universiteti onlayn ta'limga kompyuter yordamida yondashishni ishlab chiqdi. 1994 yilda universitet ba'zi psixologiya talabalariga virtual ta'lim maktabini (VSS) taklif qildi. Bundan tashqari, 1994 yilda Nyu-Xempshirdagi masofaviy ta'lim bilan shug'ullanayotgan kompaniyasi CALCampus dasturini ishlab chiqdi, u faqat materiallarni o'qitish, boshqarish va Internet orqali yuborish imkoniyatini berardi.

1997 yilda Blackboard kompaniyasi kurslarni boshqarish va o'tkazish uchun standart platformani ishlab chiqdi. Hozirda kompaniya masofadan turib o'qitish texnologiyasi bo'yicha dunyoda etakchi bo'lib, dunyo bo'ylab 10000 dan ortiq tashkilotlar mahsulotlar bilan foydalanadigan .

2000-yillarda masofadan o'qitish dominant bo'lib qoldi. Internet tizimi takomillashib bormoqda, ulardan foydalanish imkoniyati yanada oshdi va masofaviy ta'lim texnologiyalari ham rivojlandi. Natijada Internet texnologiyalaridan foydalanadigan universitetlar soni ortdi.

2011 yilning kuzida Stenford universiteti professorlari Sebastian Tran va Piter Norvig sun'iy intellekt asoslari bo'yicha kirish onlayn kursini boshladilar. O'z navbatida, ushbu kurslarning ochilishida 190 mamlakatdan 160 mingdan ziyod talabalar Internetga tashrif buyurdilar. Talabalarning muhim qismi vaqt o'tishi bilan tark etishdi, ammo 23 ming eng qat'iyatli o'quv kurslarini tamomladilar. Sebastian Tranning muvaffaqiyati boshqa universitetlarni (Prinston, Pensilvaniya, Michigan universiteti) o'zlarining onlayn kurslarini ochishga ilhomlantirdi. Keyinchalik, Stenford olimlari Udacity veb-saytini yaratdilar, bu Internet-kurslarning kuchli provayderi. Masofaviy ta'limni rivojlantirishning navbatdagi bosqichi - ko'p funktsiyali massiv onlayn kurslarning ochilishi (ommaviy ochiq onlayn kurslar, MOOC) - bu o'z talabalariga turli xil universitetlarning ta'lim dasturlarini taklif qiladigan platformalar.

O'zbekistonda masofaviy ta'limni rivojlanishi. O'zbekiston boshqa mustaqil davlat hamdo'stligi mamlakatlariga o'xshab o'zining ta'lim sohasini jahon standartlariga olib kelishda ko'p harakatlar qilmoqda. Mamlakatimizning maydoni kattaligi va markazdan geografik uzoqlashgan regionlar mavjudligi elektron ta'limni rivojlanishiga asosiy sabab bo'lib, unga katta ahamiyat berilishiga olib kelmoqda. Hozirgi moliyaviy tanqislik davrida, ta'limning bu turidan keng miqyosda foydalanish lozim. Mazkur ta'lim turini joriy qilish bilan bog'liq ayrim muammolarning kelib chiqishi tabiiy. Bular asosan mablag'lar, texnika ta'minoti va shu sohada malakali muhandis hamda pedagog kadrlar yetishmovchiligi, lekin biz shu muammolarni imkoniyat darajasida hal qilishimiz zarur chunki, O'zbekiston sharoitida masofaviy ta'limni tashkil qilinish katta samara berishi aniq.

Hozirgi kunda ta'lim va ishlab chiqarish sohasini kompterslashtirish va shu sohalarda informasion texnologiyalarni rivojlantirish haqida ko'plab Prezidentimiz farmonlari va Oliy majlis

qarorlari chiqarilgan. Natijada oxirgi besh yil ichida Respublikasizda ko'plab ibratli ishlar qilindi. Masalan **2002 yilda Toshkent axborot texnologiyalar universiteti tashkil qilinib**, shu yildan boshlab bu universitet kompyuter va kommunikasiyalar, radiotelefon va axborot tarmoqlari, dasturiy ta'minot va elektron kommersiya sohasiga zarur bo'lgan mutaxasislarni tayyorlanmoqda. Ushbu va boshqa oliy ta'lim muassasalari tomonidan ko'plab ta'lim sohasiga tegishli yangi dasturlar va elektron kitoblar yaratilmoqda.

Shu bilan birga mamlakatimizda **2000 yildan o'z ishini olib borgan, AQSh Davlat Departamentining Ta'lim va Ma'daniyat masalalari bo'yicha byurosi (ECA) va Xalqaro Ilmiy Tadqiqotlar va Olimlarni Ayrboshlash Kengashi (IREX)** tomonidan tashkil qilingan «Internetdan foydalanish va o'qitish programmasi» (<http://www.iatp.uz>) va «O'zbekiston maktablarida Internet» (<http://www.connect.uz>) programmalarini ham aytish lozim. Shu programmalarining asosiy vazifasi – bizning Respublikamizda Internet va uning xizmatlarini rivojlantirish va aholi ichida keng tadbiq qilish. Ushbu programmalar natijasi deb hozirgi kunda **Respublikamizning 16-ta shahrida** aholiga beminnat xizmat ko'rsatgan «Internetdan bepul foydalanish» markazlari hamda **Respublikamizning 6-ta viloyatining 60 maktablarida** tashkil qilingan **Internet markazlarini** aytish mumkin.

Shu bilan birga o'zbek tilidagi Internetni rivojlanishi va undagi ta'lim sohasiga tegishli maxsus saytlarini paydo bulishini ham aytish lozim deb hisoblaymiz. **2004 yilning birinchi kvartalning o'zida** Internet foydalanuvchilar soni taxminan **511.000** ga yetdi (2003 yil boshida **275.000 ta**). Shu bilan birga 2003 yil boshiga nisbatdan internet provayder va operatorlar soni 263 (usish 94,8%), UZ zonadagi veb saytlar soni esa 2600 dan oshdi (usish 188,4%), Internetga bog'langan davlat korxonalar soni 470 (usish 63,6%), xo'jalik subyetlar soni 8600 (usish 68,9%), internetdan ommaviy foydalanish punktlar soni 228 (usish 115,1%) ga teng bo'ldi. **IATP** programmasining Internet grantlari natijasida tashkil qilingan va 2002 yildan faoliyat ko'rsatib kelgan «Masofaviy ta'lim portali» (<http://dl.freenet.uz>), yoki ko'plab Respublikamiz Universitet va Institutlari tomonidan o'zlarining veb sahifalarida tashkil qilingan «Masofaviy ta'lim kurslari»ni ham alohida aytishimiz zarur (masalan <http://nuu.uz> O'zbekiston Milliy Universiteti saytida tashkil qilingan kurslar). Ta'lim sohasiga tegishli ko'plab foydali va qiziqarli veb saytlar yaratilmoqda,

(<http://www.bilim.uz>, <http://www.bilimdon.uz>, <http://www.ilm.uz>, <http://www.student.uz>, <http://www.study.uz> va boshkalar). Eng quvonarli esa Internetda nafaqat universitet, institut, kolledj va akademik liseylar balki maktablar ham o'zlarining veb sahifalariga ega bo'lishmoqdalar.

Boshqa misol qilib Respublikamizning oliy yurtlari tomonidan tashkil qilingan videokonferensiyalarni ham aytish mumkin. 2002 yilda Respublikamizda birinchi marta Prezident Devoni, Tashqi Iqtisod Aloqalar Vazirligi, Jahon Iqtisod va Diplomatika Universiteti va Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti urtasida videokonferensiya o'tkazildi. Hozirgi kunda Respublikamizning Toshkent Davlat Texnika Universiteti, Toshkent Davlat Iqtisod Universiteti, Jahon Iqtisod va Diplomatika Universiteti, Toshkent Davlat Agrar Universiteti va boshqa oliy o'quv yurtlarida bir necha marta videokonferensiyalar o'tkazilgan edi va o'tkazilmoqda.

Masofaviy ta'limning asosiy tushunchasi.

Hozirgi zamon ta'lim jarayoniga an'anaviy tushunchalar qatorida yangi- yangi tushunchalar kirib kelmoqda. Quyida shu tushunchalardan asosiylari keltirilib, ularga ta'riflar berib o'tilgan.

O'qitish – bu ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan tizimli bilim va ko'nikmalar bilan qurollangan jarayondir.

Ta'lim – bu o'qitishning natijasi bo'lib, shaxsiyatni tarbiyalash va rivojlantirishdir.

Masofaviy o'qitish – eng yaxshi an'anaviy va innovatsion metodlar, o'qitish vositalari va formalarini o'z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim formasidir.

Masofaviy o'qish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim tizimidir. U ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun-qoidalari asosida o'quv shart- sharoitlari va o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab berib, o'quvchidan ko'proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o'qish jarayoni ta'lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo'lishiga bog'liq emas. **Masofaviy ta'lim** – masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim kompleksidir.

Demak, masofaviy o`qitish masofaviy ta`lim kompleksidagi jarayon ekan. Masofaviy o`qitishning va masofaviy ta`limning o`ziga xos xususiyatlari, pedagogik tizimi, zarurligi va maqsadi mavjud.

Masofaviy ta`lim an`anaviy ta`lim turidan quyidagi xarakterli xususiyatlari bilan farqlanadi.

Moslashuvchanlik – Ta`lim oluvchiga o`ziga qulay vaqt, joy va tezlikda ta`lim olish imkoniyati mavjudligi.

Modullilik – Bir biriga bog`liq bo`lmagan mustaqil o`quv kurslari to`plamidan

- modullardan individual yoki guruh talabiga mos o`quv rejasini tuzish imkoniyati mavjudligi.

Parallellik – O`quv faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya`ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati mavjudligi.

Keng qamrovlilik – Ko`p sonli o`quvchilarning bir vaqtning o`zida katta o`quv (elektron kutubxona, ma`lumotlar va bilimlar bazasi va boshqalar) zahiralariga murojaat qila olishi. Bu ko`p sonli o`quvchilarning kommunikatsiya vositalari yordamida o`zaro va o`qituvchi bilan muloqotda bo`lish imkoniyati.

Iqtisodiy tejamkorlik – O`quv maydonlari, texnika vositalari, transport vositalari va o`quv materiallaridan samarali foydalanish, o`quv materiallarini bir joyga yig`ish, ularni tartiblangan ko`rinishga keltirish va bu ma`lumotlarga ko`p sonli murojaatni tashkil qilib bera olish mutaxassislarni tayyorlash uchun ketadigan xarajatlarni kamaytiradi.

Ijtimoiy teng huquqlilik – Ta`lim oluvchining yashash joyi, sog`lig`i va moddiy ta`minlanish darajasidan qat`iy nazar hamma qatori teng huquqli ta`lim olish imkoniyati.

Internatsionallilik – Ta`lim sohasida erishilgan jahon standartlariga javob beradigan yutuqlarni import va eksport qilish imkoniyati.

O`qituvchining yangi roli – Masofaviy o`qitish o`qituvchining o`qitish jarayonidagi rolini yanada kengaytiradi va yangilaydi. Endi o`qituvchi o`zlashtirish jarayonini muvofiqlashtirishi, yangiliklar va innovatsiyalarga mos ravishda berayotgan fanini muntazam mukammallashtirishi, saviya va ijodiy faoliyatini yanada chuqurlashtirishi talab etiladi.

Sifat – Masofaviy o`qitish usuli ta`lim berish sifati bo`yicha kunduzgi ta`lim turidan qolishmaydi. Balki, mahalliy va chet ellik dars beruvchi kadrlarni jalb qilib, eng yaxshi o`quv-metodik darsliklar va nazorat qiluvchi testlardan foydalangan holda o`quv jarayonini tashkil etish sifatini oshirishi mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olinganda masofaviy ta`lim kompleksi ancha qulayliklarga ega ekan. Lekin, nima uchun masofaviy ta`lim kerak bo`lib qoldi? degan savol tug`ilishi tabiiy. Bu savolga javob tariqasida quyidagilarni sanab o`tish mumkin:

- ✓ Ta`lim olishda yangi imkoniyatlar (ta`lim olishning arzonligi, vaqt va joyga bog`liqmasligi va boshqalar).
- ✓ Ta`lim maskanlariga talaba qabul qilish sonining cheklanganligi.
- ✓ Ta`lim olishni xohlovchilar sonining oshishi.
- ✓ Sifatli axborot texnologiyalarining paydo bo`lishi va rivojlanishi.
- ✓ Xalqaro integratsiyaning kuchayishi.

Yuqorida sanab o`tilgan sharoit va imkoniyatlar masofaviy o`qitishga ehtiyoj borligini ko`rsatadi. Umuman olganda masofaviy ta`limning maqsadiga quyidagilar kiradi:

1. Mamlakat miqyosidagi barcha hududlar va chet eldagi barcha o`quvchilar, talabalar, ta`lim olishni xohlovchilarga birdek ta`lim olish imkoniyatini yaratib berish.

2. Yetakchi universitetlar, akademiyalar, institutlar, tayyorlov markazlari, kadrlarni qayta tayyorlash muassasalari, malaka oshirish institutlari va boshqa ta`lim muassasalarining ilmiy va ta`lim berish potentsiallaridan foydalanish evaziga ta`lim berishning sifat darajasini oshirish.

3. Asosiy ta`lim va asosiy ish faoliyati bilan parallel ravishda qo`shimcha ta`lim olish imkoniyatini yaratib berish.

4. Ta`lim oluvchilarni ta`lim olishga bo`lgan ehtiyojini qondirish va ta`lim muhitini kengaytirish.

5. Uzluksiz ta`lim imkoniyatlarini yaratish.

6. Ta`lim sifatini saqlagan holda yangi prinsipal ta`lim darajasini ta`minlash.

Yuqoridagilarni xulosa qilib shuni aytish mumkinki, masofaviy ta`lim kompleksini ta`lim muassasalariga joriy etilishi har tomonlama foyda keltiradi. Oliy ta`lim tizimida bu kompleksni joriy qilish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Respublika miqyosidagi barcha Oliy ta`lim maskanlari (OTM) kompyuter, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan yaxshi ta`minlangan. Ularning barchasi Internet

tarmog`iga ulanganlar. Ushbu texnologiyalarni ta`lim tizimiga keng joriy etish OTMLari oldiga qo`yilgan ko`p muammolarni o`z paytida xal etishga yordam beradi.

3. Masofaviy o`qitish shakllari va usullari.

Masofadan ta`lim shakllari: bu nima?

Masofaviy ta`lim - bu o`quvga xos bo`lgan barcha tarkibiy qismlarni (maqsadlar, mazmun, uslublar, tashkiliy shakllar, o`quv qo`llanmalar) saqlab qolish va aniq texnik vositalardan (Internet-texnologiyalar yoki boshqa interaktiv muhit) foydalangan holda masofadan turib talaba va o`qituvchi o`rtasidagi o`zaro munosabatlar jarayoni tushuniladi.

Insoniyat yigirmanchi asr nihoyasida bir turkum muammolarga duch keldikim, ular bevosita axborot telekommunikatsiya sohasidagi jiddiy o`zgarishlar, xususan axborot texnologiyalarining jadal sur`atlar bilan rivojlanishiga bog`liq. Ta`lim, ishlab chiqarish va kishilik jamiyatining turli jabhalariga yangi axborot kommunikatsiya vositalari kirib kela boshladi. Internet global kompyuter tarmog`ini rivojlanishi butun dunyo ta`lim tizimini takomillashtirishning yangi yo`nalishlarini ochilishiga sabab bo`ldi. Birinchidan, o`quv muassasalarining texnik ta`minotini keskin o`zgarishi, dunyoviy axborot resurslarga keng yo`l ochilishi o`qitishning yangi shakl va usullaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqardi.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta`lim jarayoniga kirib kelishi an`anaviy o`qitish usullariga qo`shimcha ravishda yangi o`qitish shakli - masofaviy o`qitish yaratilishiga omil bo`ldi.

Masofaviy ta`limda talaba va o`qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o`zaro maxsus yaratilgan o`quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo`ladilar. Internet texnologiyasini qo`llashga asoslangan masofaviy o`qitish jahon axborot ta`lim tarmog`iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o`zaro aloqa tamoyiliga ega bo`lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi.

Masofaviy o`qitish barcha ta`lim olish istagi bo`lganlarga o`z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o`qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o`quv-uslubiy materiallarni o`zlashtiradi, nazoratdan o`tadi, o`qituvchining bevosita

rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «vertikal o‘quv guruhi» talabalari bilan muloqotda bo‘ladi.

Ma‘lum sabablarga ko‘ra, ta‘lim muassasalarining kunduzgi bo‘limlarida tahsil olish imkoniyati bo‘lmagan, masalan, sog‘ligi taqoza etmaydigan, mutaxassslicligini o‘zgartirish niyati bo‘lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo‘lgan kishilar uchun masofaviy o‘qitish qulay o‘qitish shakli hisoblanadi.

Masofaviy o‘qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya‘ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog‘liq. Masalan, an‘anaviy bosma usuliga asoslangan o‘qitish vositalari (o‘quv qo‘llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma‘lum vaqt orasida o‘zaro muloqotda bo‘lishga, elektron pochta to‘g‘ri va teskari aloqa o‘rnatishga, ya‘ni xabarlarni jo‘natish va qabul qilishga mo‘ljallangan. Oldindan tasmaga muhrlangan videoma‘ruzalar talabalarga ma‘ruzalarni tinglash va ko‘rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o‘zaro teskari aloqa orqali o‘qitish imkonini beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ta‘lim jarayonida ayni vaqtda qayta-qayta tilga olinayotgan ayrim terminlar tavsifi va ta‘riflarni keltirib o‘tamiz.

Masofaviy ta‘lim - masofaviy o‘qitishga asoslangan ta‘lim.

Masofaviy o‘qitish – o‘zaro ma‘lum bir masofada Internet texnologiya yoki boshqa interaktiv usullar va barcha o‘quv jarayonlari komponentlari – maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakllar va o‘qitish usullariga asoslangan talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabat.

Masofaviy o‘qitish tizimi – masofaviy o‘qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o‘qitish tizimi. Barcha ta‘lim tizimlari singari masofaviy o‘qitish tizimi o‘zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

Masofaviy o‘qitishning pedagogik texnologiyalari – tanlangan o‘qitish konsepsiyasiga asoslangan masofaviy ta‘limning o‘quv-tarbiyaviy jarayonini ta‘minlovchi o‘qitish metodi va uslublar majmuasi.

Keys-texnologiya – masofaviy o‘qitishni tashkil qilishning shunday uslubiki, masofaviy ta‘limda matnli, audiovizual va

multimediali (keys) o‘quv uslubiy materiallar majmuasi qo‘llanishga asoslanadi.

TV-texnologiya – masofaviy o‘qitishni tashkil qilishning shunday uslubiki, u talabalarga o‘quv-metodik ma’lumotlarni televideniye vositasi yordamida yetkazishga xizmat qiladi va tashqi aloqali ixtiyoriy interaktiv usullardan biri bilan o‘rnatishga asoslanadi.

Masofaviy o‘qitishning ta’lim tizimida bir-biridan farqlanuvchi model va shakllari mavjud bo‘lib, ular quyidagi qo‘llanish shartlari bilan farqlanadi:

Geografik shartlar (masalan, mamlakat territoriyasi, markazdan uzoqlikda joylashuvi, iqlimi);

Mamlakatning axborotlashuvi va kompyuterlashtirish umumiy darajasi;

kommunikatsiya va transport vositalarining rivojlanish darajasi;

ta’lim jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari

vositalarining qo‘llanish darajasi;

ta’limda qo‘llaniladigan an’analari;

masofaviy o‘qitish tizimi uchun ilmiy pedagog kadrlar mavjudligi va ularning salohiyati va boshqalari

Masofaviy o‘qitish usullarining asosiy guruhleri

Zamonaviy texnologiyalar masofaviy oliy pedagogik ta’limni yangicha tashkil qilinishiga asos yaratadi. Bunday ta’limda pedagoglar, kompyuter dasturchilari va mutaxassisleri yordamida yangi o‘qitish kurslarini yaratishlari lozim bo‘ladi. Masofaviy o‘qitish kurslarini yaratishda dastlab:

- kurslarning maqsadi;
- maqsadga erishish yo‘llari;
- o‘quv materiallarini taqdim etish usullari;
 - o‘qitish metodlari;
 - o‘quv topshiriqlarining turlari;
 - muhokamalar uchun savollar;
 - munozara va bahslarni tashkil etish yo‘llari;
 - o‘zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlash lozim.

Bularning barchasi kurslarni yaratuvchi - o‘qituvchilar (kurslar dizayneri) va texnologiyalar bo‘yicha mutaxassislar hamkorligida amalga oshiriladi.

O'quvchi va o'qituvchining o'rtasidagi kommunikatsiya turiga ko'ra masofaviy o'qitish metodlarini quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin:

- mustaqil o'qish usullari;
- «birga-bir» pedagogik usuli;
- «birga-ko'pchilik» o'qitish;
- kommunikatsiya asosida «ko'pchilik-ko'pchilik» ta'limi.

Masofaviy mustaqil o'qish uchun multimedia yondashuvi xarakterlidir. Mustaqil o'qishni tashkil etishda an'anaviy ta'lim va zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan ta'limning imkoniyatlarini 1.1-jadvalda keltirilgan taqqoslash orqali ko'rish mumkin.

An'anaviy ta'lim va zamonaviy axborot texnologiyalarga asoslangan ta'limning imkoniyatlari.

An'anaviy ta'lim	Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ta'lim
Nashr materiallari	Nashr materiallari
	Audio va video materiallar
	Kompyuter o'rgatuvchi dasturlar
	Elektron jurnallar
	Interfaol ma'lumotlar bazasi
	Kompyuter tarmoqlari orqali uzatiladigan boshqa o'quv materiallar

«Birga-bir» masofaviy o'qitish metodi – bu individuallashtirilgan o'qitish va o'qish metodidir. Bunda o'quv muloqotlarining o'quvchi-o'qituvchi, o'quvchi-o'quvchi shakllari qatnashadi. Bu metod uchun telefon, ovozli pochta, elektron pochta kabi texnologiyalarni qo'llash talab etiladi. Kompyuter tarmoqlariga asoslangan «teleustozlik»ni rivojlantirish muhim yo'nalish hisoblanadi.

«Birga – ko'pchilik» o'qitish usuli uchun an'anaviy va zamonaviy texnologiyalar asosidagi ta'lim afzalliklarini 1.2-jadvalda keltirilgan taqqoslash orqali ko'rish mumkin.

An'anaviy va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ta'lim afzalliklari.

D	Ko'rgazmali
Ma'ruza	Audio va video

Ma'ruza	Radio va TV
Ma'ruza	Eleksiya-elektron

Zamonaviy texnologiyalar o'qitish usullarini ham takomillashtirishga ishonch hosil qilish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayoniga yangi terminlarni olib kirdi. Keyingi vaqtlarda elektron leksiya, ya'ni **eleksiya** tushunchasi paydo bo'ldi.

Eleksiya - bu kompyuter tarmoqlari orqali tarqatiluvchi leksiya materiallaridir. Eleksiya nafaqat ma'ruza matnlaridan balki o'quvchini bahslarga tayyorlashga xizmat qiluvchi o'quv materiallari, maqolalar, ularning qisqartmalaridan tashkil topishi mumkin.

Kommunikatsiya asosida «ko'pchilik-ko'pchilik» ta'limi – o'quv jarayonidagi barcha ishtirokchilarning o'zaro faolligi bilan xarakterlanadi. Jamoaviy o'quv bahslari va konferensiyalarning o'tkazilishi bu metodning rivojlanishiga olib keladi. O'quv muloqotlari o'quvchilar-o'qituvchi va o'quvchilar-o'quvchilar shaklida bo'ladi. Bu metod sinxron va asinxron audio, audiografik, video va kompyuter konferensiyalari texnologiyalariga asoslanadi.

Kompyuter kommunikatsiya texnologiyalari bahslar, modellashtirish, aqliy hujum, Delfi metodi, forumlar, loyihalash guruhlari kabi o'qitish metodlaridan faol foydalanishga imkon beradi.

Pedagogik ta'lim muhitining samarasi, yangi texnologiyalar negizida o'qitish mazmunining rivojlanishiga, ta'lim muhiti interfaolligi rivojiga, ta'lim jarayonida o'quvchining faolligini rivojlantirishga, moslashuvchan o'quv jarayonining tashkil etilishiga bog'liqdir.

Masofaviy o'qitishning texnologiyalari va tashkil qilish usullari

Masofaviy o'qitishning bir necha texnologiyalari va ularni tashkil qilish usullari mavjud bo'lib, ulardan masofaviy o'qitish tizimini yo'lga qo'yish va rivojlantirishda keng foydalanilmoqda. Bu texnologiyalarni shartli ravishda to'rt guruhga ajratish mumkin.

Audio (ovoz) – audio o'quv qurollari telefoniya, audiokonferensiya va qiskato'liqli radio kabi interaktiv texnologiyalarni o'z ichiga oladi.

Video – video o'quv qurollariga o'zgarimas statik rasmlar (slyaydlar), animatsion (harakatdagi) tasvirlar (plyonkalar,

videokassetalar) va real vaqt mobaynida audiokonferensiya imkoniyatlari bilan birgalikdagi animatsion tasvirlarni kiritsa bo'ladi. Shuni aytib o'tish kerak-ki, real vaqt mobaynidagi audiokonferensiya bilan birgalikda uzatilayotgan animatsion tasvir bir tomonlama yoki ikki tomonlamali video tasvir, yoki bo'lmasa, bir tomonlama yoki ikki tomonlamali audiokonferensiyadan tashkil topgan bo'lishi mumkin.

Bosmadan chiqarilgan tarqatma materiallar – bunday materiallarga o'quv darsliklar, fan bo'yicha qo'llanmalar, o'quv dasturlari, ma'ruza matnlari va alohida qo'shimcha hujjatlar kiradi.

Elektron ma'lumotlar – «ma'lumotlar» termini ostida shunday ma'lumotlar nazarda tutilmoqdaki, bunday ma'lumotlarni boshqa kompyuterga yoki kompyuterlarga uzatish mumkin bo'ladi. Shu sababli bu yerda elektron ma'lumot degan termin ishlatilmoqda. Bugungi kunga kelib ko'pgina kompyuterlar global Internet tarmog'iga, ma'lum bir yo'nalish yoki soha bo'yicha qurilgan korporativ tarmoqqa (Intranet) ulangandir. Bu esa keng miqyosda masofaviy o'qitishni yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Masofaviy o'qitishni tashkil qilishning keng tarqalgan, uni boshqalari bilan solishtirganda samaraliroq bo'lgan ikki usuli mavjuddir. Bular - videokonferenstexnologiyaga asoslangan masofaviy o'qitish usuli va Internet/Intranet tarmog'ida WEB texnologiyaga asoslangan masofaviy o'qitish usulidir.

Videokonferenstexnologiya asosida qurilgan masofaviy o'qitish tizimini sinxron ko'rinishdagi masofaviy o'qitish deb atash ham to'g'ri bo'ladi. Bunga sabab, o'quv jarayoni ham o'qituvchi uchun, ham o'quvchi uchun real vaqt mobaynida amalga oshadi. Masofaviy o'qitishning bunday ko'rinishini tashkil qilishning bir necha usullari mavjud bo'lib, ular asosan videokonferensiya uchun ishlatiladigan aloqa kanalining turiga qarab farqlanadi. Bugungi kunda videokonferensiya aloqasi uchun asosan ikki xil aloqa kanallaridan foydalaniladi. Bular – ISDN va Internet kanallaridir. Videokonferensiya aloqasi jarayoni uchun maxsus qurilmalar ishlatilib, ular aloqa kanallari orqali audio ovoz, video tasvir yuborish bilan bir qatorda va boshqa multimediya imkoniyatlariga ham ega bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bunday o'qitish usulida o'quv jarayonini ikki tomonlama – ham o'qituvchi ham o'quvchilar tomonidan sinxronlash zaruriyati paydo bo'ladi. Ya'ni o'qitish jarayonida ikkala tomonda bir vaqtning o'zida ham o'qituvchining ham o'quvchilarning qatnashishi

talab qilinadi. Ba'zi hollarda bunday talab noqulayliklarni keltirib chiqaradi, ayniqsa agar o'qituvchi va o'quvchilar geografik noqulay joylashgan bo'lishsa (ular orasida vaqt anchagina farq qiladigan bo'lsa). Ammo real vaqt mobaynidagi muloqot va axborot almashinuvi masofaviy o'qish jarayonini samarasini oshiradi. Yana shuni aytib o'tish kerakki, videokonferenstexnologiya asosidagi masofaviy o'qitish usuli yuqori sifatli kanal, maxsus qurilmalarni talab qilganligi sababli masofaviy o'qitishning boshqa usullariga nisbatan moliyaviy jihatdan birmuncha ko'proq mablag' talab etadigan usullardan hisoblanadi.

Internet/Intranet tarmog'ida WEB texnologiyaga asoslangan masofaviy o'qitish usuli ancha arzon, sodda va asinxron ko'rinishidagi masofaviy o'qitish usulidir. Internet/Intranet texnologiyalarining bugungi kunda erishgan yutuqlari esa oldindan tayyorlab qo'yilgan audio axborotni, video tasvirni va boshqa multimediya ilovalarini tarmoq bo'yicha uzatish imkonini beradi. Bu masofaviy o'qitish usulining asosiy xususiyati uning asinxronligidadir. O'quvchilar Internet/Intranet tarmog'i orqali masofaviy o'qitish jarayonini tashkil qilish uchun mo'ljallangan masofaviy o'qitish platformasiga murojaat qilish bilan o'qish jarayonida qatnashadilar. Bunda ular o'zlariga qulay joy va vaqtda masofaviy o'qitish platformasiga murojaat qilishlari mumkin. Videokonferenstexnologiyaga asoslangan masofaviy o'qitish usulidan farq qilib, bu usuldan foydalanuvchi o'qituvchi va o'quvchilardan bir vaqtning o'zida masofaviy o'qitish jarayonida qatnashish talab qilinmaydi, o'quvchilar o'quv materiallarini (elektron ma'ruza matnlari, videorolik va boshqalar) ikkinchi tomonda o'qituvchi bo'lmagan taqdirda ham qayta ko'rib o'rganishlari mumkin. Bu holda, masofaviy o'qitishning bu usulida qanday qilib o'quv jarayonining asosiy elementi bo'lmish o'qituvchi va o'quvchi orasida muloqot va savol-javob o'tkaziladi? - degan savol tug'ilishi mumkin. O'qituvchi va o'quvchi orasidagi muloqotni elektron pochta almashish, e'lonlar taxtasi va forumlardan foydalanish, ilovalardan va ovozi pochta (voice mail) foydalanish yo'li bilan amalga oshirish mumkin. Undan tashqari Internet/Intranet texnologiyalari bugungi kunga kelib tarmoq orqali har xil multimedia ilovalarini uzatish imkonini bermoqda, bu esa o'z navbatida masofaviy o'qitishning samarasini oshirmoqda (Virtual laboratoriyalar, interaktiv test programmalar).

Qo'llanilayotgan texnologiya masofaviy o'qitishni yo'lga qo'yish va uni uzatishda asosiy rol o'ynashiga qaramasdan, masofaviy o'qitishda ishtirok etayotgan o'qituvchilar asosiy e'tiborlarini axborot tashish texnologiyasiga emas, aksincha o'qitish natijasiga qaratishlari lozim. Samarali masofaviy o'qitish jarayonini tashkil qilish yo'lidagi birinchi qadamlarga o'quvchilarning talablarini aniqlash, o'quv materiallarini mazmunini tanlash va o'qituvchi uchun o'quv jarayonidagi mavjud chegaralarni aniqlash ishlari kiradi. Shuni aytib o'tish joizki, bu amallar o'quv jarayonini tashkil qilib beruvchi texnologiyani tanlashdan avval qilinadigan amallardir.

Masofaviy o'qitish uchun mo'ljallangan elektron o'quv materiallarini ishlab chiqishda ma'ruzaning asosiy ma'nosi ko'p hollarda o'zgarmaydi, ammo materiallarni yetkazish va namoyish qilishda ularni doimiy yangilash, bunda yangi texnologiya va metodikadan (o'quv materiallarining Virtual ko'rinishi) foydalanish va buning uchun alohida vaqt ajratish talab qilinadi.

O'quv jarayonini samarasini oshirish uchun masofaviy o'qitish tizimi shunday bo'lishi kerakki, undagi foydalanuvchilar qisqa vaqt mobaynida masofaviy o'qitish qurollaridan samarali foydalanishni o'rgana olishlari va o'quv jarayonida masofaviy o'quv metodikasida noqulayliklarga duch kelmasliklari kerak. Masofaviy o'qitish tizimi shunday tashkil qilingan bo'lishi kerakki, unda asosiy kuch va e'tibor o'quvchilarda o'qishga qiziqishni uyg'otishiga qaratilgan bo'lishi va shu bilan birga bu tizim o'qitish uslubi va mazmuniga yarasha talablarga javob berishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Masofaviy ta'lim nima?
2. Masofaviy o'qitish nima?
3. Masofaviy ta'lim qachon va qaerda vujudga kelgan?
4. Masofaviy ta'limni tashkil etish usullarini aytib o'ting.
5. Masofaviy o'qitish tizimi deganda nimani tushunasiz?
6. O'zbekistonda masofaviy ta'lim rivojlanishi to'g'risida gapirib bering.
7. Masofaviy ta'lim xususiyatlarini sanab o'ting.

15- MAVZU. MASOFAVIY TA'LIM: G'UYALAR, TEXNOLOGIYALAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.

Reja

1. Masofaviy ta'limning texnologik asoslari.
2. Chet elda masofadan o'qitish tajribasi.
3. Masofaviy ta'limning muammolari va istiqbollari.

Tayanch iboralar: *Masofaviy ta'lim, internet, masofaviy ta'lim texnologiyalari, electron pochta, simulyator, video konferentsiya, audio konferentsiya, electron darslik, masofaviy o'qitish, masofaviy ta'lim modellari.*

O'quv mashg'ulot maqsadi: *talabalarni chet elda foydalanilayotgan masofaviy ta'lim modellari bilan tanishtirish, masofaviy ta'lim afzallik va kamchiliklarini yoritish, masofaviy ta'lim texnologik asoslarini tavsiflash.*

1. Masofaviy ta'limning texnologik asoslari.

Masofaviy ta'limning texnologiyalari va unda qatnashuvchilari. Masofaviy ta'limning asosiy texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

INTERAKTIV texnologiyalar:

- Internet masofaviy ta'lim portali.
- Video va audio konferentsiyalar.
- Elektron pochta orqali ta'lim.
- Internet orqali mustaqil ta'lim olish.
- Uzoqdan boshqarish sistemalar.
- Onlayn simulyator va o'quv dasturlar.
- Test topshirish sistemalari.

INTERAKTIV bo'lmagan texnologiyalar:

- Video, audio va bosmaga chiqarilgan materiallar.
- Televizion va radio ko'rsatuvlar.
- Disklarda joylashgan dasturlar.

Video va audio konferentsiyalar - bu Internet va boshqa telekommunikatsion aloqa kanallari yordamida ikkita, uzoqlashgan auditoriyalarni telekommunikatsion holatda bir biri bilan bog'lab ta'lim olish yo'li. Video va audio konferentsiyalar uchun katta hajmda

maxsus texnika, yuqori tezlikga ega bo'lgan aloqa kanali va o'qitishni tashkil qilish uchun xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarni jalb etish kerak bo'ladi.

Internet orqali mustaqil ta'lim olish - bu Internetda joylashgan ko'pgina saytlarda joylashgan katta hajmdagi ma'lumotlar ustidan mustaqil ravishda ishlash va yangi bilimlar olish yo'li.

Elektron pochta orqali ta'lim esa eng ommaviy Internet xizmatlaridan foydalanib, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida xatlar orqali muloqot o'rnatib ta'lim olish yo'li. U yordamida har xil test, vazifa, savol-javob va ko'rsatmalarni (matn, grafika, multimediyaga, dasturlar va boshqa ko'rinishida) jo'natib qabul qilishimiz mumkin.

Uzoqdan boshqarish tizimlari - murakkab dastur, sistema va uskunalarni real holatda boshqarish va ularda ishlash imkoniyatlarini yaratuvchi maxsus sistemalar yordamida bilim olish yo'li. Uzoqdan boshqarish sistemalarning asosiy vazifasi o'quvchiga faqatgina amaliy bilimlarni berish.

Simulyator, elektron darsliklar va o'quv dasturlar - bu asosan nazariy va amaliy bilimlarni kompyuter dasturlari orqali o'quvchilarga off-layn holatida olish yo'li. Simulyator va elektron darsliklar hozirgi kunda ta'lim sohasida juda keng qullanilyapti.

Test topshirish sistemalar - bu maxsus dasturlar yordamida o'quvchilarning amaliy va nazariy bilimlarni tekshirish uning asosiy vazifasi bu talabalar bilimlarini tekshirib ularni baholash.

Internetning masofaviy ta'lim portali bu maxsus Internet saytlar (onlayn resurslar). Ushbu saytlarning asosiy vazifasi - ta'lim jarayonini tashkil qilish, yoki boshqa so'zlar bilan o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida elektron on-layn muloqotni o'rnatish, o'qituvchilarga o'quv materiallarni joylashtirish va o'quvchilarga shu ma'lumotlar bilan ishlashga hamda boshqa masofaviy ta'lim servislardan foydalanishga imkoniyat yaratish.

IDC (<http://www.idc.com>) kompaniyaning ilmiy izlanish natijalari bo'yicha, global onlayn-ta'lim bozori 2000 yilda 2,2 milliard AQSH \$ ga teng bo'lsa, 2005 yilga kelib jahonda ta'lim sohasiga tegishli internet-dasturlar 18.5 milliard AQSH \$ ga teng sotilishi kutilmoqda.

Nielsen-NetRatings kompaniyaning izlanishlari natijasida, 2000 yil mart oyida Internet foydalanuvchilar soni 379 mln. ga teng bo'lgan bo'lsa ulardan 211 mln. internetning aktiv foydalanuvchilari. Ushbu

kompaniya ma'lumotlariga ko`ra eng aktiv foydalanuvchilar Janubiy Koreyada joylashadilar - bir oyda 2164 veb saxifani ko`rib chiqishadi (dunyo bo`yicha o`rtacha 774 veb saxifa). Undan keyingi o`rinlarda Singapur, Germaniya, Yaponiya va Kanada mamlakatlari turishadi. AQSH esa 7 o`rinda.

2005 yilga Internet foydalanuvchilar soni 1 milliardga teng bo`lishi kutilmoqda. 135 million AQSH fuqorolari Internet xizmatlaridan doimiy foydalanmoqda bo`lib, 2002 yildagi har bir ishlatilgan dollarning yarimi Internet orqali ishlatilgan.

Masofaviy ta'limni jarayonida quyidagilar qatnashishi shart, bular-masofaviy kurs avtor, metodist, o`qituvchi (tyutor, koordinator), ruxshunos, administrator, dokumentovod, telekommunikatsiya va dasturiy ta'minot gruppasi hamda o`quvchilar.

- **Avtor** - masofaviy kursni yaratuvchi, uni yangilatuvchi va taxrirlovchi shaxs.

- **Metodist** - masofaviy kurs avtoriga konsultatsiyalar beruvchi va kursni taxrirlovchi shaxs.

- **O`qituvchi** - o`quvchilar bilan o`qish jarayonida muloqotda bo`luvchi va ularga yordam beruvchi hamda ularning bilimlarini tekshiruvchi shaxs.

- **Ruxshunos** - o`qish jarayonining psixologik monitoringni tashkil qiluvchi shaxs.

- **Administrator** - o`quvchilarni qabul qilish va o`qishdan chetlash masalalarini echuvchi va malakali o`qituvchilarni jalb qiluvchi shaxs.

- **Dokumentoved** - hujjatlar bilan ishlovchi shaxs.

- **Telekommunikatsiya va dasturiy ta'minot gruppasi** - dasturlar va telekommunikatsiya resurslar ishini ta'minlovchi shaxslar.

- **O`quvchilar** - o`quv jarayonida qatnashuvchi shaxs.

O`quv jarayoninin tashkil qilishda esa albatta quyidagi qadamlarni bajarishimiz zarur bo`ladi:

Kurs maqsadlarini aniqlash. Qaysi bilimlarni (mavzular, fan va ...) va kimlar uchun o`qitish kerak.

O`qish metodlarini tanlash. O`quv jarayoni davomida bilimlar va kunikmalar darajasini diagnostika hamda tekshirish manbalarini va usullarini aniqlash kerak.

O`quv materialga metodik talablarini ishlab chiqarish. Yangi bilimlarni berish usullarini va hajmlarni aniqlash kerak.

Darslar jadvalini ishlab chiqarish. Butun kursni bir nechta modullarga bo'lish, har bitta modul tugallashidan keyin o'quvchi tomonidan qanaqa bilimlarga ega bo'lishini aniqlash kerak.

O'quv jarayonini monitoringni tashkil qilish.

Tekshiruv jarayonlarni rejalashtirish.

O'quvchilarning mustaqil ishlarini rejalashtirish.

O'quv jarayoni natijalarini prognozlashtirish.

Natijalarni aniqlash va taxlil qilish.

2.Chet elda masofadan o'qitish tajribasi.

Masofaviy ta'limning chet elda foydalaniladigan bir necha modellari mavjud, ular masofaviy ta'lim tashkil qilinishiga sabab bo'lgan vaziyatlari bilan farqlanadi: geografik sabablar (mamlakat maydoni, markazlardan geografik uzoqlashgan regionlar mavjudligi), mamlakatni kompyuterlashtirish va informasiashtirish darajasi, transport va kommunikasiyalar rivojlanish darajasi, masofaviy ta'lim uchun mutaxassislar mavjudligi, ta'lim sohasida informasion va kommunikasion texnologiyalardan foydalanish darajasi, mamlakatning ta'lim sohasidagi odatlari.

Masofaviy ta'limda (MT) turli ta'lim modellari qo'llaniladi, biroq ularning barchasiga xos bir xususiyat mavjud, bu ham bo'lsa, unda barcha o'quvchi-talaba va professor-o'qituvchilar masofa jihatidan ajratilishidir.

